



2022-yil. 5-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



«Til va adabiyot ta'limi» «Преподавание языка и литературы» «Language and literature teaching»

ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosiroy
Tolib Enazarov
To'liq Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Lutfullo Jo'rayev (bosh muharrir
o'rinbosari)
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Nigora Uralova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

M U N D A R I J A

DOLZARB MAVZU

Abdurahim Nasirov. Lotin yozuvi xususiyatlari 2

TADQIQOT

Dildora Axmedova. Semalarning semantik maydondagi o'rniga ko'ra
tiplarini semantik kengaytmada ifodalash 9

Dilafruz Raxmatova. Til o'rganishning foydasi 12

Nasim Ochilov. "Zulfizar" dostonining variantlari va genezisi 15

Shohsanam Bobojonova. "Axloq" kategoriyasining milliy til xarakterida
aks etishi 18

Xamza Xaitov, Gulmira Azimova. O'zbek nasrida "afandi" obrazining
badiiy talqinlari 20

Mohira Sadullayeva. Luqmon Bo'rixonning "quyosh hali botmagan"
qissasida badiiy mahorati 21

S.Abdullayeva. Chet tilini o'qitishda kursantlar ijodiy qobiliyati
rivojlanishini ekspremental tadqiqi 25

Dilnoza Sulaymanova. S.T.Koldrij she'riyatida sharq she'riyati
an'analari in'ikosi 27

Iroda Asatjanova. Oydin Hojiyeva she'rlarida kuz tasviri va xarakter
ruhiyati 29

Dilnavoz Yusupova. Alisher Navoiyning "firoq" radifli g'azallari
xususida 31

Diyora Abduljalilova. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali:
Ilk dostonlarining qiyosi 33

Umedullo Mahmudov. Munshoatlarning adabiy janr sifatida vujudga
kelish tarixi va tasnifi 39

Tozagul Dusanova. Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg'unligi
an'analari 42

Akmal Abdullayev. Toshkent viloyati joy nomlarida folklor unsurlari 44

O'lmas Saidov. O'zbek tili ish yuritish terminlarini korpus lingvistikasida
semantik tglash masalasi 48

Munira Ramazonova. Tasviriy san'at orqali o'smirlarda ma'naviy-axloqiy
fazilatlarni rivojlantirish 51

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsifiya etilgan ilmiy nashrdir.*



Abdurahim NASIROV,
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i
maslahatchisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

LOTIN YOZUVI XUSUSIYATLARI

(o'zbek, qozoq, qoraqalpoq tillari misolida)

Yozuv yoki alifbo haqida fikr yuritish uchun birmuncha o'tmishga to'xtalishga to'g'ri keladi. Alifbolar paydo bo'lishi 3-4 ming yillik tarixga ega. U nafaqat yozuv madaniyatiga balkim davlatchilik tarixiga ham asos bo'ldi. O'rta Osiyoda alifbo, yozuvlarning paydo bo'lishi haqida olimlar turli xil fikrlarni bayon etganlar.

Rus arxeologi Sergey Tolstov "Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab" asarida "Eron va O'rta Osiyo alifbolari — arshiakiy va sosoniy pahlaviylar alifbolari, "Avesto" alifbosi, So'g'd alifbosi, uyg'ur, mo'g'ul va manchjuriya alifbolari haqida yozgan. "Avesto" alifbosida so'zlarni ifodalash uchun 30 dan ortiq harflar ishlatilgan ekan. U o'z davrida davlat tili hisoblanib, ushbu tilda muloqot qilingan, hujjatlar yuritilgan, asarlar bitilgan, ta'lim berilgan. Arablarning yurtimizga bosqini natijasida sug'd, avesto tillari muomaladan chiqarib tashlangan. Bu to'g'risida Abu Rayhon Beruniy "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida "Qutayba xorazmliklarning yozuvini bilgan kishilarni, olimlarni quvg'in qildi va natijada ularning o'tmishi shu qadar zulmat bilan chulg'andiki, endi biz bu yerga islom kirib kelgan vaqtga qadar ularning tarixida ma'lum bo'lgan voqealar to'g'risida haqiqiy bilimga ega emasmiz", deb yozadi.

Arab tilining O'rta Osiyo hududida davlat tiliga aylanishi IX-XII asrlarga to'g'ri keladi. Ushbu til bir jihatdan ijobiy omillarni yuzaga keltirgan. O'sha davrda yashab ijod qilgan ulamolar al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Nasr Farobiy, Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy va boshqalar shu tilda jahonga mashhur asarlar yaratib qoldirganlar va dunyoda arab allomalari sifatida tanildilar.

XIII asrda O'rta Osiyoda arab tili va arab yozuvi asosida o'zbek alifbosi va yozuvi shakllandi. Ushbu tilda madrasalarda ta'lim berila boshlandi, davlat hujjatlari yuritildi. Bu yozuv va til asrlar davomida o'zbek xalqining ham madaniyati namunasi bo'lib keldi. Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Abulg'oziy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Abdulla Qodiriy kabi ko'plab ilm ahli va ijodkorlar ushbu tilda o'lmas asarlar yaratib ulkan meros qoldirishdi.

1917-yilga kelib sho'rolar hukumati davrida arab yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga hujum boshlangan. 1920-1921-yillarda mazkur alifboning ayrim harflariga va qoidalariga o'zgartirishlar kiritildi. 1922-1925-yillarda tilshunoslar lotin yozuviga o'tishni targ'ib qila boshlashgan. Lotin alifbosiga o'tish masalasini o'tgan asrning boshlarida yashab ijod etgan jadidlar ko'tarib chiqqan.

1926-yilda Bakuda bo'lib o'tgan I turkiylar syezdida turkiy xalqlar lotin alifbosi — yanalifni qabul qilishgan.

1929-yilda lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosi joriy qilindi. Samarqandda bo'lib o'tgan "Til va imlo" anjumanida lotin alifbosiga o'tish haqida qaror qabul qilinadi va alifbo tasdiqlanadi. Jadidlarning asosiy xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, ular milliy alifboga "**ng**" (**hg**) tovushi uchun alohida harf kiritgan.

Oradan o'n yil o'tgach, 1939-yilda sobiq Ittifoq ta'siri bilan respublikada ham majburiy tusda kirill yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi yaratildi. O'sha davrda yashab o'tgan aholi 20 yil ichida uchta alifboni — arab (istiloh qilingani), lotin va kirill yozuvlarini o'rganishga majbur bo'lgan. Natijada keyingi avlod 1400 yillik tarixi, urf-odatlar, madaniyati, ilm-fan, adabiyoti boyliklaridan foydalanish, o'qib o'rganish imkoniyatidan uzoqlashdi.

Yurtimiz mustaqilligi davrida alifbo islohotlari yana davom etdi. O'zbekistonda **1993-yilda** kirill yozuvidan voz kechib, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'tish bo'yicha Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, lotin imlosiga asoslangan o'zbek alifbosi 31 ta harf va bitta ' tutuq belgisidan iborat holda quyidagi ko'rinishda qabul qilingan:

Aa, Bb, Cc, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, Çç, Ğğ, Jj, Ññ, Öö, Şş, ' ,

Bu Qonun bo'yicha 2000-yilda kirill alifbosidan voz kechib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tilishi kerak edi. Keyinchalik bu muddat 2005-yilga cho'zildi undan so'ng 2010-yilga qoldirildi. Bugun ham lotin yozuviga to'liq o'ta olmadik.


Shu bilan birga "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori bilan tasdiqlangan va shu holatda ishlatilib kelinmoqda. U 7 ta bo'lim 82 ta qoidani o'z ichiga oladi, ushbu qoidalar asosida lotin grafikasi qoidalari ham ishlab chiqilgan va amalda asosiy qoidalar sifatida foydalaniladi.

Vazirlar Mahkamasida tashkil etilgan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan so'nggi uch yilda O'zbekistondagi til siyosati bilan bog'liq 20ga yaqin huquqiy, me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-son qarori va "Yo'l xaritasi" bilan yangi vazifalar belgilab

berildi. Bundan lotin yozuvini isloh qilish masalasi ham o'rin olgan. 2023-yil 1-yanvaridan boshlab, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga butun mamlakat bo'ylab to'liq o'tish ko'zda tutilgan. "O'zbek tilining aso-

siy imlo qoidalarini"ning ham takomillashtirilgan loyihasi tayyorlangan. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga quyidagi ko'rinishda o'zgarishlar taklifi muhokama-ga qo'yilganicha to'xtab turibdi hozircha.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi (Loyiha)



№	Янги лотинча	Жорий Лотинча	Кириллча	№	Янги лотинча	Жорий Лотинча	Кириллча
1	A, a	A, a	А, а	16	O, o	O, o	О, о
2	B, b	B, b	Б, б	17	Ö, ö	O', o'	Ў, ў
3	Ç, ç	Ch, ch	Ч, ч	18	P, p	P, p	П, п
4	D, d	D, d	Д, д	19	Q, q	Q, q	Қ, қ
5	E, e	E, e	Э, э	20	R, r	R, r	Р, р
6	F, f	F, f	Ф, ф	21	S, s	S, s	С, с
7	G, g	G, g	Г, г	22	Ş, ş	Sh, sh	Ш, ш
8	Ğ, ğ	G', g'	Ғ, ғ	23	T, t	T, t	Т, т
9	H, h	H, h	Х, х	24	U, u	U, u	У, у
10	I, i	I, i	И, и	25	V, v	V, v	В, в
11	J, j	J, j	Ж, ж	26	X, x	X, x	Х, х
12	K, k	K, k	К, к	27	Y, y	Y, y	Й, й
13	L, l	L, l	Л, л	28	Z, z	Z, z	З, з
14	M, m	M, m	М, м	29	ng	Ng, ng	Нг
15	N, n	N, n	Н, н	30	'	'	Ъ

Lotin yozuviga asoslangan qoraqalpoq alifbosi

Ma'lumki Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qiluvchi qoraqalpoq tili ham lotin yozuviga o'tkazilgan. 1940-yil 18-iyuldan boshlab, sobiq ittifoq davrida ham Qoraqalpog'istonda quyidagi kirill alifbosidan foydalalanib kelingan:

Aa, Əə, Бб, Вв, Гг, Ғғ, Дд, Ее, Ёё, Жж, Зз, Ии, Йй, Кк, Ққ, Лл, Мм, Нн, Ңң, Оо, Өө, Пп, Рр, Сс, Тт, Уу, Үү, Үү, Фф, Хх, Ҳх, Цц, Чч, Шш, Щщ, Ъъ, Ыы, Ьь, Ээ, Юю, Яя (39 ta harf va 2 ta belgi bo'lgan).

Mustaqillik yillarida 1993-yilning oxirlarida lotin imlosiga asoslangan o'zbek alifbosining dastlabki varianti taqdim etilgach, uning asosida lotin imlosidagi quyidagi ko'rinishda qoraqalpoq imlosi ham ishlab chiqilgan:

Aa, Ää, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Ğğ, Hh, Xx, Ii, İi, Jj, Kk, Qq, Ll, Mm, Nn, Ññ, Oo, Öö, Pp, Rr, Ss, Şş, Tt, Uu, Üü, Vv, Ww, Yy, Zz. (32 ta xarəf)

1995-yilda ham o'zbek, ham qoraqalpoq alifbolari qayta ko'rib chiqildi hamda Qoraqalpoqlarning 1995-yilgi alifbosi quyidagicha ko'rinish oldi:

Aa, A'a', Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, G'g', Hh, Xx, Ii, İi, Jj, Kk, Qq, Ll, Mm, Nn, N'n', Oo, O'o', Pp, Rr, Ss, Tt, Uu, U'u', Vv, Ww, Yy, Zz, Sh sh (32 ta xarəf)

2009-yilga kelib lotin imlosidagi qoraqalpoq alifbosiga ayrim harflar qoraqalpoq tilidagi tovushlarni to'g'ri aks ettirmayotganligi sababli yana o'zgartirishlar kiritildi. Qoraqalpog'iston Respublikasining 2009-yil 8-oktyabridagi Qonuniga ko'ra, «ts» harf birikmasi «C c»ga

almashtirildi. Asl qoraqalpoq tilidagi soʻzlarda soʻz boshidagi «e», «o» va «oʻ» harflari mos ravishda «ye», «wo» va «woʻ» shaklida yozila boshlandi. «l» harfi «lʼi»ga almashtirildi «Ch» harf birikmasi joriy etildi.

Qoraqalpoqlar allaqachon oʻz alifbosidagi birtirnoq – «ʼ» lardan voz kechib uni anchayin qulay koʻrinishga keltirib olishdi. Lotin yozuviga asoslangan qoraqalpoq alifbosini joriy etish toʻgʻrisida 2016-yil 10-iyundagi 92 / IX-sonli Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qonunining

1-moddasiga koʻra: Qoraqalpogʻiston Respublikasida quyidagi 34 harfdan (jumladan, 6 ta harf uchta belgisi bilan) iborat lotin yozuviga asoslangan qoraqalpoq alifbosi joriy etildi. Bugungi kunda qoraqalpoq alifbosi quyidagi koʻrinishga ega va undan bimalol foydalanishmoqda.

Aa, Bb, Cc, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Ww, Xx, Yy, Zz, Aʼaʼ, Oʻoʻ, Iʼiʼ, Uʼuʼ, Gʻgʻ, Nʼnʼ, Sh sh, Ch ch (34 ta xarff)

Latín jazıwına tiykarlangan qaraqalpaq tili álipbesi

q/t	baspa	jazba	aytılıwı	kirill	q/t	baspa	jazba	aytılıwı	kirill
1	Aa	<i>Aa</i>	a	a	18	Nn	<i>Nn</i>	ne	н
2	Áá	<i>Áá</i>	á	ə	19	Ññ	<i>Ññ</i>	ñe	н
3	Bb	<i>Bb</i>	be	б	20	Oo	<i>Oo</i>	o	o
4	Dd	<i>Dd</i>	de	д	21	Óó	<i>Óó</i>	ó	ө
5	Ee	<i>Ee</i>	e	e, э	22	Pp	<i>Pp</i>	pe	п
6	Ff	<i>Ff</i>	fe	ф	23	Rr	<i>Rr</i>	re	р
7	Gg	<i>Gg</i>	ge	г	24	Ss	<i>Ss</i>	se	с
8	Ć ċ	<i>Ć ċ</i>	ċa	га	25	Tt	<i>Tt</i>	te	т
9	Hh	<i>Hh</i>	he	хе	26	Uu	<i>Uu</i>	u	у
10	Xx	<i>Xx</i>	xa	x	27	Úú	<i>Úú</i>	ú	ү
11	Íı	<i>Íı</i>	ı	ы	28	Vv	<i>Vv</i>	ve	в
12	Ii	<i>Ii</i>	i	и	29	Ww	<i>Ww</i>	we	ý
13	Jj	<i>Jj</i>	je	ж	30	Yy	<i>Yy</i>	ye	й
14	Kk	<i>Kk</i>	ke	к	31	Zz	<i>Zz</i>	ze	з
15	Qq	<i>Qq</i>	qa	қа	32	Sh sh	<i>Sh sh</i>	she	ш, щ
16	Ll	<i>Ll</i>	la	л	33	Cc	<i>Cc</i>	ce	ц
17	Mm	<i>Mm</i>	me	м	34	Ch ch	<i>Ch ch</i>	che	ч

Lotin yozuviga asoslangan qozoq alifbosi

Qozogʻistonda ham qozoq tilini lotin yozuviga oʻtkazish borasida amaliy ishlar qilingan. Qozogʻiston Prezidenti yozuv haqida: *“Alifbo tanlovi, faqat yozuv shaklini tanlash emas, bugungi kunda Qozogʻiston katta davrdan ortda qolmaydi, qoʻshni davlatlar ham lotin yozuviga oʻtishgan, jahonda maʼlumotlarning 90 foizi lotinchada tarqaladi, kim maʼlumotlarga ega boʻlsa, oʻsha fan va texnologiyani rivojlantira oladi. Qozoq tilini lotinchaga oʻtkazish — aqliy takomillashishdagi muhim bosqichdir”* – deya fikr bildirgan.

Hozirgi kunda qozoq tilini lotin yozuviga oʻtkazish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Yangi alifboda 32 harf mavjud va apostrof belgisi nazarda tutilmagan. Davlat tilini lotin alifbosiga asoslangan imloga oʻtkazish jarayonini 2025-yilgacha yakunlash koʻzda tutilgan. Hozirda Turkiston, Chimkent va boshqa shaharlarda tashqi yozuvlar, reklamalar, eʼlonlar lotin yozuviga asoslangan qozoq alifbosiga oʻtkazildi, ammo ularning koʻrinishlarida turli xillik kuzatiladi, berilgan maʼlumotlar-

ga koʻra bahs-munozaralarga sabab boʻlmoqda, ammo taʼlim-tarbiya jarayoniga hanuzgacha biron taʼlim turida joriy etilmagan.

Qozogʻistonda davlat matbuot nashrlarining xabar qilishicha, hukumatning yetti yil davom etadigan mazkur sohadagi islohoti uch bosqichdan iborat boʻlib, uni amalga oshirish uchun umumiy hisobda 218 million teng (\$664 million) ajratilgan. Ushbu mablagʻning deyarli 90 foizi taʼlim dasturlari doirasida lotin yozuvi asosidagi darsliklar va kitoblar chop etishga sarflaniishi belgilangan. Boshlangʻich va oʻrta taʼlim maktablari faoliyatiga birinchi navbatda mablagʻlar yoʻnaltiriladi.

Ayni vaqtda oʻquv dasturlari va darsliklarni lotin yozuviga oʻtkazish ishlari boshlangan. Oʻqituvchilar va maktabgacha taʼlim muassasalarida joriy yildan lotin yozuvini oʻrgatish dasturlari joriy etilgan. 2025-yilgacha taʼlim tizimi bosqichma-bosqich lotin yozuviga oʻtkazilishi rejalashtirilmoqda. Kirill yozuvidagi matnni lotinga oʻgʻirish uchun moʻljallangan kompyuter dasturlari yaratishga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda.

2022-yil aprel oyida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan "Ta'limdagi xalqaro tadqiqotlarning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazildi. Ushbu konferensiyaga kelib tushgan maqolalar qatorida Qozog'istonning turli oliy ta'lim muassasalari professor o'qituvchilari yoki talabalari yo'llagan lotin alifbosida yozilgan qozoq tilidagi maqolalar ham kelib tushdi. Bu

holat ushbu mavzuni yoritishga sabab bo'ldi. Chunki o'zbek, qoraqalpoq va qozoq tilida yozilgan lotin alifbosiga asoslangan imlodagi tezis va maqolalar bir-biridan keskin farqlanishi kuzatildi.

Tabiiyki, bu holat qardosh, tili va madaniyati yaqin xalqlar munosabati, bir-birini tushinishda o'ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqarish mumkin

Латин кыргыз тили кыргыз тили

Алфавит казахского языка, основанный на латинской графике

№	Буква	Название буквы	№	Буква	Название буквы
1	A a	a	18	O o	o
2	Ä ä	ä	19	Ö ö	ö
3	B b	bı	20	P p	pı
4	D d	dı	21	Q q	qı
5	E e	e	22	R r	rı
6	F f	fı	23	S s	sı
7	G g	gı	24	Ş ş	şı
8	H h	hı	25	T t	tı
9	I i	ı	26	U u	uı
10	J j	jı	27	V v	vı
11	K k	kı	28	Ü ü	üı
12	L l	lı	29	Y y	yı
13	M m	mı	30	Z z	zı
14	N n	nı	31		
15	Ñ ñ	ñı			
16					
17					

*Знаки С, X, W используются в иностранных словах на основе цитатного принципа

«Шуни таъкидлаш керакки, алифбонинг янги тахририда мамлакат президенти 2021 йил январиди такдим этилган версияга нисбатан «Н» харфи ёзилиши бошқача. Давлат раҳбарининг фармонида иловада «Ы»

Гренландияда аномал ҳарорат туфайли 18 млрд тонна муз эриб кетди

АҚШ Сенати Россияни терроризм ҳомийси деб тан олишга қақирди

Баҳодир Умиршайхов: Ҷамоатчилик назорати ўрнатилмас экан, контрафакт маҳсулотлар сони камаймайди

3 ёшида отга минган Суннатилла — "Манзил"

Кўпроқ янгилик

11:07 / 26.07.2022

1 августдан қонунчиликда нималар ўзгаради?

Кўп ўқилганлар

08:41 / 24.07.2022

"Кўз ўнгимда уйларимиз ёқилди, бобом, амаким ўлдирилди, жияним зўрланди" — Фарғонадан Анталияга кўчиб кетган меҳсети турки

07:31 / 26.07.2022

1 сентябрдан туғуруқ ва ҳомиладорлик нафақасини тўлаш тартиби ўзгаради

09:43 / 24.07.2022

Шамол ва қуёш ўрнига: Японияда экологик тоза энергиянинг битмас-туганмас манбайини топишди

13:10 / 23.07.2022

Yuqorida 3 ta tilda, o'zbek, qoraqalpoq va qozoq til-larida bir xil grafikli, lotin yozuviga asoslangan alifbosin-ing joriy etilishi bilan bog'liq bir qator ma'lumotlar va qi-yosiy jadval berildi (1-ilova). O'zbek tilida amaldagi lotin yozuviga ham yangi tavsiya etilayotgan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ham 29 ta harf va 1 ta ' (tutuq belgisi) bor. Yangi tavsiya etilayotgan alifboda 5 ta o'zgarish: O' o' — Ö ö, G' g' — Ğ ğ, Sh sh — Ş ş, Ch ch — Ç ç, Ng ng — Ñ ñ ko'zda tutilgan.


Qoraqalpoq tilida 34 ta harf, 34 ta belgi, 2016-yildan keyin "qosh harf", "tutuq belgisi" kabi qator muammolar yechilgan, endi muomalaga kirib kelayotgan qozoq tilin-ing lotin yozuviga asoslangan alifbosida 31 ta harf ko'z-da tutilgan, ayrim belgilar qoraqalpoq tilidagi harflarga o'xshash. 3 ta tilda aynan o'xshash bo'lgan harflar soni 22 tani tashkil etmoqda, shu bilan birga farqli harflar va belgilar 14 tani tashkil etdi. Ayrim farqlar belgilar yozil-ishida, ayrimlari transkripsiyasida va bir xillari tovushlar-da. Bu tabiiy hol. Chunki so'zlarning talaffuz qilinishi har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Masalan, qozoq tilida o'zbek tilida mavjud bolgan "ch" harfi yoq, sababi ushbu tovush ishlatiladigan so'zlarning o'zi yo'q. Uning o'rniga aksariyat hollarda "sh" ishlatiladi. Ya'ni, "Chimkent" emas "Şimkent", "soch" emas "Şaş".

Mazkur maqolaga ilova tarzida berilayotgan 3 tildagi lotin yozuviga iqtibos qilinayotgan matnlardan parcha-larda farqlarni yanada aniqroq kuzatish mumkin.

Albatta, yozuv va savodxonlik bu ko'p yillar davom-ida shakllanadigan hodisa. Yangi bir grafikani, yozuvni o'rganish va unda savod chiqarish uchun insonlar juda sermashaqqat jarayonni boshidan kechirishi, bu soha-dagi bilimdan tashqari, ko'z xotirasi, qo'l ko'nikmasini shakllantirishi shart. Bu esa har bir o'rganuvchidan yillar davomida qanchadan-qancha matnlarni o'qish, yozish, doimiy ravishda shug'ullanishni talab etadi. Til va yozuv amaliyot bilan doimo tirik va rivojlanishda bo'ladi.

Ilovalar

Diyara Tangirova — 9-sinf o'quvchisi. Tafakkur beka-ti, 2018-yil.



(Qoraqalpoq adabiyoti 10-sinf darsligi, 2017-yil, Nukus)

«Qoblan» dástamı

Qaraqalpaq qaharmanlıq dástanı «Qoblan» xalıq arasında keñnen taralğan, xalıq süyip tıñlaytuǵın dástanlardıń biri. Ásirler dawamında xalıq jırawları tárepinen awızsha atqarılıp házirgi künimizge shekem kelip jetken. Dástannıń qaraqalpaq jırawlarınan jazıp alınğan 8 variantı bar. Sonday-aq, türkiy tilles xalıqlardan qırım, tatar, bashqurt, qazaq variantları da bar.

«Qoblan» dástanınıń qaraqalpaq jırawlarınan jazıp alınğan variantlarınıń ishinde eń tolıǵı hám eń úlkeni, mazmunı hám kórkemligi bahalısqı Esemurat jıraw variantı bolıp esaplanadı. Onıń kólemi jeti mıńǵa jaqın qosıq qatarlarınan turadı. Usı Esemurat jıraw variantı «Qaraqalpaqstan» baspasında 1941 — 1959-jılları hám 1981-jılı Qaraqalpaq folklorı kóp tomlıǵınıń VIII tomında, sonday-aq, Tashkent qalasınıń «Manaviyat» baspasında basıp shıǵarılıǵan 100 tomlıqtıń 13-tomında 2009-jılı basılıp shıqtı. Bunnan tisqari «Qoblan» dástanı 1987-jılı shayırlar A.Nawmov, D.Aytmuratovlardıń awdarması menen orıs tilinde basıldı.

Arslanbob ziyoratgohi (Turkiston) dan olingan rasm. 2022-yil 9-iyul

Arystanbab XI gasyrdyn aıaǵy men XII gasyrdyn bасында ómir surgen dındar, islám dininiń yagyzdayshysy. Ortagasyrlyq jazbalarda Arystanbabtyń eń baıyrgy turki shaiqy bolǵany aııylady. Anyz boıynsha Arystanbab 33 din negizderin bulǵon. Otyrardagy mybairdialyqtardyn ryhami koshbasshysy jáne turki sopylarynyń babasy aıǵılı Qoja Ahmet Isayıǵe paıǵambarymyz Muhammed s.g.s. amanat etip tapsyrgan qurmany retkeıyshi jáne talim-tarbie bergén ustazy retinde sıpatalǵan.

Arystanbab aıılie tyraly qunda deraktordı Qoja Ahmet Isayıǵe qatıstı. Onıń qatıstı bolady. Onda Qoja Ahmet Arystanbabtan haq islám jolına menen sopylardy uırenip talim alǵanyń teren baılandıdy. Sonymen birge ustazynyń talim salıyǵı, qatıstı jóninde hikmetter bar. Keıbir hikmetter tolyǵymen Arystanbabqa arnalǵan.

Arystanbab kesenesinin ırgesi shamamen XII g. qalangan. Sodan bergi yaqytta birneshe ret jondelip qalpyna keltirilgen. Kesene XIV gasyrda qaita qalansa 1909 jyly qosymsha qurylystar, qazirgi meshit bolıǵı men minaralar salıydy. Gimarattyn joba qurylysy erekshe, ol qabyrhan, zıarathana, meshit, minara, qıyranalardan turady. Kesene qazyshtayda san alyan tasıl, turli materialdar qoldanylǵan. Arystanbab gimaraty jergilikli sheherlerdin tol qoltyması. Kesene qazaq jerindegi usta esimi jazylǵan, saysaqpen sanarlyqtai eskertkishter qataryna jatady.

Arystanbab kesenesi <<Qazaqstanıń jalpyulıtyq kielı orındary>> respublikalyq manyzy bar arhitekturalyq saylet onereskertkishi tizimine engin.

Qaraqalpaq tili – 8-sinf, 2014-yil Nukus, 2016-yıldan oldingi qoraqalpoq yozuvi

38-shi'ni'g'i'w. Beriglen ga'plerdi ko'shirip jazi'n'. Jay so'z dizbeklerinin' asti'n si'zi'p, wolardi' bag'i'ni'n'qi'li' baylani's tu'rlerine aji'rati'p ayti'p berin'.

Qon'i'ratqa kirgen jerde Xiywa u'lgisinde yeki g'ubbali' minar sali'ng'an. Wolardi'n' wortasi'nan yeki arba ten'nen si'yg'anday da'rwaza quri'lg'an. Yesik aldi'nda jipek shapan menen aq sho'girme kiyinip, qi'li'sh asi'ng'an no'kerler na'wbetshilik yetedi. Qalag'a ku'nine birneshe ka'rwannar kelip, ju'k tiyelgen tu'yenin' qon'i'rawlari' uzaqtan jan'lap yesitiledi. Qon'i'rat a'lleqanday da'bdebeli bir shi'g'i's qalalari'na usap ko'rinetug'i'n yedi.

Qon'i'ratti'n' bergi da'rwazasi' menen arg'i' da'rwazasi'n tutasti'ri'wshi' u'lken jol bar. A'sirese, Man'g'i'shlaqti' jaylag'an qazaqlar ko'p sandag'i' qara mal, ji'lqi' ha'm qoy-yeshkilerdi aydap a'kelip, da'nge awmasti'radi'. (K.M.)

2022-yil aprel -V.B.Togayeva. Qozoqcha maqoladan parcha

KAZIRGI KEZDEGI OKUSHYLARDYN DUNITANYN KALYPTASTYRUDA ALEUMETTİK PEDAGOGİKALYK MASELELER

Togayeva Venera Berikovna
Shymkent University

Anda Zhasospirinnin oz betlilik kasivetke umtylyp, ulkenderdin kamkorlygyna bosanuga tyrysuy balanyn barinde kezdesetin bolgans men bir katary kuni-tuni fantastikalyk adebietterdi okyp, solarдын keipkerlerin elikteidi. Sabaktan tys mezgilde jasospirim radio engineering electrical engineering, tamysyp edaur bilim alady. Munymen katar bul zhasagylar boyynan ali de balalyk kezdesip turady. (mysaly: uldar kyzdardyn shashyn tartyp mazalawyt.b) birak sol zhetkinshek tamys emes ulken adamdardyn aldynda ozin madenietti turde ustauga tyrysady. Adette zhetkinshekterdi tarbiege konbeitin kiyn zhas dep sipattaydy. Solai dep bagalaityny birinshiden buryngy kezdegi psychikasy minez-kulky ozgerip, sonyn negizinde zhana kasietter paida bolatynnan.

Kiltli sozder: Jasospirim, tulga, tarbieh.

Gylym men technique damygan savyn aleumettik omir dehevi de ozgeredi. Osynyn bari tabigat baylygyn igerudegi adam miy men kushinin zhumysy. Adam tabigat, kogam — birtutas dunie. Tutas dunieni oz maninde bir-birmen baylanysty kabyldau tanym urdisi arkyly zhuzege asady.

Dunietanu ugymy dialectikalyk damudyn karama-karsylygy men birtutastygyna suyenbey ote almaydy. Dunie — ol tek bizdi korshagan tabigat kana emes, ol — adam, adam men adamnyn karym-katvysy, ol — tabigat, tabigat zattary men kubylystary, ol — kogam. Ar kogamnyn orkendeune adamnyn ovy men bilimi kandai kerek bolsa, tabigat pen onyn baylygy da sondai kerek. Osynyn ozi dunienin bir-birmen baylanysty damityn, ony bir-birinen bolip karauga bolmaytyn orta ekenin korsetedi.

Dunietanu — "dunie" zhane "tanu" dep atalatyn eki bolikten turady. Aldymen neni tanyp-bilu kerektigin anyktauyvmyz kerek. Okushylarga tanytkaly otyrganymyz — dunie. Sol dunieni tanyp-bilu adisteri men olardy karulandyru zholin izdestirin, tiimdilerin is zhuzinde koldanuga usynbakpyz. Dunie — korshagan orta, tabigat, bukil alem, olai bolsa bugan enbeitin, onyn kuramyna kirmeitin birde bir zat ne kubylys zhok. Adam dunieni omir boyv tanyp, bilumen, onyn

LOTIN YOZUVIDAGI O'ZBEK, QORAQALPOQ VA QOZOQ ALIFBOLARI

№	O'zbek tilida	Kirillda	O'zbek tilida	Kirillda	№	Qoraqalpoq tilida	Kirillda	№	Qozoq tilida	Kirillda	IZOH, farq
	Amaldagi		Yangi			Amaldagi			Yangi		
1	A a	[a]	A a	[a]	1	A a	[a]	1	A a	[a]	
					2	Á á	[ə]	2	A' a'	[ə]	Bu belgi va tovush o'zbek tilida yo'q, qoraqalpoq va qozoq tilida bor
2	B b	[b]	B b	[b]	3	B b	[b]	3	B b	[b]	
3	D d	[d]	D d	[d]	4	D d	[d]	4	D d	[d]	
4	E e	[ə]	E e	[ə]	5	E e	[ə]	5	E e	[e]	Qozoq tilida talaffuzi boshqacha
5	F f	[f]	F f	[f]	6	F f	[f]	6	F f	[f]	
6	G g	[g]	G g	[g]	7	G g	[g]	7	G g	[g]	
7	H h	[x]	H h	[x]	8	H h	[xə]	8	H h	[x, h]	
8	I i	[и]	I i	[и]	9	I i	[и]	9	I i	[i]	Faqat qozoq tilida kirill yozuvida bor
					10	İ i	[ы]	10	İ i	[и, й]	
9	J j	[ж]	J j	[ж]	11	J j	[ж]	11	J j	[ж]	
10	K k	[к]	K k	[к]	12	K k	[к]	12	K k	[к]	
11	L l	[л]	L l	[л]	13	L l	[л]	13	L l	[л]	
12	M m	[м]	M m	[м]	14	M m	[м]	14	M m	[м]	

13	N n	[H]	N n	[H]	15	N n	[H]	15	N n	[H]	
14	O o	[o]	O o	[o]	16	O o	[o]	16	O o	[o]	
15	O' o'	[ŷ]	Ö ö	[ŷ]	17	Ó ó	[ŷ]	17	Ö ö	[Ə]	Qozoq tilidagi tovush farqlanadi
16	P p	[p]	P p	[p]	18	P p	[p]	18	P p	[p]	
17	Q q	[k]	Q q	[k]	19	Qq	[k]	19	Qq	[k]	
18	R r	[p]	R r	[p]	20	Rr	[p]	20	Rr	[p]	
19	S s	[c]	S s	[c]	21	Ss	[c]	21	Ss	[c]	
20	T t	[t]	T t	[t]	22	Tt	[t]	22	Tt	[t]	
21	U u	[y]	U u	[y]	23	Uu	[y]	23	U u	[ʏ]	Qozoq tilidagi tovush farqlanadi
					24	Úú	[y]	24	Û û	[ʏ]	Bu tovush belgisi o'zbek tilida yo'q
								25	Ü ü	[y]	Bu tovush belgisi faqat qozoq tilida bor
22	V v	[b]	V v	[b]	25	Vv	[b]	26	V v	[b]	
					26	Ww	[ya]				Ushbu belgi faqat qoraqalpoq tilida bor
23	X x	[x]	X x	[x]	27	Xx	[x]		-	-	Qozoq tilida bu belgi faqat xorijiy so'zlarda ishlatiladi
24	Y y	[ŷ]	Y y	[ŷ]	28	Yy	[ŷ]	27	Y y	[ɣ]	Ushbu belgi qozoq tilida kirilidagi [ɣ] uchun ishlatiladi
25	Z z	[z]	Z z	[z]	29	Zz	[z]	28	Zz	[z]	
26	G' g'	[f]	Ğ ğ	[f]	30	Ğ ğ	[f]	29	Ğ ğ	[f]	
					31	C c	[ɟ]				C c [s] alohida harf sifatida faqat qoraqalpoq tilida bor
27	Sh sh	[ʃ]	Ş ş	[ʃ]	32	Sh sh	[ʃ]	30	Ş ş	[ʃ]	
28	Ch ch	[tʃ]	Ç ç	[tʃ]	33	Ch ch	[tʃ]		-	-	Ch ch [ch] – bu harf qozoq tilida yo'q
29	Ng ng	[ŋr]	Ñ ñ	[ŋr]	34	Ñ ñ	[ŋr]	31	Ñ ñ	[ŋr]	Bu belgi qozoq kirilida ilgaridan bir belgi bo'lgan
30	' (tutuq belgisi)	[ʔ]	' (tutuq belgisi)	[ʔ]							Tutuq belgisi faqat o'zbek tilida bor
	29+1 ta	30 ta	29+1 ta	30 ta		34 ta	34 ta		31 ta	31 ta	

* Qozoq tilidagi lotin alifboda S, X, W belgilari faqatgina chet tili so'zlarida iqtibos tarzda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolstov Sergey. Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2014, 380 bet. Tarjimon: Anvar Muhammadqulov. Muharrir: Umid Bekmuhammad.
2. Abu Rayhon Beruniy "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar", («Osor al-boqiya»), "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021-yil.
3. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori bilan tasdiqlangan.
4. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-son qarori
5. "Lotin yozuviga asoslangan qoraqalpoq alifbosini joriy etish to'g'risida" 2016-yil 10-iyundagi 92 / IX-sonli Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonuni.

Tadqiqot



Dildora AXMEDOVA,
BuxDU doktoranti (DSc), f.f.f.d. (PhD)

SEMALARNING SEMANTIK MAYDONDAGI O'RNIGA KO'RA TIPLARINI SEMANTIK KENGAYTMADA IFODALASH

So'z ma'lum sememasiga ko'ra muayyan semantik maydonlarga birlashadi. Rus tilshunosi N.I.Tolstoyning qayd etishicha, tilning (semantik tizimini qismlarga bo'lib qarash keyingi o'n yilliklarda "semantik maydon" deb atalgan negizga yo'naltirildi. M.Mirtojiyevning ta'kidlashicha, N.I.Tolstoyning bu qaydiga qirq yildan oshdi. Ya'ni tilning semantik tizimini semantik maydonlar negizida o'rganish boshlanganiga yarim asrdan oshdi. Tabiiyki, semantik tizimni semantik maydon negizida o'rganish an'anaviy leksikografiya va kompyuter leksikografiyasiga ham ta'sir etmay qolmadi. Semantik maydonga asoslangan tartibdan iborat lug'atlar dunyo yuzini ko'rdi. Elektron lug'atlarning so'zligi alifbo tartibi yoki ma'noviy guruhlar tartibini saqlaydi. Hatto ma'lum tilni o'rganishga mo'ljallangan so'zlashgichlarda ma'noviy guruh yoki semantik maydon asosidagi qidiruv tizimining mavjudligi bu kabi yondashuvning foydalanuvchi uchun qulayligini ko'rsatadi.

Tilning semantik tizimini semantik maydonlar negizida differensial-semantik tahlil metodi bilan tekshirish L.Yelmslev nomi bilan bog'liq bo'lib, u 1943-yil Praga maktabi jurnalidagi maqolasida boshlangan. Bu maqola urug'chilik, hayvon nomlari, harbiy terminlarni tahlil etishga bag'ishlangan edi. Ularda terminlar sememalari bo'yicha bir xil va farqlanuvchi semalarni ko'rsatib, tahlil etib berishga harakat qilingan. Asosan ayrim terminlarni differensiatsiyalash maqsad qilib olingan. M.Mirtojiyev xuddi shu yo'nalishda yana St.Ulman, D.N.Shmelev, T.M.Garipovlarning ishlarini ham ko'rsatadi. M.Mato esa leksikaning differensial tahlil etish asoslarini yuzaga keltirish bo'yicha qator metodlarni qo'llash doirasini kengaytirishga harakat qilgan.

M.Mirtojiyev o'rinli ta'kidlaganidek, "semalar sememalarning semantik maydonda joylashish mavqeyiga qarab arxisema, integral sema, differensial sema va potensial sema kabi tiplarga bo'linadi va ular ierarxik tartibdagi o'rniga qarab turlicha vazifa bajaradi. Buning uchun ularning har biriga alohida-alohida to'xtab o'tish va tahlillar berish to'g'ri keladi". Bizningcha, arxisema, integral sema, differensial sema va potensial semalarning xususiyatlarini o'rganish hamda ularni semantik kengaytmada aks ettirish foydadan xoli bo'lmaydi. Chunki semantik kengaytmaning interfeysdagi hajmini ham, ma'lumotlar ombori bazasidagi hajmi ham istalgan shakl va ko'rinishda qisqartirish/kengaytirish mumkin.

So'zlarni ma'nolarga ko'ra guruhlashtirish tilshunoslikda eski usul. Shu asosda leksikografiyada ideografik lug'atlar yuzaga kelgan. 1931-1932-yillarda nemis tilshunosi Y.Trirning "semantik maydonlar nazariyasi" yuzaga kelganligi ham shuning bir ko'rinishi edi. Mana shu bir semantik maydonga birlashuvchi so'zlar differensial-semantik metodga ko'ra bir arxisema ostida qaraladigan bo'ldi. Masalan, R.Rasulov holat fe'llarining hammasini holat arxisemasiga ega bir semantik maydonga mansub fe'llar sifatida qarab, o'z tadqiqotini yaratgan.

Sh.Iskandarova ot turkumiga mansub katta bir semantik maydonni "shaxs" arxisemasi, N.Nishonova ikkinchi bir semantik maydonni "hayvon" arxisemasi ostida birlashtirib tadqiq etgan. S.Muhammedova holat fe'llaridan qolgan hamma fe'llarni harakat arxisemasiga ega semantik maydonni tarkib toptiradi, deb qaraydi. M.Mirtojiyevning fikricha, bu uncha to'g'ri emas.

S.Muhammedova e'tiborda (M.Mirtojiyev to'g'ri ta'kidlaganidek) tutgan fe'llar ichida nutq fe'llari, sezgi fe'llari, mushohada fe'llari kabilar ham borki, ular alohida semantik maydon sifatida qaralmay iloji yo'q.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, arxisema bir semantik maydonga mansub leksemalar sememasi uchun umumiy bo'lgan, ularni o'zaro birlashtiruvchi semadir. U leksemalarni yagona semantik turga birlashtiradi. Integral sema termini dastlab fransuz tilshunosi B.Potye tomonidan, keyin unga ergashgan holda V.Gak tomonidan tilga olingan.

Ular bunda ma'lum semantik maydonga mansub leksemalar sememasi umumiy bo'lgan semani arxisema deb bilgani holda, o'sha semantik maydonning kichik guruhi (maydonchalari)ga mansub leksema sememalari uchungina umumiy bo'lgan semani integral sema deb talqin qilishgan. Undan keyin shu integral sema haqidagi tushunchani ayrim tilshunoslar umumiy sema, mushtarak sema, birlashtiruvchi sema nomi bilan qayd etadilar. H.Ne'matov va R.Rasulovlar o'ziga xos birlashtiruvchi semalar deb ikki va undan ortiq leksemalarni bir guruhga birlashtiruvchi, bir necha sememalar uchun umumiy sanaluvchi semalarga aytiladi, deb ta'rif bergan. M.Mirtojiyev ushbu yondashuvni *"Biroq u mantig'iga ko'ra B.Potye va V.Gak izohlaridan deyarli farq qilmaydi"* deb izohlaydi. S.Muhammedova yana fe'l sememalari paradigmatic tamoyilga ko'ra integral (birlashtiruvchi) sema asosida birlashishlarini aytadi. Ya'ni bir integral semaga ega holda kichik maydonni tashkil qiluvchi leksema sememalari hamma vaqt o'zaro paradigmatic munosabatda bo'ladi.

Integral semani semantik kengaytmada aks ettirish kerakmi? Agar aks ettirish mumkin bo'lsa, buni qanday amalga oshirish kerak. Ushbu savollarga javob topish uchun R.Rasulovning quyidagi yondashuvini keltiramiz.

R.Rasulov "holat" arxisemasiga ko'ra bir semantik maydonga kirgan fe'llarni to'qqiz semantik maydonchaga ajratadi va bu maydonchalarning har biri *"davomiy"*, *"harakat natijasi bo'lgan"*, *"ijro holati"*, *"harakat holati"*, *"ko'nikma"*, *"obrazli"*, *"biologik"*, *"fiziologik"*, *"psixologik"* integral semalarining biri ostida birlashishlarini ko'rsatadi.

Bunday misollarni boshqa tilshunoslarning ishlaridan ham olib ko'rsatish mumkin. Masalan, I.Qo'chqortoyev nutq fe'llarining sakkiz, T.Musayev sezgi fe'llarining besh kichik semantik maydonchalarga bo'linishi va bu kichik semantik maydonchalarning har biriga mansub fe'llar o'z doirasida muayyan integral sema asosida birlashishlarini tahlil qilib bergan.

Ma'lum bo'ladiki, integral sema yagona arxisemaga ega sememali leksemalarning semantik maydoni tarkibidagi kichik semantik maydonchasiga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy bo'ladi. U iyerarxik tartibga ko'ra ikkinchi o'rinda turadi (M.Mirtojiyev

I.Qo'chqortoyevning leksemalar sememasini o'zaro bog'lovchi umumiy semalarni iyerarxik tartibiga ko'ra arxisema va integral sema deb ikki pog'onaga bo'lib o'rganmasligini aytadi).

Bundan kelib chiqib aytish lozimki, integral sema semantik kengaytmalarni o'zaro giperhavola orqali bog'lashga yordam beradi. Zero, internetda turli lug'atlarda turgan so'zlarning ma'nosini izlab topish yoki aksincha, bitta so'zning ma'nolarini turli lug'atlardan topish giperhavola usulida amalga oshiriladi. Giperhavolalarni joylashtirish uchun esa ma'lum bir tamoyil, qoidaga amal qilish kerak. Bizningcha, semantik kengaytmalar orasida giperhavola qo'yishda integral semalarga amal qilish lozim. Har qanday holatda ham giperhavola inson ishtirokida ishlab chiqiladi, ya'ni foydalanuvchiga avtomatik ko'ringani bilan, ishlab chiquvchi uni izchil mantiqiy prinsip asosida amalga oshiradi.

Shuni ham aytish kerakki, muayyan bir mazmundagi sema juda ko'p turli-tuman leksemalar sememasida uchrashi mumkin. Mana shunday semali sememaga ega leksemalarni umumlashtirib, bir semantik maydonga mansub mazkur sema ularning arxisemasi deb bo'lmaydi. Masalan, B.Qurbonova *"makon"* semasi bo'lgan *yer, joy, o'rin, makon, hudud, dargoh* va h. leksemalarni, *"ma'lum tomon"* semasi bo'lgan *taraf, yon, tomon, yoq, sharq, g'arb, shimol, janub* va h. leksemalarni qayd etib, ularning hammasidagi sememada *"lokal"* semasi mavjudligini ta'kidlaydi, lekin u juda to'g'ri yondashib, o'sha leksemalar arxisemasi *"lokal"* sema demaydi. *"Lokal"* semani o'sha leksemalar sememasining semalaridan biri sifatida ko'rsatadi. Chunki arxisema tur uchun umumiy sema bo'lib, integral sema shu tur ichidagi guruhlar uchun umumiy semadir. Yuqoridagi misolda *"makon"* va *"ma'lum tomon"* semalari integral hisoblanadi. *"Lokal"* semasi turli arxisema va turli integral semali sememalarda uchrayverishi mumkin. Bunday holda u arxisemaning ham, integral semaning ham maqomini olmaydi.

M.Mirtojiyevning fikricha, integral sema ma'lum semantik maydondagi semantik guruh (maydoncha) ga mansub leksemalarning sememasi uchun umumiy bo'lgan, ularni o'zaro birlashtirib turuvchi sema deb qoraladi.

Differensial sema semalarning iyerarxik tartibida uchinchi o'rinda qoraladi. O'zaro aloqador semaning bir-biridan ajralishi differensial sema asosida bo'ladi. Shuning uchun bu semani ayrim tilshunoslar farqlovchi sema deb ham ataydi. Differensial sema ikki leksemani emas, ikki leksema sememasini bir-biridan farqlaydi. Masalan, *novcha* va *darozi* leksemalari sememasiga e'tibor beraylik. *Novcha* leksemasining sememasi *"bo'yi"* *"me'yorida"* *"nisbatan baland"* semalariga, *darozi* leksemasining sememasi *"bo'yi"* *"me'yorida"* *"o'xshovsiz ortiq"* semalariga ega. Ma'lumki, ular se-

memasining arxisema va integral semasi bir xil. Yana ularning birida *"nisbatan baland"*, ikkinchisida *"o'xshovsiz ortiq"* kabi semalar bor. Ular o'zaro farq qiladi. Mana shu farqqa ko'ra leksemalar sememasi o'ziga xos ekanligi ko'rinadi.

Shulardan kelib chiqib, V.Gak: *"Differensial sema mavjud holatiga ko'ra, so'zlarning leksik-semantik guruh ichida o'z hajmini, o'ziga xosligini belgilab, ma'nosi asosini tashkil qiladi"* degan ta'rifni ilgari surgan. Ya'ni so'zlarning sememasi hajmi, o'ziga xosligi shu differensial sema asosida belgilanadi. So'zlardagi sememaning emotsional-ekspressivligi va uslubiyligi ham shu differensial sema orqali yuzaga chiqadi. Masalan, *daroz* leksemasi sememasida emotsionallik bor. Bu emotsionallik uning differensial semasi *"o'xshovsiz ortiq"* ifodasi orqali yuzaga chiqqan.

Shu o'rinda differensial semalarning semantik kengaytmada berilishini namuna sifatida ko'rsatish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, *novcha* va *daroz* leksemalarining o'xshash va farqli sememalari mavjud. Bu leksemalar sinonim ekan, o'zaro giperhavola orqali bog'lanadi hamda o'xshash semalari bir rangdagi yozuvda, farqli semalari boshqa-boshqa rangli yozuvlarda aks ettiriladi. Buning uchun dastlab ushbu leksemalarning O'TILdagi izohi keltiriladi.

NOVCHA I. Bo'yi baland, daroz, uzun. Novcha yigit. Bo'yi novcha odam. *Hokimning novcha, haybatli qomati oldida Teshaboy ham odamlar nazaridan chetda emas edi.* M.Ismoil, Farg'ona t. o. *Novcha teraklar uchida oyning kumush parchasi suzadi.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar.

NOVCHA II tar. Qarol, xizmatkor. Ular qishloqdan chiqib ulgurmasdanoq, qarindosh boyning novchalari ketmon ko'tarib kelib, sotib olingan uylarning tom tuprog'ini ko'kka sovurib buza boshladilar. P.Tursun, O'qituvchi. *Qancha boynikida novcha bo'lib ishladim-u... Hamma yerda to'g'ri ishladim.* Sh.Toshmatov, Erk qushi (O'TIL, 3-tom).

O'TILdan keltirilgan izohdan ko'rinyaptiki, *novcha* – omonim so'z. Bu o'rinda birinchi novcha leksemasining semantik kengaytmasini ko'rsatish mumkin.

NOVCHA I. Bo'yi baland, daroz, uzun. Novcha yigit. Bo'yi novcha odam. *Hokimning novcha, haybatli qomati oldida Teshaboy ham odamlar nazaridan chetda emas edi.* M.Ismoil, Farg'ona t. o.

Novcha teraklar uchida oyning kumush parchasi suzadi. S.Ahmad, Qadrdon dalalar.

Ushbu 1-semantik kengaytmada *"bo'yi baland"* va *"uzun"* semalari qizil rang bilan berilgan. Faqat *daroz* izohi alohida so'z sifatida ifodalanib, giperhavola shaklini olgan, ya'ni tagi chizilgan ko'k rang bilan ajratilgan. Shu so'zga bosilsa, ikkinchi semantik kengaytma ochiladi.

Ikkinchi kengaytma birligi – *daroz* so'zi O'TILda bunday izohlanadi:

DAROZ [f. – uzun; uzoq davomli] 1 Baland bo'yli, novcha, bo'ychan. Daroz odam. Daroz terak.

Aqlli pakana axmoq darozdan yaxshi. Maqol.

Sodiqjon yigirma yoshlardagi daroz, og'irkarvon, kamgap yigit. S.Siyoyev, Otliq ayol.

Kun botib qolgani uchun bolalarning bo'yi daroz ko'rinadi. S.Yunusov, Kutilmagan xazina.

Lekin bu hovlidagi chuchmomalar juda daroz, poyalari sip-silliqlik va oq. Sh.Xolmirzayev, Og'ir tosh ko'chsa.

Darozdan kelgan novcha, bo'yodor. Darozdan kelgan, yag'rindor Timofey uzun va baquvvat qo'llari bilan Sheralini quchoqladi. M.Muhamedov, Qahramon izidan.

2. Dastini daroz qilmoq. Imkoniyatini oshirmoq, qo'lini uzun qilmoq.

Besh million so'mlik imtiyozli qarz uning ishonch va qat'iyatini oshirdi, dastini daroz qildi. Gazetadan. (O'TIL. 2-tom)

Ko'rinyaptiki, *daroz* leksemasi ko'p ma'noli bo'lib, unda ham uzun, novcha semalari mavjud. Shu sababli semantik kengaytmada giperhavolani quyidagi shaklda joylashtirish mumkin:

DAROZ [f. – uzun; uzoq davomli] 1. Baland bo'yli, novcha, bo'ychan. Daroz odam. Daroz terak. *Aqlli pakana axmoq darozdan yaxshi.* Maqol.

Sodiqjon yigirma yoshlardagi daroz, og'irkarvon, kamgap yigit. S.Siyoyev, Otliq ayol.

Kun botib qolgani uchun bolalarning bo'yi daroz ko'rinadi. S.Yunusov, Kutilmagan xazina.

Lekin bu hovlidagi chuchmomalar juda daroz, poyalari sip-silliqlik va oq. Sh.Xolmirzayev, Og'ir tosh ko'chsa.

Darozdan kelgan, novcha, bo'yodor.

Darozdan kelgan, yag'rindor Timofey uzun va baquvvat qo'llari bilan Sheralini quchoqladi. M.Muhamedov, Qahramon izidan.

2. Uzun-daroz, uzun.

Ayta bersa barcha nutqin,

Bo'lajak so'zi daroz. Maqsud Shayxzoda.

Sidqi bilan qip edim sizlarga ixlos,

O'g'limning umrini dedinglar daroz. «Erali va Sherali».

Dastini daroz qilmoq. Imkoniyatini oshirmoq, qo'lini uzun qilmoq.

Besh million so'mlik imtiyozli qarz uning ishonch va qat'iyatini oshirdi, dastini daroz qildi. Gazetadan.

Semantik kengaytmada ko'rinyaptiki, *daroz* so'zining *"baland bo'yli"*, *"novcha"*, *"bo'ychan"*, *"bo'yodor"*, *"uzun"* kabi semalari ajratilgan va ularga giperhavola vazifasi yuklatilgan. Ajratib ko'rsatilgan semalar boshqa semantik kengaytmalar bilan giperhavola usulida bog'lanadi, foydalanuvchi ko'k rang bilan ajratilgan

so'zlarni bosganda, shu so'zlarning sinonimi yoki shu sememaga ega so'zlar yuzaga chiqadi.

M.Mirtojiyevning ta'kidlashicha, differensial sema leksema sememasining qaysi turkumga mansubligini belgilovchi asosiy vosita degan fikrga bormaslik kerak. To'g'ri, sifat va ravish turkumiga mansub leksemalar sememasi turkumini differensial sema belgilaydi. Masalan, yuqoridagi novcha va daroz sifatlarining turkumi ular sememasidagi "nisbatan baland" va "o'xshovsiz ortiq" semalari orqali belgilangan. Bu semalar sifatlar sememasining differensial semalari edi. Ot va fe'llarda bu holat kuzatilmaydi. Masalan, stul leksemasi ot turkumiga mansub bo'lib, uning sememasi "to'rt oyoqli" "yuzali" "suyanchiq" "mebel" semalariga ega. Uning turkumini "mebel" semasi belgilaydi. U esa arxisemadir.

Bundan ko'rinadiki, differensial semalar orqali semantik kengaytmada so'zning turkumga mansublik belgisini ko'rsatib bo'lmaydi. Semantik kengaytmada so'zning morfologik xususiyati ham imkon qadar aks etishi mumkin. Bunday holatda morfologik leksikondan foydalanish maqsadga muvofiq.

M.Mirtojiyev bu borada o'quvchining e'tiborini fe'l turkumiga oid kelmoq leksemasi sememasiga tortadi. U "nutq qaratilgan" "joyga" "yo'nalmoq" semalariga ega bo'lib, ulardan oxirgisi fe'lga xos turkumni belgilayapti. Bu sema ham fe'l sememasida arxisemadir. Ya'ni differensial sema ot va fe'llarda turkum belgilamaydi. Olmosh va sonlarda ham shu fikrni aytish mumkin. Ko'rinadiki, differensial sema maydondagi har bir lek-

sema sememasining chegarasini, boshqa sememalardan farqini, o'ziga xosligini, xususiyatini ko'rsatib beradi. Shu sababli semantik kengaytmada differensial sememalar giperhavola vazifasini o'z zimmasiga olishi, shu yo'l bilan sememalarni farqlashga yordam berishini ta'kidlaymiz.

Potensial sema semalarning iyerarxik tartibida to'rtinchi o'rinda qaraladi. V.Gak u haqda: "Potensial semalar turli ikkinchi darajali, ba'zan predmetning zarur bo'lmagan belgisini aks ettiradi" – deydi. M.Mirtojiyevning ta'kidlashicha, potensial sema mazkur leksemalar sememasida fakultativ holatda, yashirin bor bo'lib, ma'lum nutq sharoitida namoyon etiluvchi semadir. Demak, bir semantik maydonga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy bo'lgan va ularni birlashtiruvchi sema arxisema; semantik maydonning guruhlar (maydonchalari)ga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy bo'lgan va ularni birlashtiruvchi sema integral semadir. Differensial sema semantik maydonga kirgan har bir leksema sememasining o'ziga xos tomonini, xususiyatini belgilaydi. Potensial sema leksema sememasida hamma vaqt fakultativ, yashirin holda bo'lib, ma'lum nutq sharoitidagina namoyon bo'ladi, aks holda e'tiborga olinmaydi. Potensial sema ikkinchi darajali bo'lsa-da, semantik kengaytmada o'z o'rniga ega. Chunki elektron vositalarda ma'lumot hajmiga chegara qo'yilmagan. Ma'lumotlar ombori juda katta hajmga ega: leksemaning barcha sememalarini bemalol aks ettirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси – Т.: Мумтоз сўз, 2010. – 288 б. – 51-б.
2. Ельмслев Л. Прологомены к теории языка. // Новое в лингвистике. Вып. 1. – М.; Радуга, 1960.
3. Mathiot. An approach to the cognitive study of language // International journal of American Linguistics. 1968. Vol. 34. №1.
4. Гак В.Г. К проблемы семантической синтагматики. – С. 73.
5. Гарипов Т.М. О семантической дифференциации коррелирующих слов в близкородственных языках. – С. 379.
6. Ҳожиёв А. Семасиология. – 204-б.
7. Нейматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – 63-б.;
8. Муҳамедова С.Ҳ. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. – 14-б.
9. Расулов Р. Лексико-семантические группы глаголов и их валентности. – С. 16-24
10. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан. 1977. – 78-79-б.
11. Қурбонова Б.Қ. Локаллик ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши. – 9-б.

Dilafuz Raxmatova

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

TIL O'RGANISHNING FOYDASI

Annotatsiya. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkistonda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlarni chuqur anglagan va tahlil etgan jadidlar til o'rganish va o'rgatishni asosiy maqsad qildilar. Bu borada nafaqat

Annotation. In the second half of the 19th century, at the beginning of the 20th century, the Jadids, who deeply understood and analyzed the political changes that took place in Turkestan, made language learning and teaching

Аннотация. Во второй половине XIX века, в начале XX века джаиды, глубоко понимавшие и анализировавшие политические изменения, происходившие в Туркестане, сделали изучение и преподавание языка

o'zlari nashr etgan gazeta va jurnallarda, balki xorijiy nashrlarda doimiy maqolalar berib bordilar. Chor Rossiyasi hukumat vakillariga yuborgan xat, murojaat, turli "Loyiha-Proekt"larida til borasidagi fikrlari hozir ham dolzarb.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadid, "usuli savtiya", jadid maktablari, arabiy, forsiy, sheva va lahja, adabiyot, san'at, ma'rifatparvarlar, davlat mansablari, Vatan, maqola.

their main goal. In this regard, they regularly published articles not only in their own newspapers and magazines, but also in foreign publications. Russia's Empire comments on language in letters, appeals, and various «Projects» sent to government representatives are still relevant today.

Key words: Turkestan, Jadid, «Usuli Sawtiya», Jadid schools, Arabic, Persian, dialect, literature, art, intellectuals, public positions, Homeland, article.

своей главной целью. В связи с этим они регулярно публиковали статьи не только в собственных газетах и журналах, но и в зарубежных изданиях. Письма, обращения и различные «Проекты», направленных представителям царской России власти, актуальны и сегодня.

Ключевые слова: Туркестан, джадиды, «Усули Савтия», джадидские школы, арабский язык, персидский язык, диалект, литература, искусство, интеллигенция, общественные позиции, Родина, статья.

Turkistonda jadidlar harakatining asosiy maqsadlaridan biri xalqni savodli qilishdan iborat edi. Ular maktablar ochib, unda diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlarni o'qitishga e'tibor berdilar. Shuningdek, til o'rganish borasidagi fikrlari hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Oradan qariyb bir asr o'tgan bo'lsa-da, til o'rganish – jahonga chiqishning yaona yo'li ekanligini tushunib turibmiz. Aslida, til o'rganish orqali o'zbek tilini, malaniyatini, san'atini, tarixini jahonga yoyishning yagona yo'li ekanligini jadid bobolarimiz yaxshi tushunishgan.

Bugun ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning tabarruk nomi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning hamisha diqqat-e'tiborida bo'lib kelayotgani g'oyatda quvonarlidir. Behbudi nomi mam-lakatimiz rahbari tomonidan ilk bor 2016- yilning 8- noyabrda Samarqand viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida Samarqand tuprog'ida voyaga yetgan o'nlab ma'rifat fidoyilarining biri sifatida tilga olindi. Ular qoldirgan o'lmas merosi bugungi kunda ham ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim mamba bo'lib xizmat qilayotgani aytib o'tildi.

2019-yilning 23-avgustida maktab ta'limini rivojlantirishga bag'ishlangan yig'ilishda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir", degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to'xtaldi.

2019- yilning 28-avgustida esa O'zbekiston o'qituvchilari va murabbiylariga yo'llagan bayram tabrigida o'zining ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar mehnati, jasorati har qanday yuksak baholarga munosib ekanligini ta'kidlagan holda Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o'rgating", – degan o'gitlarini yodga oldi.

2019- yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida 2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145- yillik tavallud sanasi keng nishonlanishini ma'lum qildi.

2020- yilda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan tabrigida Behbudiyning publisist sifatida milliy jurnalistika maktabi yaratganligi va bu maktabning ahamiyatini tilga olarkan, yoshlarimizni milliy g'oya ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan Mahmudxo'ja Behbudi nomidagi stipendiya ta'sis etishni taklif qildi.

Shavkat Mirziyoev 2020- yilning 30-avgustida "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimda milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muinlarning nomlarini alohida yodga oldi. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganligini yana bir bora ta'kidladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning o'z vaqtida "biz uchun ikki emas, to'rt tilni bilish zarur", deb qilgan da'vati hozir ham g'oyat dolzarb bo'lib turganligiga e'tiborimizni qaratdi hamda milliy ta'lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlanganini mamnuniyat bilan e'lon qilgan edi.

Tarixchi olim Dilorom Alimovanning ta'kidlashicha, til konsepsiyasi Behbudiyning "Bir til emas, to'rt til kerak"¹ – deb nomlangan maqolasida ochib berilgan. Ya'ni unga ko'ra, Chor Rossiyasi imperiyasida yashayotganimiz sababli, ayniqsa, rus tilini bilishimiz zarur. Biz harakatimiz taktikasini ishlab chiqish uchun qanday boshqarilayotganimizni tushunib olishimiz shart. O'z davrida sodir bo'layotgan siyosiy o'zgarishlarni chuqur anglagan va tahlil qilgan Behbudi rus tilini o'rganish orqali mahalliy xalq o'z haq-huquqlarini to'g'ri tuushunib olishlari mumkinligini ta'kidlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudi o'z davri ta'lim tizimida yuz berayotgan inqirozlardan tashvishga tushadi, uning sabablarini va vaziyatdan chiqish yo'llarini til o'rganishda, uning mavqeini tiklashda ko'radi.

Mutafakkirning til haqidagi qarashlari o'nlab asarlar-

ida bayon etilgan. Ammo ikkita maqola – “Ikki emas, to‘rt til lozim”² va “Til masalasi”³ maqolalari bevosita ushbu masalaga bag‘ishlangani uchun tahlilni ana shu maqolalar matniga qaratdik.

2013-yilda yozilib, “Oyina” jurnalida chop etilgan “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi buyuk ma‘rifatparvarning nafaqat tilga bo‘lgan munosabatning, balki dunyoga chiqishning yo‘llari ko‘rsatib berilganligi bilan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan asardir. Ingliz, fransuz, rus, usmonli turk onalarining tili matbuot va maktabdagi adabiy va ilmiy tilning ayni o‘zidir, deb yoziladi maqolada. Ammo ular bir necha yuz yillardan beri tilni o‘qib-o‘rganib kelayotgan onalar tilidir. Bizning mazlum onalarimiz avloddan-avlodga o‘qimasdan kelmoqdalar.

“Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida bu to‘rt tilni bilishning ilmiy ahamiyatini asoslab berilgan bo‘lsa, “Til masalasi” asarida dunyo ilmu fanidan xabardor bo‘lmoq uchun rus, nemis, fransuz, ingliz, ital‘yan, arab, yapon tillaridan birini bilmoq kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Darhaqiqat, dunyo ahli bilan muloqotga kirishishning, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotiga daxldor bo‘lishning, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, adabiyot va san‘at bilan mashg‘ul bo‘lishning eng samarali yo‘li – til bilish ekanligini bugun ham hayotning o‘zi isbotlab turibdi.

Behbudiy maqolada “Biz, turkistoniylarg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur”, deydi va buning sabablarini izohlab beradi. Turkiston xalqining asosiy qismi o‘zbek tilida gaplashganidan, arab va fors tillari ilm va ta‘lim tili bo‘lganligidan shunday qilish zarurligini aytadi.

Maqola muallifining tarixiy manbalarga tayangan holda qayd etishicha, shu uch til Turkistonda qadimdan amalda bo‘lgan. Amirilar va xonlar zamonidan beri farmoyish va muboraknomalar turkiy tilda yozilgan, madrasalarda arab tilida o‘qitilgan, qozixonalar hujjatlari va badiiy adabiyot forsiy tilda bitilgan. Bu holatning davom etib kelayotganligi ta‘lim va nashr ishlarida qiyinchilik paydo qiladi, savod va ilm o‘rganuvchilarning yuzdan to‘qson to‘qqizi bu uch tilni bilmasligidan qiynaladi. Bu muammolardan kelib chiqib, Behbudiy til ta‘limi va o‘qitish metodikasini isloh qilish masalasini keskin qo‘yadi.

Samarqand, Farg‘ona va Buxoro viloyatlarida aholisi forsiy so‘zlaydigan shahar va qishloqlar borligi, fors shoirlari va adiblari lazzati qiyomatgacha ketmaydigan asarlar yozganligi va ularning katta ma‘naviy xazina ekanligi, buni bilishga yevropaliklar milliardlar sarf etishligi uchun ham bu tilni bilmoq lozimligini ta‘kidlaydi. “Bizg‘a saodatdurki, turkiy va forsiyni tahsil bilurimiz. Har turkni forsiy va har forsni turkiy bilmog‘i lozimdur”, deydi Behbudiy.

Behbudiyning qat‘iy ishonchiga ko‘ra, dunyo ilmu ma‘rifatidan, adabiyoti va san‘atidan, masalan, fransuz va rus donishmandlarining asarlaridan bahra olmoqni Kavkaz va Qozon turkiylaridan o‘rganish kerak, ularning asarlarini turkiyga tarjima qilish lozim. Chunki Behbudiy fikricha, “turkiy bilgan kishi zamonni bilur”.

Bizlar ham Rusiya grajdanimiz, – deb yozadi Behbudiy, – ruslar bilan baravar huquqlarga egamiz. Ammo iste‘dodsizligimizdan afsuslanamiz. Turli davlat idoralari murojaat qilishimiz uchun esa rus tilini bilish kerak bo‘ladi. 50 yildan beri Rusiyaga tobemiz. Ammo haligacha ruslar bilan musulmonlar bir-birlarini yaxshi tanishmaydi. Fikrimizcha, ruslar hali beri ketadiganga o‘xshamaydi. “Bizg‘a lozimki, – deydi Behbudiy, – o‘z nafimiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarida o‘quyluk. Davlat mansablarig‘a kirayluk. Vatanimizg‘a va o‘z dinimizg‘a xizmat etayluk. Musulmon bo‘lub turub, taraqqiy qilayluk”.

Yana davom etib yozadiki, “Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatg‘a xizmat ilmsiz bo‘lmaydur. Masalan, bugungi “podsholik duma”g‘a o‘z din va millatimiz nafi g‘a so‘zlamog‘ bizlar uchun mumkin bo‘lur. Ammo anda borib so‘ylaguvchi kishi bizg‘a yo‘q. Anda borib nafi Vatan va millatg‘a so‘ylamoq uchun Rusiya maktablarida bir o‘n sana o‘qumog‘ kerak, zamondan, qonundan xabardor bo‘lmoq kerakdur”.

Behbudiyning bu bildirgan fikrlarining yakuni shunday: “Xulosa, bugun bizlarga to‘rt tilga tahrir va tahrir etguvchilar kerak, ya‘ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy. Arabiy til din uchun na daraja lozim bo‘lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur. Arabiy bilmasak din, ruscha bilmasak dunyo qo‘ldan ketar”.

Shundan so‘ng, mutafakkir fransuz tili to‘g‘risida, dunyoni bilishda bu tilning ahamiyati haqida mulohaza yuritadi. G‘ayridinlarning tili va ilmini o‘rganmoq shariatga zid emasligini aytib, bunga janobi payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning o‘z sahobalaridan Zayd bin Sobitga yahudiy xatini o‘qub-o‘rganishni buyurganini dalil qilib keltiradi.

Bu borada “Behbudiy – o‘zbek tilining jarchisi” maqolasining muallifi, tilshunos olim Suyun Karimov quyidagilarni yozgan edi: “O‘tgan yuz yilga yaqin vaqt orasida biz uchun iste‘molda bo‘lgan tillarga nisbatan munosabat, ularning iste‘mol uchun muhimlik darajasi ma‘lum ma‘noda o‘zgargan bo‘lishi mumkin, albatta. Ammo til falsafasini, mantiqini, uning ijtimoiy ahamiyatini nihoyatda zukko anglagan olim muhim bir g‘oyani ilgari suradi: til bilmoq lozim. Qancha ko‘p til o‘rganilsa, dunyoni anglamoq shuncha oson kechadi”.⁴ Bu fikrning bugungi kun uchun xam nechog‘lik ahamiyatli ekanligini hammamiz yaxshi anglab turibmiz.

Behbudiyning til o‘rganish haqidagi qarashlari ushbu maxsus yozilgan maqolalardan tashqari boshqa asarlarida ham keltirilgan. Masalan, bu fikrlar uning “Padarkush” dramasiidagi ziyoli nutqiga singdirib yuborilgan: -ZIYOLI. Olimi zamoni bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyati diniya va o‘z millatimiz tilini bilaturgondan so‘ngra hukumatimizni(ni) nizomli maktablariga bermoq kerakdur, ya‘ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom

qilg'onlaridan so'ng Peterburg', Maskov dorulfununlariga yuborib, doktorlik, zako'nchilik, injenerlik, sud'yalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qutmoq lozimdir. Rusiya vatanina va davlatina bilfe'l sherik bo'lmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim, toki maishati ehtiyoji zamonamiz to'g'risida vatan va millati islomga xizmat qilinsa va ham davlati Rusiya podshohlik mansablariga kirib, musulmonlarga naf yetkurulsa va ham davlati Rusiyaga sherik bo'lunsa, hattoki shul tariqa o'qugon musulmon bolalarini Farangiston, Amerika va Istanbul dorulfununlariga tarbiya uchun yubormoq kerakdur. Hazrat payg'ambarimiz: "Ilm Chinda ham bo'lsa, talab qilingiz", –demadilarmi? (Boy uyquda) Bul ishlar bo'lmas, magar pul ila, sizdek katta boylarni himmati ila, chunonchi, Kafkaz, Orenburg va Qozon musulmonlarini boy va ahli g'ayrati ilm yo'lig'a ko'p pullar sarf etarlar va kambag'al bolalarini o'qutdirarlar, (boyga qarab) albatta so'zlarimga tushungansiz, janobi boy. Boy bova, hoy!"⁵ Afsuski, boyning e'tiborsizligi va beparvoligi salbiy oqibatlarga olib kelganligini dramaning nomlanishi ko'rsatib turibdi.

"Tanqid – saralamoqdur"⁶ maqolasida til bilmaslikni katta kamchilik deb hisoblaydi. Hatto fikrimiz ifodasining noto'g'riligini, yozganlarimizning xatoligini tanqid

qilishsa, achchig'imiz keladi, u odamni dushman bilamiz, norozi bo'lamiz, deydi alloma. Aslida bu ham til bilishimizdagi kamchiliklar tufaylidir.

Imperator vakili bo'lib kelgan graf Palenga Turkiston xalqining turmush tarzi to'g'risida taqdim etgan "Loyihaproekt"ida ham "zako'n va sudya bizg'a jabr qilmaydur, balki til bilmaganimizdan, zako'n bilmaganimizdan, zamondan xabarsizligimizdan jabr ko'rarmiz", deb yozgan edi.

Taraqqiyparvar insonlar azal-azaldan vatandoshlarini ilm-ma'rifatga chorlab, bu hayot va mamot masalasi ekanligini, ziyoga intilmagan millat oxir-oqibat nest bo'lib ketishini xayqirib aytishayotgan ekan, ular orasida Behbudiyning o'rni yaqqol namoyon bo'ladi.⁷

Behbudiyning buyuk jadidlar safida bundan bir asr oldin milliy taraqqiyotimiz uchun olib borgan kurashlari mustaqillik davri islohotlari bilan hamohangdir. Ularning ulug' niyatlari oradan yuz yillar o'tib amalga oshdi. O'zbek tili davlat tili maqomini oldi. Uni rivojlantirish tadbirlari 2030 yillargacha mo'ljallangan Konsepsiya asosida olib borilmoqda. Allomaning "Bir emas, to'rt til kerak" tamoyili o'laroq mamlakatimizda chet tillarni o'rganish xorijga chiqishning muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda va ularni o'rganish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

1. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/>

2. Бехбудий М. Танланган асарлар. 2-нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.396.

3. Бехбудий М. Танланган асарлар. 2-нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.199.

4. Karimov S. Behbudiy – O'zbek tilining jarchisi // O'zbek tilshunosligi masalalari. – Samarqand, 2002. –37 b.

5. Бехбудий М. Танланган асарлар. 2-нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.95.

6. Бехбудий М. Танланган асарлар. 2-нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.130.

7. Nusrat Raxmat. Jadid. – Toshkent, Noshirlik yog'dusi nashriyoti. 2020. –290 b.

Nasim OCHILOV,

Qarshi davlat universiteti filologiya fanlari doktori

"ZULFIZAR" DOSTONINING VARIANTLARI VA GENEZISI

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Zulfizar" dostonining variantlari, g'oyaviy asoslari, umumo'zbek dostonchiligida tutgan o'rni, syujet, motiv va obrazlari genezisi, kompozitsion izchilligi, poetik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'z: doston, variant, dostonchilik maktabi, syujet, motiv, obraz, genezis, badiiy mahorat.

Annotation: In this article, the variants, ideological foundations, the place in the general Uzbek friendship, the genesis of the plot, motifs and images, compositional consistency, poetic features are analyzed from a scientific and theoretical point of view.

Key words: friend, variant, school of friendship, plot, motif, image, genesis, artistic skill.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются варианты, идейные основы эпоса "Зулфизар", его место в общеузбекском эпосе, генезис сюжета, мотивы и образы, композиционная состоятельность, поэтические особенности.

Ключевые слова: дастан, вариант, эпическая школа, сюжет, мотив, образ, генезис, художественное мастерство

"Go'ro'g'li" turkumining baxshi-shoirlar repertuarida mashhurligi va dostonchilik maktablari doirasida sevib ijro etilishining bir qancha sabablari bor. Birinchidan,

epik qahramon Go'ro'g'li va uning va avlodlari haqidagi epik syujet xalq hayoti, yashash tarzi, orzu umidlari, kurash va intilishlari bilan bog'liq voqelikni umumlash-

ma bayonda ifodalagan. Ikkinchidan, epik qahramon va uning avlodlari xalq ma'naviy hayotida ijodiy ta'sir ko'rsatganligi epik kuychining repertuarida ommalashuvini ta'minlabgina qolmasdan, balki nasliy turkumlik doirasida keng tarqalishiga imkon yaratgan.

Ayniqsa, epik qahramon Avazxon va u bilan bog'liq dostonlarda ham mana shunday xususiyatlar mavjud. Avazxonning Chambilga olib kelinishi, yoshlik shijoati, mardligi, sadoqati, qahramonlik ko'rsatishlari, sarguzashtlari va sevikli yoriga etishuvigacha bo'lgan voqealarni tasvirllovchi dostonlarning ijro etilganligi "Avazxon" nasliy turkumligini yuzaga keltirdi. "Avazxonning olib kelinishi", "Bo'tako'z", "Avazxonning arazi", "Qunduz bilan Yulduz", "Intizor", "Balogardon", "Gulixiromon", "Malika ayyor", "Zulfizar" va boshqa shu kabi namunalarda Avazxon doston syujetida etakchi qahramondir. Dostonlarda Avazxon mard, jasur va sadoqat ramzi sifatida tasvirlanadi. U har doim Go'ro'g'li xizmatiga tayyor turuvchi, Chambil yurtini sevuvchi, insoniylik fazilatlariga ega xalq orzusidagi ideal obraz.

Avazxonning kurashi, intilishi, sevgi-muhabbati, sadoqati, vatanparvarlik va insoniylik tuyg'ulari dostonda ulug'lanadi. Bu yo'lda to'siq bo'lgan kuchlarga qaqshatqich zarba berish orqali epik qahramon kuch-qudrati namoyon etiladi. Baxshi-shoirlarning Avazxonga bo'lgan sadoqati uning o'g'li Nuraliga bag'ishlangan dostonlarning ham ijro etilishi va "Nurali" turkumligi doirasida ommalashuvini ta'minlash bilan bir qatorda ma'lum dostonchilik markazlari doirasida keng planga chiqarganligi ham shu bilan izohlanadi. Ushbu dostonlarning har biri ma'lum g'oyaviy maqsad asosida ijro etilgan bo'lsa-da, ular orasida "Zulfizar bilan Avazxon" ko'p variantlilik, g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksakligi bilan ajralib turadi.

Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan ijro etilgan "Zulfizar bilan Avazxon" dostoni 1927- yil fidoyi folklor to'plovchisi Mahmud Zarifiy tomonidan yozib olingan. Uni ilk bor folklorshunos olim Buyuk Karimiy 1942- yil muayyam qisqartirishlar bilan nashrga tayyorlagan[1]. Olim dostonni nashrga tayyorlash jarayonida ba'zi epizodlarni qisqartirgan bo'lsa-da, bunday holatlar doston voqealari mazmuniga ta'sir qilmaganligini ta'kidlagan. Xususan, doston So'z boshida *"Biz bu dostonni nashrga tayyorlashda dostonning syujet sxemasidan uzilib qolgan va zarari tegmaydigan diniy parchalarni qisqartirdik"* [2,3], – deya izoh berilgan.

Fozil shoir varianti boshqa variantlardan farqli tomonlarga ega bo'lib, u "Go'ro'g'li" turkumiga oid ishqiyy-romanik dostonlar syujetida an'anaviy tarzda takrorlanuvchi voqealarni sxemali asosda ifodalashi, qahramonlarning jonli xatti-harakati, xalqchilligi, epik qolip va poetik formulalar mahorat bilan tasvirlanganligi jihatidan badiiy mukammallikka ega. Doston syujetida asosan Avazxonning Zulfizar xabarini eshitib oshiq bo'lishi, sa-

farga o'tlanishi, yo'lda uchragan to'siq va qiyinchiliklarni engib o'tishi, uddaburonlik bilan Zulfizarni qo'lga kiritishi, qaytishda dushman qo'shini bilan jang qilishi, yaralanishi, Zulfizarning Hasanxon ko'rinishida jangga kirib sadoqat ko'rsatishi va Go'ro'g'lining Avazxonni izlab topishi, Chambilga qaytib, to'yu-tomoshalar bilan yakun topadi. Ushbu variant bu jihatdan voqealarni izchil tasvirlashi, har bir motiv, obraz va tasvir vositalari mahoratli ijro etganligi bilan o'ziga xoslikka ega.

"Zulfizar bilan Avazxon" dostonining Islom shoir Nazar o'g'li varianti. Bu variant Islom shoirga kotib Markil Gavrilov tomonidan 1940- yilda yozib olingan va folklorshunos O.Sobirov tomonidan nashrga tayyorlangan.

Dostonning boshqa variantlardan bir qator farqli tomonlari mavjud. Fozil shoir variantida Zulfizar voqeasi, u haqdagi xabar Go'ro'g'liga Zebitqul tomonidan bildiriladi. Islom shoirda Zulfizarning o'zi Avazxon ta'rifini eshitib Chambil yurtiga keladi. Mana shu tasvir doston syujetida Avazxon safari orqali yakuniga etadi. Boshlanmada Zulfizar Avazxon ta'rifini Gulruxsordan eshitib, Chambil yurtiga Mirzaxon ko'rinishida keladi. Go'ro'g'lining ishonchiga kirishi, Zulfizarning Avazxonga xat berib, Chambildan chiqib qochishi, xatda Zulfizar Avazxonga ushlab olsa yori bo'lishini yozgani dostonda safar motivini yuzaga chiqaradi.

Zulfizar der: o'zim oyday to'laman.
 Sinamoq shartida Chambil kelaman.
 Tutib olsang men seniki bo'laman,
 Ushlab ol-da, meni yor qil Avazxon.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Islom shoir variantida voqealar kutilmagan, tasodifiy tarzda yuzaga keldi. Avazxon Go'ro'g'lining topshirig'i bilan emas, balki Zulfizar izidan borib safarga chiqadi. Voqealar rivoji ham bevosita qahramonni shunga tayyorlaydi.

Rahmatulla Yusuf o'g'li varianti. Ushbu variant baxshining o'z qo'lyozmasi asosida 1966- yilda topshirilgan. Doston dastlab T.Mirzaev, Z.Husainova tomonidan 2006- yilda nashr qilingan. Doston boshqa variantlardan farqlanadi.

Epik boshlanma Hashtarxon podshoning Olmagul ismli qizi bo'lib, *"zulfi tilla rangida toblab, zarrin bo'lib turgani uchun hamma uni Zulfizar deb atardi"* kabi Zulfizar ismiga izoh berishdan iborat. Syujetning farqli tomonlaridan biri tugun dastlab shart qo'yish motivi bilan asoslangan. Hashtarxon podshosi qizi Zulfizarni turmushga berish maqsadida shart qo'yadi. Shart qoidasiga ko'ra, kimda kim Zulfizarga tikilib qaray olsa unga qizini berishini aytadi. Zulfizarga barcha kishilar oshiq, jumladan, Chamidxon ham. Ammo shartni bajarish mushkul. Chamidxon o'z niyatiga erisha olmasligi-

ini his qilgach, Chambilga borib Go'ro'g'liga aytishni, Zulfizarni olib kelayotgan Avazxonni turli xil qiyofalarga kirib, halok etishini o'ylaydi. Safarga otlangan Avazxonga Go'ro'g'li tomonidan berilayotgan nasihat epizodi ham boshqa variantlardan farqlanadi. Go'ro'g'li Avazxonga o'zga yurt safarida yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarni bashorat qiladi.

Chamidxon rom orqali Avazxonni kelganidan xabar topib, Zangi zargar qiyofasiga kiradi. An'anaviy Guloyim obrazi o'rnida real qiz obrazidan foydalaniladi. Go'ro'g'li bashoratiga quloq tutgan Avazxon Chamidxon hiylasini anglaydi. Avazxon haybatidan qo'rqqan Zangi zargar qiyofasidagi Chamidxon qarg'a bo'lib uchib ketadi. Qiz esa o'z holiga qaytadi. Syujet chizig'ida Avazxonning qiz ko'rsatmasi asosida o'g'rilar joyiga borishi, u yerda tutqun bo'lgan ayollar, savdogarlarning qutqarishi, murod-maqsadiga etishuvi tasvirlari mavjud. Avazxonning to'rt yuz ozod bo'lgan kishilar bilan Zulfizarni izlashda davom etishi, o'zini Sayfullo pir ko'rinishida tanishtirib Zulfizar qarorgohiga borishi tasvirlari modernizatsiya qilingan.

Qissaxon-baxshi Rahmatullo Yusuf o'g'lining an'anaviy dostonchilik yo'lida yozilgan ushbu dostonida bir qator epizodlar, obrazlar yangicha talqin qilinganligi, an'anaviy badiiy shartlilik qoliplarining asoslanmagani, qahramon Zulfizarga osonlikcha erishish tasvirlarida ushbu holatlar ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Zulfizarning saylbog' tasviri, unda Sayfullo pir kelganligini eshitgan Zulfizarning otasi osonlikcha Avazxonga rozilik berishi tasvirlarida ishqiy-qahramonlik detallariga nisbatan maishiy turmush bilan bog'liq tasvirlar yetakchilik qiladi. Avazxon bilan Zulfizarning Chambil yurtiga qaytish epizodlarida Chamidxonning burgut qiyofasiga kirib hujum qilishi va Avazxondan engilish tasvirlari umumiy bir ko'rinishda keltiriladi. Doston so'nggida baxshi izohi mavjud.

Umuman, "Zulfizar bilan Avazxon" dostoni poetik jihatdan "Go'ro'g'li" turkumligi namunalari kabi o'ziga xos syujet va kompozitsiyasi, obrazlar tarkibi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra ham alohidalikka ega. Bu esa doston voqealarining mustaqilligini ta'minlagan.

Ma'lumki, romanik dostonlarda qizlarning saylbog' tasviri yetakchilik qiladi. Qahramon oshiq bo'lgan sevgilini bevosita ushbu vaziyatda uchratadi, unga

mahliyo bo'ladi. Dostondagi kulminatsion vaziyat ham shu nuqtadan boshlanadi. Fozil shoir an'anaviy ijro usullaridan kelib chiqqan holda ushbu manzarani tasvirlar ekan, Zulfizarning qizlari bilan saylbog' chiqish manzarasi, Oqqiz, kanizlari ta'rifini keltirish orqali lirik ifodani yanada kuchaytiradi.

...Quralayday jodu ko'zi,
Zulfizarning ko'p kanizi,
Behishtdagi hurday bo'lib,
Chamandagi gulday bo'lib,
...Jamollari oyday bo'lib,
O'taverdi sanam qizlar.

Baxshi mahorati shundaki, Zulfizar kanizlari portret-tasvirini chizish orqali ularning chiroyi go'zal tasvirlarda ifodalanmoqda. Qizlarning saylbog' tasviridagi manzarada kiyinishi, yurishi, ayniqsa, ko'zining quralayga, kanizlarning behishtdagi hurga, gulga, tishini durga, saf-saf bo'lib o'yin qilishini chamandagi bulbulga, chiroyini oyga o'xshatilishining o'ziyoq Zulfizar obraziga yonma-yon tasvirlanadi. Baxshi qizlarning go'zalliklarini kuchaytirish maqsadida Zulfizar portret-tasviriga mahorat bilan yondashadi:

Oy tuqqanday bo'lib oyim keladi,
Uchma qushlar bari mast bo'p qoladi.
Oh urganda xasta ko'zin yoshladi,
Zulfizarning jamoliga mast bo'lib,
Uchgan qushlar bari yerga tashladi.

Avazxonning unga oshiq bo'lishi ham shunday dalolat beradi. Dostonda kompozitsion vositalar bilan bir qatorda epik qahramonlar, homiylar, epizodik obrazlarning kiritilishi ma'lum g'oyaviy maqsadni amalga oshirishda muhim o'ringa ega.

Umuman olganda, "Zulfizar bilan Avazxon"ning barcha variantlari o'ziga xos g'oyaviy asosga egaligi, syujeti, kompozitsiyasi, obrazlari, tasvir vositalaridagi mukammalligi, har bir variantda ijodkor mahorati, iste'dodining qirralari namoyon bo'lgan. Sevgi-muhabbat, ishq yo'lida qahramonlik ko'rsatish, vatanparvarlik tuyg'ulari yuksak darajada ijro etilgan doston namunasi sifatida avlodlarga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfizar bilan Avazxon. Doston. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi M. Zarifov. Nashrga tayyorlovchi B. Karimiy. –Toshkent.: O'zFan, 1942.
2. Karimiy Buyuk. Doston haqida qisqacha izoh // Zulfizar bilan Avazxon. Doston. –Toshkent.: O'zFan, 1942. 3-bet.
3. Mirzaev T. "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari. –Toshkent.: Fan, 1968. 28-bet.
4. Jirmunskiy V.M, Zarifov X. Узбекский народный героический эпос. –М., 1947. стр.13.
5. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. –Toshkent.: Fan, 2011. 37-bet.
6. Mirzaeva B. O'zbek folklorshunosligining shakllanishi va taraqqiyotida Hodi Zarifovning o'rni. Fil.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser. –Toshkent, 2022. 73-bet.

Shohsanam BOBOJONOVA,
Qarshi davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti

“AXLOQ” KATEGORIYASINING MILLIY TIL XARAKTERIDA AKS ETISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirda tilshunoslik fani ilmiy bilish bosqichiga ko'tarilgani bois uning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda yangi yo'nalishlari namoyon bo'lishi, o'zbek tiliga oid “axloq” kategoriyasining milliy til xarakterida aks etishi yoritib berilgan. Millatning xarakterini uning axloqi, urf-odat, xatti-harakati, tilidan osonlik bilan o'rganilishi mumkin ekanligi hamda “axloq” kategoriyasining tilda aks etishi batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: axloq, ma'naviyat, kategoriya, urf-odat, xarakter, lison, til, madaniyat.

Annotation. In this article, due to the fact that the science of linguistics has risen to the stage of scientific knowledge, new trends in its interaction with other sciences are manifested, and the reflection of the category of “ethics” related to the Uzbek language in the character of the national language is explained. It is explained in detail that the character of the nation can be easily learned from its morals, customs, behavior, language, and the reflection of the category of “morality” in the language.

Key words: morality, spirituality, category, tradition, character, language, language, culture.

Аннотация. В данной статье в связи с тем, что наука о языкознании поднялась до стадии научного познания, проявляются новые тенденции ее взаимодействия с другими науками, а также отражение категории «мораль», относящейся к узбекскому языку, в объясняется характер национального языка. Подробно объясняется, что характер нации легко узнать по ее нравам, обычаям, поведению, языку, по отражению категории «мораль» в языке.

Ключевые слова: нравственность, духовность, категория, традиция, характер, язык, язык, культура.

“Ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasining markaziy tushunchalaridan birini “axloq” ma'naviy guruhi tashkil etadi. “Axloq” ma'naviy guruhi o'zbek tilshunosligida lingvistik nuqtayi nazaridan tadqiq etilmaganligi sababli uning kategorial xususiyatlarini alohida tadqiq etish zarurati bor. Olamning o'zbek lisoniy ongida “axloq” kategoriyasi turli ko'rinishda shakllangan. Ushbu shakllarning o'xshash va farqli tomonlari lingvistik tomondan alohida tahlil va tadqiqni talab qiladi. “Axloq” kategoriyasini leksik-semantik kategoriya sifatida sistem-struktur, leksikografik va lingvoma'naviy xususiyatlarini o'rganishga harakat qildik.

Millatning xarakterini uning axloqi, urf-odati, xatti-harakati, tilidan osonlik bilan bilish mumkin. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy bejiz – milliy tilni yoqotmak millatning ruhini yoqotmakdur demagan. [1] Shu sababdan milliy tilimizga oqilona yondashish, uning barcha imkoniyatlarini ishga solishdan iborat.

Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g'oyani himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. O'zbek milliy ijtimoiy tafakkuri uchun “Axloq” kategoriyasi yangi tushuncha emas, ammo uning o'zbek lisoniy ongida lingvoma'naviy shakli yangilik bo'yog'iga ega. Axloq va unga qarashli tushunchalarda (aynan axloqda) salbiy baho aks etishi mavjud emas, shuning uchun insonlar ongida milliy qadriyat va tushuncha sifatida doimiy yashab kelmoqda. Zero, mustaqillikni mustahkamlash va yurt tinchligini saqlash, oila mustahkamligini taminlash va taraqqiy ettirish umummilliy ehtiyoj, shunga ko'ra, axloqqa xos atov birliklari tushunchasining obyektiv tusga kirgan ijtimoiy hamda lisoniy qiymati oshib bormoqda.

Bu esa jahon axloqshunosligida ham insonning ma'naviy dunyosi hamda xulq-atvorini belgilovchi sabab va shart-sharoitlarning xilma-xilligi axloqiy ehtiyojlarni turlicha tavsiflashga asos qilib olinmoqda. Jamiyatdagi

axloqiy meyor va asoslarni tan olmaydigan “ommaviy madaniyat” vakillari inson axloqiyligi, uning axloqiy manfaat va ehtiyojlarga moyilligini nazar-pisand qilmay qo'yishi bu kabi salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Insoniyatning oila va jamiyat bo'lib hayot kechirishining asosiy sabablaridan biri ularning o'zaro axloqiy munosabatda bo'lishlari bilan belgilanadi. Axloqiy madaniyat hamda munosabat insoniy yashashning poydevori, mohiyati va ko'zga ko'rinmas zanjir ini tashkil etadi.

Bu voqea o'zbek tiliga milliy yondashish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya milliy g'oyamizni himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratiladigan bo'ldi. “Ma'naviyat” kategoriyasining birinchi guruhini “e'tiqod” va “axloq” umumiy semali birliklarni kiritish mumkin. Bu guruh ifoda birliklari inson xulq-atvori va axloqiga, tarbiya va tarbiyalash jarayoniga bog'liq tushunchalarni o'z ichiga oladi. Shu sababdan tadqiqotimiz markazida “Ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “Axloq” umumiy semali atov birliklari va ularning leksik-semantik, genetik, struktur, leksikografik xususiyatlarini yoritish turadi.

Dunyo tilshunosligida tilga yangicha yondashuv til tizimidagi eng asosiy bo'limi hisoblangan leksikologiya bo'limidan boshlangan. Albatta, tildagi leksik o'zgarish dastlab leksikologiya va leksikografiya bo'limlarida aks etishi soha mutaxassislar uchun sir emas. O'zbek tilshunosligida I.Abdurahmonov, Sh.Rahmatullayev, R.Yunusov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar e'tiborga molik. Olimlarning ishlarida leksikologiyani mohiyatini ochib beradigan leksemalarning lisoniy mohiyati sifatida semema va uning voqelaniishi sifatida nutqiy ma'no ajratilgan. Shuningdek, lisoniy birlik sifatidagi leksemaning ma'naviy tomoni – seme-maning tashkil etuvchilari bo'lmish semalarning tabiati, turlari, o'z butunligi tarkibida tutgan o'rni masalalari ilk

asoslarda bayon etilgan. Bu esa leksikani tom ma'noda nazariy o'rganish uchun zamin yaratdi.

O'zbek tilshunosligida lug'aviy tizim ichki bo'linishlarining turlicha nomlari tilda mavjud. Mazmuniy maydon (Sh.Iskandarova), mavzuviy to'da (H.Ne'matov, R.Rasulov), tematik guruh, lug'aviy-ma'naviy guruh, leksik-semantik grupp kabi atamalar shular jumlasidan. Xususan, H.Ne'matov va R.Rasulovning quyidagi qarashlari e'tiborga molik: *"Har bir leksema muayyan birlashtiruvchi sema asosida boshqa leksemalar bilan o'zaro birlashgan, birikkan guruhni ham tashkil etadi"*.

[2] Maydon nazariyasi bo'yicha jahon tilshunosligida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Maydon tushunchasi aslida fizika sohasida paydo bo'lgan bo'lib, "fizik hodisa voqelanadigan yoki uning ta'siri paydo bo'ladigan fazo"

[3] sifatida izohlanadi. A.Ufimseva semantik maydon nazariyasi va uning lug'at tarkibini tahlil qilishdagi imkoniyatlarini yoritdi. [4] Xususan, o'zbek tilshunosligida ham leksik yoki sintaktik birliklar majmuasiga maydon sifatida qaralgan tadqiqotlar mavjud. [5] A.Kuznetsov ta'kidlaganidek, tadqiqotchilar ko'p hollarda leksik maydonni leksik-semantik guruhga, leksik paradigma ma'nodosh tushunchalar sifatida qaraydilar. [6] Bu borada T.Mirzaqulovning *"Maydon nuqtayi nazaridan yondashilganda u tilning bir necha sath hodisalarini tutashtirib, sathlararo farqqa chek qo'yadi, paradigma esa bir sath doirasida bo'lib, sathlararo chegarani saqlaydi"* degan fikri e'tiborlidir. [7] Biroq hozirga qadar tilshunosligimizda lingvistik nuqtayi nazaridan "Axloq" kategoriyasi alohida leksik-semantik kategoriya sifatida tadqiq qilinmaganligini ta'kidlash joiz. Tahlilga tortilayotgan "Axloq" kategoriyasi ham til tizimida mustaqil leksik-semantik kategoriya hosil qila oladigan birlikdir.

Shu bois axloq kategoriyasining ijobiylik kategoriyalari milliy ma'naviyatimizga oid tushunchalar tashkil etuvchisi ekanligiga e'tibor qaratiladi. Xususan, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda shunday tushunchalarning hayotiy voqeligi oshib borayotganligi davr taqazosi hisoblanadi. Xususan, "axloq" kategoriyasining semantik markazida *halollik, vijdon, rostgo'ylik odobi, isrof, uvol, burch, or-nomus, vatanparvarlik hissi, mehnatsevarlik* kabi birliklar tashkil etib uning semantik doirasini kengaytiradi.

Hozirgi kunda tilshunoslik fani ilmiy bilish bosqichiga ko'tarilgan munosabati bilan uning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikdagi yangi-yangi yo'nalishlari namoyon bo'lmoqda. Xususan, falsafa bilan bog'liq holda o'rganilganda uning imkoniyatlar doirasini kengaytiradi.

"Ma'naviyat" sistemasining mohiyati uning tarkibiy qismlarini aniqlash hamda ularning sistemaviy munosa-

batlarini oydinlashtirish yo'li bilan ochiladi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"dagi tavsif asosida "ma'naviyat" sistemasini tashkil etuvchi unsurlar sifatida "axloq" kategoriyasi alohida birlik sifatida qaraladi. [8]

"Aslini olganda, axloq – ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalik-dangina iborat emas, axloq – bu, avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imom, halollik degani". [9] Chunki axloq ham "o'ta o'zgarmas" hodisa emas. U davr nuqtayi nazaridan o'zgaradi, takomillashadi hamda moslashadi. Bunga ma'lum davr va jarayon sabab bo'ladi. Shu asosida ijobiylik va salbiylik(axloq hamda axloqsizlik) shaklda bo'lishi tabiiy. Falsafa va qomusiy lug'atlarda axloqning turli kategoriyalari mavjud. Ko'rinadiki, lingvoma'naviyatshunoslik axloq (etika), psixologiya, lingvokulturologiya, etnografiya, sotsiolingvistika kabi qator fanlar bilan umumiy o'rganish obyektiga ega bo'lsa-da, uning o'ziga xos predmeti yaqqol ajralib turadi. Insonlarning nutqiy munosabatlarida axloq, odob, xulq, farosat, tarbiya, muomala leksemalarini bir xil ma'no atrofida qo'llashadilar. Biroq ushbu leksemlar umumiy grammatik ma'nosiga ko'ra yaqin tursa-da, umumiy semantik ma'nosiga ko'ra farqlanadi. Xususan, axloq kategoriyasi *odob, xulq, farosat, tarbiya, muomala* uchun umumiy tushuncha. Qolgan leksemalar ular uchun qism munosabat hisoblanadi.

Axloq				
Odob	Xulq	Farosat	Tarbiya	Muomala

Axloqiy sifatlarning kishilar ma'naviy salohiyatida joriylanishi aloqiy poklikning tarkibiy elementlaridan biri bo'lgan "sodiqlik" semasiga bo'g'liq. Sodiqlik – shaxs amal qiladigan axloqiy prinsiplarning, turli kishilar va voqealarga munosabatning barqarorligini anglatadi. Bunday xususiyat yuksak darajada rivojlangan shaxslar har qanday holatda ham o'z qarashlarini, o'zgartirmaydilar, suhbatdoshlaridan voz kechmaydilar, ikkiyuzlamachilik va sotqinlik holatlarida bo'lmaydilar. Shu boisdan sodiqlik shaxsda axloqiy prinsiplarining rivojlanganligi, mustahkamligi darajasini ham ko'rsatadi. Bu xususiyati bilan "axloq" va "e'tiqod" konsepti uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Har qanday axloqiy tushunchalarda e'tiqod bo'lmasa, shaxs axloqiy sifatlari taraqqiy topmaydi.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "ma'naviyat" sistemasining mohiyati uning tarkibiy qismlarining o'zaro uzviylikda yashashi va munosabatini tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, -B. 1998.60.
2. Ne'matov H. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T., "O'qituvchi".1995.-B. 60-61
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. T. I. – M.: Русский язык, 1981. – B.442.
- 4.Уфимцева А. А. Теории «семантического поля» и возможности их применения при изучении словарного состава языка / Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике. – М.: Наука, 1961. – С.30-64.
5. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 1999;
6. Abduvaliyev M. To'siqsizlik maydoni va uni tashkil etuvchi sintaktik birliklar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1988. – № 4. – B. 62–66;
7. Mengliyev B. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. –Toshkent, 2002. – B.47.
8. Кузнецов А. М. Поле // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 380-381.
9. Mirzaqulov T. O'zbek tili morfem paradigmikasi va sintagmatikasi masalalari: Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – B. 18-19.

Xamza XAITOV,
 BuxDPI dotsenti. F.f.f.d./PhD
 Gulmira AZIMOVA,
 BuxDPI magistranti

O'ZBEK NASRIDA "AFANDI" OBRAZINING BADIY TALQINLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq poetik ijodidagi murakkab, ko'p qirrali obraz Xo'ja Nasriddin Afandi tipining badiiy asarlardagi turlicha qiyofasi aniq misollar asosida ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Koniya, Turkiya, Mushfiqiy, Aldar Ko'sa, Mushfiq, Mirali, Birbol, Umrbek, soddadil, kulgi, xiyonat, jasur, xalq manfaati himoyachisi, qozoq, qirg'iz, turkman, amaldor, qozi, falsafa va hokazo.

Nasriddin Afandi – o'zbek xalq og'zaki poetik ijodida-gi murakkab, ko'pqirrali obraz. Folklorshunosligimizda Farida Yo'ldosheya o'zbek latifalaridagi Nasriddin Afandi obrazini tipiklashtirish, uni ijtimoiy-siyosiy latifalarda gavdalanitirish bilan bog'liq masalalarni maxsus o'rgangan.[1.103.]. Nasriddin Afandi siymosini adabiyotshunos S.Maxdiyev Buxoro latifachiligi bilan bog'liqlikda talqin qilgan.[2.158.].

"Afandi" obrazi o'zbek xalqining sevimli qahramonidir. Lekin Nasriddin Afandini birgina o'zbeklar emas, balki O'rta Osiyo, butun Sharq mamlakatlari, turkiy xalqlar yaxshi bilishadi va u haqda yozishadi. Hatto Turkiyaning Koniya shahrida har yili 5-iyuldan 10-iyulgacha Nasriddin Afandiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkarilishi an'ana tusini olgan.1959-yildan beri 4-iyul kuni ramziy ma'noda o'rnatilgan Nasriddin Afandi maqbarasida marosim shodiyonalari boshladi.

Ta'kidlash joizki, Nasriddin Afandi obrazi turli xalqlar orasida har xil nomlar bilan ataladi. Hindlarda – Birbol, arablarda – Jo'ha, qozoqlarda – Aldar ko'sa, tojiklarda – Mushfiqiy, turkmanlarda – Mirali, qoraqalpoqlarda – Umrbek, Tatarlarda – Ahmadakay nomlari bilan latifa qahramonlari shuhrat topgan. Xalqimiz orasida ushbu obraz Xo'ja Nasriddin, Nasriddin Afandi, Mulla Nasriddin, Mulla Nasriddin afandi, Afandi, Apandi nomlari bilan mashhur. Umuman, Afandi nomi bilan bog'liq kulgu falsafiy va ma'naviy- axloqiy mohiyati, beg'arazligi bilan e'tiborga tushgan.

Ko'pchilik xalq og'zaki ijodida o'z o'rniga ega bo'lgan komik obraz – Nasriddin Afandining prototipi borligiga, u tarixiy shaxs bo'lganligiga ishonch bilan qaraydi. Shuning uchun xitoyliklar o'z yurtida uning uy muzeyini tashkil qilgan bo'lsa, turklar va buxoroliklar uning qabrini o'z yurtlarida, deya dalillashga urinadilar.1937-yilda qrim-tatar latifalari tadqiqodchisi S.Kotsiyubinskiy bu haqda to'xtalar ekan, Sharqda o'n besh shaharda Nasriddin Xo'janing qabrini ko'rsatadilar, – deb yozadi.

Buxorolik shoir Sadridin Salim Buxoriy bandaning aybu qusurini ro'yi rost aytib, qusurlardan xoli etishni ko'zlashi jihatdan Nasriddin Afandi islom tariqatidagi malomatiya yo'lini yodga solishini ta'kidlaydi.

"Nasriddinning afandinamo qillig'i", gap so'zlari latifa emas, aslida ulug' hikmatdir", – deydi shoir.[3.86]. Yana u Afandining jasur, xalq manfaatining himoyachisi, ba'zan esa g'irrom, aldov, xiyonatning dushmani, soddadil kishi qiyofasida o'z-o'zi va o'zgalarni fosh etishi vositasida insonlarni insofu diyonatga chorlashi, ba'zan qozi, amaldor bo'lib, o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yishini aytib o'tadi.

Sadridin Salim Buxoriy Nasriddin Afandi nomiga ba'zan qo'shib aytiladigan "Xoja" taxallusini izohlar ekan, uning sardor, sarvar, sohib, xo'jayin ma'nosi-ni bildirishini, chahoryorlar – Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon, Ali roziollohu anhular avlodini ham "Xoja" deyishganini, buning qadimdan rasm bo'lganini, Xoja Nasriddin deganda, uning tariqat borasidagi yo'liga ishora qilinganini ta'kidlaydi.

Nasriddin Afandi haqidagi dastlabki hikoyalar 1480-yili Abul Xayr Rumiyning "Saltuqnoma" kitobidan o'rin olganligi aytiladi. "Hikoyati kitobi Nasriddin" asari 1571-yilda yozilgan. Nasriddin Afandi latifalari dastlab 1837-yilda nashr qilingan. Ilk rasmiy kitoblari esa 1869-yildan bosmadan chiqarila boshlagan. Hozirda dunyoning turli mamlakatlaridagi kutubxonalarda Nasriddin Afandining 68dan ziyod hajviya kitoblari mavjudligi aytiladi.

Xalqimiz orasida Nasriddin Afandi nomi bilan bog'liq faqat latifalar emas, balki ko'plab afsona, rivoyat va ertaklar yaratilgan. Shu bilan birga, Afandi obrazi yozuvchi, san'atkorlar ijodida ham munosib o'rin tutgan. O'zbek tilida O.Qo'chqorovning "Afandi uylanarmish yoxud shifobaxsh kulgilar", Y.Jo'rayevning "Afandining ahdi", A.Zohirning "Afandining qirq bir pashshasi" kabi qissasi, "Afandining yigirma to'rt qiyofasi", "Afandi latifalari" to'plamlari, rus tilida T.Zulfiqorovning "Xoja Nasriddinning birinchi muhabbati", "Xoja Nasriddinning qaytishi", I.Kolsovaning "Nasriddin izidan", L.Salovyovning "Xoja Nasriddin haqida qissa" asarlari va "Nasriddinning yoshligi" dramasi, "Nasriddin Xo'jandda", "Nasriddin Buxoroda", "Xoja Nasriddin sarguzashtlari", "Xoja Nasriddinning o'n ikki qabri", "Afandining besh xotini" kabi o'nga yaqin badiiy film va multfilmlar mavjud.

Ko'rinadiki, Nasriddin Afandi obrazi nafaqat o'zbek xalqi og'zaki ijodi, balki yozma adabiyot hamda kino san'atida, publisistikada keng qo'llaniladi. Qariyb 800 yil – 8 asrdan buyon Sharq xalqlari latifalarining o'lmas siymosiga aylangan Nasriddin Afandi obrazi dunyo askiya san'atida ham juda mashhur. Nasriddin Afandi obrazi asosida yaratilgan hozirgi hajviy-yumoristik asarlarda yangi o'zbek obrazi xalq latifalariga aloqador an'anaviy qiyofa – Nasriddin Afandi obrazi bilan teng bosh qahramon sifatida ko'zga tashlanadi.

Shuning uchun hozirgi adabiyotda qo'llanayotgan afandino obrazlarning tarkibini an'anaviy latifalarning bosh qahramoni – Nasriddin Afandi bilan qiyoslab o'rganishga to'g'ri keladi. Shu bilan birga zamonaviy Afandi bilan bog'liq motivlar, mavzular mundarijasini, u ishtirok etgan asarlarning badiiy-kompazitsiyon va til xususiyatlarini, g'oyaviy - siyosiy ruhini yanada chuqurroq

tadqiq etish poetik tafakkur tadrijini o'rganish nihoyatda zarurdir. Xalq og'zaki ijodida birgina Afandi obrazi ana shunday serqirra obraz sifatida ko'zga tashlanadi. Shu sababli latifalarda Afandining barcha hatti-harakati hech kimni shubhaga solmaydi, hatto u Azroyil, Shayton kabi diniy-afsonaviy personajlar bilan bir makon va zamon-da faoliyat yuritisa ham, barcha unga bir xilda ishonadi.

Xulosa qilib aytganda, Xoja Nasriddin Afandi xalq xohish-istak, orzu-umid, porloq kelajakka ishonch-e'tiqodini aks ettirgan umumlashma, badiiy to'qima obrazdir. Uning qiyofasida ifodalangan donolik, tadbirkorlik, so'zga chechanlik kabi xususiyatlar ijtimoiy-maishiy ma'no kasb etgan hayotiy hodisalar bilan to'qnashuv zamirida paydo bo'ladi va xalq manfaatini himoya qiladi. Afandi obrazi badiiy adabiyot, shu bilan birga san'atning barcha turlari taraqqiyot tamoyillarida muhim estetik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yo'ldosheva F. O'zbek latifalarida Nasriddin Afandi obrazi. -T. Fan. 1979. 103-b.
2. Mahdiev S. Problemai janri latifa. Dushanbe. Donish 1972. 158-b.
3. Sadridin Salim Buxoriy. Biz bilmagan Nasriddin. Tafakkur-1996. 12-son, 86-b.

Mohira SADULLAYEVA,

Qoraqalpog' davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi

LUQMON BO'RIXONNING "QUYOSH HALI BOTMAGAN" QISSASIDA BADIY MAHORATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi adabiy jarayon, adabiyotning barcha tur va janrlarida g'oyaviy-badiiy mundarija, inson va voqelikni anglash hamda badiiy kashf etish, ijodkor uslubi va badiiy mahorati, qissa janrining zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Mavzu yozuvchi Luqmon Bo'rixon ijodi va uning "Quyosh hali botmagan" qissasi misolida ochib berildi. Yozuvchi badiiy mahoratini aniqlashda qissada qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari va ularni ifodalashda obraz kayfiyati, ruhiy olami bilan uyg'unlikda ko'rsatishi, badiiy detallar va uning asar mazmunini ochishdagi ahamiyati kabi masalalar tahlil qilingan va umumiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: ijodkor mahorati, badiiy mahorat, uslub va o'ziga xoslik, mazmun, shakl, qissa, qissachilik, o'tkir sujet, ruhiyat tasviri, portret, peyzaj, tur va janr, nasr, voqelik, tashbeh

Annotation: In this article, issues such as today's literary process, ideological and artistic content in all types and genres of literature, understanding of man and reality and artistic discovery, creator's style and artistic skills, the development of prose and related short stories in modern Uzbek literature, especially Luqman Bori Khan's work and his short story «Quyosh hali botmagan» were revealed. In order to determine the artistic skills of the writer, issues such as the means of artistic representation used in the story and their expression in harmony with the character's mood and spiritual world, artistic details and their importance in revealing the content of the work were analyzed and general conclusions were given.

Key words: creative skill, artistic skill, style and originality, content, form, story, short story, acute subject, mental image, portrait, landscape, type and genre, prose, reality, allegory.

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как современный литературный процесс, идейно-художественное содержание во всех видах и жанрах литературы, понимание человека и действительности и художественных открытий, стиль и художественное мастерство творца, развитие прозы и связанных с ней новелл в современной Раскрыта узбекская литература, особенно творчество Лукмана Борихана и его рассказ «Куёш ҳали ботмаган». С целью определения художественного мастерства писателя были проанализированы такие вопросы, как используемые в повести средства художественного изображения и их выражение в гармонии с настроением и духовным миром героя, художественные детали и их значение в раскрытии содержания произведения. Даны общие выводы.

Ключевые слова: творческое мастерство, художественное мастерство, стиль и оригинальность, содержание, форма, рассказ, новелла, острая тема, мысленный образ, портрет, пейзаж, вид и жанр, проза, реальность, аллегория.

Milliy ma'naviyatni yuksaltirish, inson ruhiyatini anglash va komil shaxsni tarbiyalashda olim, yozuvchi va shoirlarning o'rni nihoyatda kattadir. Zero, mam-lakatimiz Prezidenti ta'kidlaganlaridek, *"Men shoir va adiblar, rassomlar, kompozitorlar, ommaviy axborot vo-sitalarining vakillari bilan doimiy muloqotda bo'lgan. Shu bois to'la ishonch bilan ayta olamanki, ular o'z kasbiga, ona Vatanimiz, xalqimizga juda sodiq inson-lardir"*[1,477]. Darhaqiqat, ziyolilar, shoir va yozuvchi-lar o'z asarlari bilan kelajak avlodga nur, ziyo tarqatib turadilar.

Bugungi adabiy jarayon, adabiyotning barcha tur va janrlarida g'oyaviy-badiiy mundarija inson va voqelikni anglash hamda badiiy kashf etish har bir adibning in-dividual o'ziga xosligini yorqin aks ettirmoqda. Bu xu-susiyatning turli jihatlari milliy adabiyotimizda salmoqli o'ringa ega bo'lgan nasrda, uning hikoya, qissa va ro-man janrlarida ham butun murakkabligi bilan namoy-on bo'lmoqda. Istiqlof davri nasrida insonni har jihat-dan tasvirlash, uning zohiriy va botiniy olamini badiiy kashf etish miqyoslari kengaydi. Bu sohada E.A'zam, N.Eshonqul, X.Do'stmuhammad kabi tajribali nosirlar bilan birga L.Bo'rixon, Z.Qurolboy qizi, D.Qo'zieva, J.Ergasheva, N.Chori kabi nisbatan yosh ijodkorlar ham samarali izlanmoqdalar. Adabiyotshunos U.Normatov ta'kidlaganidek, «kuchli, go'zal inson obrazi yaratilgan asarlarga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, Vatanimiz mus-taqillikka erishgan, millat o'z qadrini rostlash, o'zligini to'laroq namoyon etishga erishgan hozirgi kunlarda ni-hoyatda katta» [2,71-72].

O'zining nasriy asarlarida zamondoshlarimizning turfa obrazlarini yaratib, kitobxonlarga tanilgan Luqmon Bo'rixon ijodida ham shunday obrazlarni ko'ram-iz. *"Romanchilik bobida qanday natijalarga erishgan bo'lmasin, Luqmon Bo'rixon – o'qirmanlarga ko'proq qissanavis sifatida tanilgan yozuvchi. Uning qalami-ga mansub "Xizr ko'rgan yigit", "Qidiruvdagi qiz", "Sirli muallim", "Bir tomchi yosh", "Quyosh hali botmagan" singari qissalar o'tkir syujeti, betakror insoniy taqdirlar aks ettirilgani, tilining jozibadorligi, tasvirning samim-iyati, eng muhimi, qahramonlar ruhiyatining sof o'zbek-cha ifodalangani bilan o'qirmanlarni o'ziga rom eta-di"*[3,429].

Darhaqiqat, adib qissalarida voqea-hodisa tasvir-idan ko'ra ko'proq ruhiyat ifodasiga e'tibor qaratadi. Ma'lumki, janr talabida voqea-hodisa ustunlik qilsa-da, yozuvchi badiiy mahorati qahramon ruhiyatidagi eng nozik va chigal o'zgarishlarni ko'rsata bilganligi bilan ahamiyatli.

Luqmon Bo'rixon o'z asarlarida hayotning nurli qirralarini, insonlar turmushining ibratli jihatlarini aks ettirishni xush ko'radigan ijodkor. Buni muallif qalami-ga mansub *"Quyosh hali botmagan"* qissasi misolida ko'rishimiz mumkin. Qissada, yoshlarning turfa xil sar-guzashtlari, hayot so'moqlarida duch kelgan sinov va mashaqqatlari, jasorat, mardlik, muhabbat, g'urur kabi

chin insoniy qadriyatlar, o'ziga xos milliy xarakter va obrazlar misolida ochib berilgan.

Asarda tasvirlangan davr, voqea-hodisalar qaysidir ma'noda yozuvchi hayoti bilan bevosita bog'liqdek ta-assurot qoldiradi. Boisi, o'zi yashayotgan muhit va o'sha yerning tabiati, urf-odatlar, tevarak-atrofidagi odamlar hayoti, haqiqiy sodda va tanti o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniq tasvirlaganki, har bir obrazning xarakteri, qahramon nutqi, so'z qo'llash ma-horati kabilar muallifning so'z boyligidan, o'z urf-odata-larini yetarli darajada bilishi va badiiy quvvatidan dalolat beradi.

Asardagi voqealar XIX asrning 80-90-yillarda tog'dan cho'lga ko'chirilgan Kengsoy qishlog'ida bo'lib o'tadi. Ma'lumki, o'sha davrlarda Jabborsoy, Kengsoy kabi soyliklar ham adirlar relefining parchalanib ketishi natijasida ularning hududi o'zgarib ketgan. Kitobxon qahramonlarning o'zgacha hayot tarzi orqali ushbu qishloq haqida kengroq tasavvurga ega bo'lishi bilan birga qissaning ayni hayot haqiqatiga monand tarzda yaratilganining guvohi bo'ladi. Asarda takrorlanib turu-vchi *"Quyosh hali botmagan"* jumalari go'yo butun bir asarning mazmunini tashkil qilgandek bo'ladi va sar-lavha tanlashda yozuvchi qissaning mavzu va g'oyasi-ga monand tarzda olganligiga iqrar bo'lasiz.

Qissa *"Biz hali Absal polvonni tanimas edik"* tarzi-da ibtido oladi va shu jumla asar davomida o'n sakkiz joyida turli o'zgarishga uchragan holda kuzatiladi. Ya'ni voqealar tadriji davomida *"Biz Absal polvonni tanidik", "Biz Absal polvonni tanidik, bildik", "Biz Absal polvon-dan uzoqlashgan edik", "Biz Absal polvonni unutdik", "Biz Absal polvonni unutgan edik", "Biz Absal polvonni mangu yo'qotib qo'ydik"* va asar xotimasida *"Biz Absal polvonni yana qayta topib olgan edik"* tarzida keltiriladi va bu jumalar hayot sinovlarida toblanib, turli topishish va yo'qotishlar yuksalish va ortga ketishlar, oxir-oqibat-da esa qahramonlarning o'z-o'zini anglashi, o'zligini to-pishigacha bo'lgan voqea-hodisalarni o'zida jamlagan. *"Dunyoning adolati shundaki, odam atrofidan o'zi qidir-gan, ko'rishni izlagan narsani topadi va ko'radi. Olamda barchaga mutlaqo birday ta'sir ko'rsatadigan narsa-ho-disaning o'zi yo'q"*. [3,429]

Asar Norsoat tilidan bayon qilinadi. Undagi vo-qealar, asosan, Norsoat va uning do'sti Davron o'rtasi-da bo'lib o'tadi. Demak, asarda Norsoat o'zida og'ir yuk ko'targan obrazdir. Boisi, qissanavis obrazini yaratish-da yozuvchi uslubiga ko'p narsa bog'liq. Ammo qissa janridagi qissanavis obrazini *"Hech qachon yozuvchi shaxsiyati bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Badiiy so'z individualligi qissanavisga nisbatan muayyan xarakterni ifodalash vositasi vazifasini bajaradi"* [4,97].

Qissanavis obrazi yozuvchi tomonidan maxsus yaratilmaydi. Lekin uning qanday chiqishi yozuvchi mahorati va o'zligini qanday namoyon etishiga bog'liq. Shu jihatdan u mustaqil obraz bo'lib, asar tizimidagi boshqa obrazlardan farq qilib turadi. M.Baxtin fikriga ko'ra: *"Agar ushbu obraz haqqoniy va teran bo'lsa, u*

tinglovchi-kitobxonga shu muallif asarini to'la chuqurroq tushunishga yordam beradi» [5,405].

Yozuvchi qalamga olayotgan mavzuni to'laligicha tahlil qiladi, har bir obrazni yaratishda bor mahoratini ishga soladi. Bu jarayonda yozuvchi nimalarga qodirligi, salohiyati namoyon bo'ladi. Ayni paytda asardagi har bir voqea, tasvir, xarakter, badiiy obraz yozuvchi dunyoqarashidan kelib chiqadi. Yozuvchi mahorati asarning badiiyligini, inson xarakterini yaratish san'ati uning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Qissada ushbu ikkala do'st: Norsoat va Davronning Tanzilla ismli qizga ko'ngil qo'yishlarida esa, ular bir vaqtda do'st ham raqib ham ekanligi ayonlashadi. Norsoat Davronni xushlar, usiz zerikkanday bo'lardi. Buni quyidagi parchda ham ko'rish mumkin: *“Davron aytganday, u bilan tomirimiz tutash ekan. Ikkovimizni bir kunda askarlikka olib ketishdi. Biz chiqqan poyezd uch kecha-yu uch kunduz, goh to'xtab, goh tezlashib, goh imillab yo'l bosdi. Rossiyaning qay bir shahrida Davron bilan ajralishdik. Ularni o'sha yerda poyezddan tushirishdi. Nazarimda, butun borliq birdan huvillab qolgandek tuyuldi”*[6,63]. Ko'rib turganimizdek, Qahramon do'sti poyezddan tushishini “butun borliq huvillab qolishi”ga mengzaydi. Norsoat tabiatan ancha og'ir, vazmin bo'lsa, Davron sho'xroq, yovqur, bahodir edi. Norsoat o'sha o'zi ko'ngil qo'ygan qiziga sodiq yuradi, hatto u tasavvurlarida Tanzilla ko'rib turibdi deb o'ylab nojoiz xatti-harakatlardan o'zini tiyadi. Qissa qahramonlarining harbiy xizmat o'tashlari shu zaylda davom etadi.

“Bizning qismda bir qaraganda harbiy nizom, intizom yaxshi yo'lga qo'yilgandek ko'rinsa ham, ammo ichidan irigan ekan”[6,63]. Norsoat tilidan aytilgan ushbu fikr o'sha davrdagi “usti-yaltiroq, ichi – qaltiroq”liklarni qoralaydi ham. Norsoatning Tanzillaga bo'lgan cheksiz muhabbati butun asar davomida sezilib turadi. Sevgilisidan 6 oydan keyin birgina xat olib o'zini “mushakkam qal'ani zabt etgan qo'mondonday” his qilishi, “sahroda sulayib, sudralib buloq boshiga yetib olgan sayyohdek, cheksiz baxtiyor”[6,64] bo'lishi uning chin oshiq ekanligini ko'rsatadi.

Asarda sibizg'a bilan bog'liq tasvirlar uchraydi. Sibizg'a-sibiziq, cho'pon nay – 1) tilchalipuf lama o'zbek xalq musiqa cholg'u asbobi. Hozirda, asosan, cho'ponlar orasida tarqalgan. Qamishdan yasaladi. Diametri, odatda, 5–6mm., uzunlikda. 140–150mm. bo'ladi. Ustki tomonida, puflanadigan uchining 10–15 mm. pastrogida tilchasi, undan quyida uchta teshikchasi bo'ladi. Diapazoni, odatda, sakkizta. Sibizg'ada ko'proq oddiy cholg'u mashqlar, xalq qo'shiqlari kuylari chalindi; 2) qozoq puflama musiqa cholg'usi. Uzun (80–90 sm.), to'g'ri ushlab chalinadigan nayning turi. 5-6 bar-moq teshiklari mavjud. Diapazoni 1,5 oktava atrofida. Professional cholg'ular qatoridan o'rin olgan qozoq sibizg'asida rivoyat kuylar, xalq lirik qo'shiqlarining kuylari ijro etiladi[7].

Nega yozuvchi ushbu asbobni detal sifatida Norsoatning ruhiyatini ochib berish maqsadida qo'llaydi?

Sababi, sibizg'a birinchidan, milliy va afsonaviy cholg'u asbobimiz bo'lsa, ikkinchidan, uning kuyida qandaydir bir mung bor. Norsoat aynan shuning uchun ham uni chalgisi, ohangidan orom olgisi keladi. Lekin uning qalbidagi bu iltirob yanglig' bu mung Tanzillaning ko'z yoshlari orqali yuvilib ketadi. Ammo bu ko'pga cho'zilmaydi, ya'ni Davronning o'sha qizga uylanmoqchiligini eshitgan Norsoatning qalbi yana ostun-ustun bo'la boshlaydi.

“Ota-bobolarimiz an'anasi bo'yicha hal qilamiz. Ikkovimiz kurashamiz. G'olib Tanzilaga egalik qiladi. Ham domillaning to'yi qiziydi”[6,71]. Davrondan chiqqan ushbu taklifga Norsoatning ko'nmay iloji ham yo'q edi. Ular endi raqiblarga aylandi. “Quyosh hali botmagan” edi “Ammo quyosh allaqachon qip-qizil qondek shafaqqa belanib ufqqa bosh qo'ygan edi.” Quyidagi Davron nutqida keltirilgan parcha, shunchaki oddiy jumlar emas, balki, butun asardan kelib chiqadigan so'ngso'z edi: “Dunyo kezib, ikki haqiqatni angladim, Norsoat, eng birinchisi chin polvonning joyi panada ekan, shuni bildim. Ikkinchisi... har polvonning o'z sibizg'asi bo'lsin ekan” **“Quyosh hali botmagan!”** Hayqirig'imizdan tund shahar tovlanib ketganday bo'ldi. Biz bir-birimizning bag'rimizga otildik. Quvonchdan, hayajondan ikkimizning ham tilimizga tuzukroq so'z kelmay, nuqul iljayamiz-jilmayamiz, namlangan ko'zlarimizni yashirishga urinamiz”[6,103]. Qahramonlarning butun asar davomida goho shunday hayajonga, goho g'azabga soladigan ushbu jumla, muallif tomonidan shu qadar badiylashtirilganki, obraz darajasiga ko'tarilgan, ya'ni shu birgina gap qissa davomida sohir sas sifatida yangraydi.

Odatda, ijodkorning mahorati u yaratgan asarning poetikasi, ya'ni obraz yaratish mahorati, asar tili, uslubi, kompozitsiyasini to'g'ri shakllantirganligi, badiiy tasviriy vositalarni qo'llay olish darjasida ko'rinadi. Shu o'rinda, Luqmon Bo'rixonning “Quyosh hali botmagan” qissasida ana shu jihatlarning yetarlicha va yuksak saviyada ifodalaganini ko'ramiz. Asar, ayniqsa, tasviriy ifodalarga nihoyatda boy. Istalgan o'rnida portret, peyzaj, tashbehrlarning go'zal namunasi uchratishimiz mumkin. Jumladan, quyidagi parchada “Tanzila! Mening hurkak jayronim, mening xumor ko'zligim” jumlasida Tanzillaga Norsoat tomonidan berilgan ushbu tashbehlar qizning suratini aks ettirayotganligini ko'rish mumkin. Oshiq yigit Tanzillaning visoliga erishish onini yozuvchi badiiy mahorat bilan “sahroda sulayib, sudralib buloq boshiga yetib olgan sayyohdek” tarzida tasvirlaydi: “ayni paytda g'alati bir zavq-u shavq qo'ynida edim. Yarim ochiq oynadan yopirilib kirayotgan shabada yuz-ko'zlarimni erkalab silardi, paykallar, dov-daraxtlar, uylar diydorlashish uchun qarshimga otilib chiqayotgandek tuyulardi. Xuddi shu cho'l-u biyobon men uchun olamning markazi, eng so'lim, eng go'zal go'shalarning eng so'limi, eng go'zali edi” tasvirda esa tabiatni shu qadar jonli tasvirlaganki, xuddi tabiatga jon ato etgan.

“Luqmon Bo’rixon – adabiy davralarda ruhiyat rasomi sifatida tilga olinadigan ijodkor”[8,285]. Ayniqsa, “Quyosh hali botmagan” qissasida yozuvchining badiiy tasvir vositalarini inson ruhiyatidan kelib chiqib mahorat bilan qo’llashi yozuvchining yuksak badiiy quvvatini ko’rsatadi. Qissada peyzaj tasvirlarini chizishda qahramon ruhiyati bilan uyg’unlikda tasvirlashi deyarli barcha o’rinlarida uchraydi. Jumladan, Norsoatning ishqdan ozor chekib, rashk azobida o’rtanib yurganda ko’ziga qishloq kechasi: “Qop-qora osmon toqida to’lin oy o’ychan va xomush salqin epkinidan dov-daraxtlarning qovjiroq barglari xazin shitirlar, oyning zardoptus yog’dulariga burkanib yotgan ko’cha-ko’y, ekinzorlar xorg’in va parishon mudrar edi” tarzida yoki vijdon azobida o’rtanyotgan, o’z qilgan ishidan uyat hissini tuygan yigit nazdida oyning holati “Men ko’zlarimni ko’kka opqochdim. Miltillagan yulduzlar go’yo hurkib, uyalib g’uj-g’uj to’planib olgandek edi. Sap-sariq to’lin oy battar sarg’ayib, so’lib behol bo’zarib turardi” ko’rinishida tasvirlanadi. Yozuvchining badiiy mahoratini obraz kayfiyati bilan tabiatni uyg’unlikda ko’rsata bilishida namoyon bo’ladi. Shuningdek, qissada qahramon yigitlarning shioriga aylanib qolgan asar g’oyasini o’zida aks ettirgan jumalarning qayta-qayta takror qo’llanilishi ham ma’noning quyuqlashishiga olib keladi, bu ham badiiylarni ta’minlovchi vositadir.

Qissadagi epizodlar va mayda detallar ham Luqmon Bo’rixonning so’z qo’llash mahoratidan bebahra qolgan emas. Misol uchun, u Quvondiq qaysarning chor-atrofga mamnun iljaygancha ko’z tashlashini qaysar qoyaning qad kerishiga mengzaydi. Bevosita savol tug’iladi, nega aynan qoya? Balki bu otaxonning el orasida orttirgan “qaysar” laqabi shunchaki aytilmas. Ha, asar qahramonlarining irodasi-qoyadek qattiq, cho’qqidek ulug’vor! “Yuragim gurs-gurs urgan ko’yi Davron ketgan tomonga tasmollab jo’nadim. Adashmagan ekanman. Do’stim yelkasiga og’ir yuk ortilgan hammolday mashinalar tomon og’ir-og’ir odimlardi.” Norsoat tilidan bayon qilingan ushbu parchada badiiy tasvir vositalarida o’xshatishning go’zal namunasi qo’llanilganining guvohi bo’lamiz, bu shunchaki tashbehlar emas, balki qahramonning botiniy va zohiriy tuyg’ulari in’ikosi edi. Ya’ni Davronni og’ir yuk tashuvchi hammolga o’xshatib qo’ygan narsa bu or-nomusi edi. Polvonning “yelkasi-dagi yuki” - mag’lub deyilgan tamg’a, ustiga-ustak

uning halol emasligida edi. “Dunyo kezib, ikki haqiqatni angladim, Norsoat, eng birinchisi chin polvonning joyi panada ekan, shuni bildim. Ikkinchisi, har polvonning o’z sibizg’asi bo’lsin ekan” Davronning ushbu so’zlari faqat qahramonning emas butun asarning xulosasi sifatida yangraydi go’yo.

“Quyosh hali botmagan” qissasining tili shu qadar ravonki, u beixtiyor qo’shiqday o’ziga tortadi, musiqiylik, jozibadorlik yaqqol seziladi, sodda, shirali tilliligi yozuvchining so’z ustasi ekanligiga shubha qoldirmaydi. Buni quyidagi keltirilgan parchada ko’rish mumkin: “Sibizg’aning avjli-mavjli oh-u fig’oni yer- ko’kni tutdi. Xayollar-u, tuyg’ularni ortidan mastona ergashtirib, bir najot, bir, taskin, bir panoh izlab giryona charx urar, go’yo izlaganini topolmay, sahro sarblariga qorishib, sarg’aygan dala-dashtni battar sarg’aytirib, olis ufqlarga singib ketar edi. Uzoq-yaqindagi ekin paykallari suvsirab emas, sibizg’a bo’g’zidan otilayotgan bo’zlov, dard-u hasrat hovuridan qop-qorayib ketganday, kunbotardagi tap-taqir qir-tepaliklar bag’ridan ko’tarilgan qyun sibizg’aning achchiq-achchiq nolalaridan mast-u mustag’riq bo’lib, jazava bilan ko’kka o’rlab borayotganday tuyuladi”. Mana shunday tasvirlar qissaning ko’rkam asar sifatidagi qiyamatini belgilaydi. Shu o’rinda, kitobxon asarni o’qish jarayonida Tanzilla obrazini sibizg’aga o’xshatishi ham joizdir, sababi, har polvonning o’ziga kuch bag’ishlab turadigan o’z sibizg’asi... Norsoatning sibizg’asi Tanzilla edi. Polvonlikda dong taratgan zotlarning sibizg’asi esa Davronda edi, ustozining kuch manbai unga meros qolgan edi.

Luqmon Bo’rixonning badiiy mahorat qirralari obraz tanlashda, sodda va samimiy xarakterlar tasvirida, qahramon ruhiyatini tabiat manzarasi bilan uyg’unlashtira olishda, hayotiy asosga qurilgan badiiy voqelik yaratishda, badiiy tasvir vositalaridan o’rinli foydalana bilishda namoyon bo’ladi. Zero, ijod olamida har bir ijodkor o’z uslubi va yo’nalishiga ega bo’ladi. “Uslubda ularni bir-biridan ajratib turadigan tomonlar: uning shaxsiy tajribasi, iste’dodi, nutq ohangi va hokazolar ko’zga tashlanadi”[9,217]. Chin ma’noda aytish mumkinki, Luqmon Bo’rixon ham allaqachon o’zining betakror uslubiga ega yozuvchi. Yuqoridagi birgina qissasi buning yorqin dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelezimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T. “O’zbekiston”. 2017. B-477.
2. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. -Т. Маънавият. 2000. Б-71-72.
3. Qozoqboy Yo’ldosh. Ochqichso’z. -Т. Tafakkur. 2019. B-429.
4. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. - М.: Учпедгиз, 1955. – С-97.
5. М.Бахтин. Вопросы литературы и эстетики. - М., 1975. - С.405.
6. Luqmon Bo’rixon. Quyosh hali botmagan. Qissa va hikoyalar to’plami. T-2015. B-63, 64, 71, 103.
7. O’zME. Birinchi jild. -T. 2000.
8. Luqmon Bo’rixon. Begonalar yurmas bu yerda. roman. T-2019. B-285.
9. Норматов У. Ижод сеҳри. -Т. Шарқ.2007. Б-217.

S.ABDULLAYEVA,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Tillar kafedrası dotsenti f.f.nomzodi

CHET TILINI O'QITISHDA KURSANTLAR IJODIY QOBILIYATI RIVOJLANISHINI EKSPREMENTAL TADQIQI

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tili darslari orqali kursantlarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi tahlil qilingan. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil, erkin fikrlash, mavzular bo'yicha egallanishi lozim bo'lgan bilimlarni mustaqil toppish uchun muammoli savol, mantiqiy savol metodlari asosida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy ta'lim metodi, kompetensiya, axborot texnologiyalari, uyg'unlik, kognitivlik, tizimli yondashuv, ijodkorlik.

Abstract: This article analyzes the technology of developing the ability to think creatively when teaching a foreign language to cadets. Conclusions are also given about the work in foreign language lessons based on problem-question, logical-question methods of pedagogical technology for the purpose of independent, free thinking, independent search for knowledge necessary for mastering the subject.

Keywords: creative teaching method, competence, information technology, harmony, cognition, systematic approach, creativity.

Аннотация: В данной статье проанализирована технология развития способности к творческому мышлению при обучении иностранному языку у курсантов. Даны также выводы о работе на уроках иностранного языка на основе проблемно-вопросных, логико-вопросных методик педагогической технологии с целью самостоятельного, свободного мышления, самостоятельного поиска знаний, необходимых для овладения предметом.

Ключевые слова: творческий метод обучения, компетентность, информационные технологии, гармоничность, познавательность, системный подход, креативность.

Ijodkorlik – inson aqliy faoliyatining asosi hisoblanadi. Ushbu qobiliyat insonning har qanday faoliyatda kutilmagan vaziyatlardan chiqib ketishida juda muhim o'rin tutadi. Ko'pgina tadqiqotchilar har qanday ijodiy fikr asosiy g'oya, maqsad va harakatga bog'liq ekanligini aytib o'tishgan. Ijod jarayonida inson ma'naviy erkinlikka ega bo'ladi, vaziyat-cheklangan borliq chegarasidan chiqib ketadi. Ijodiy fikrlashdan mahrum inson o'z individualligini yo'qotadi.

Pedagogika fani rivojlanib borish bilan o'quvchilarni mustaqil ijodiy ta'lim jarayoniga jalb etish, darslarda bahs-munozara, musobaqa, ssenariyli dars, konferensiya, sayohat metodlari asosida mustaqil fikrni o'stirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ichki ishlar organlari bo'lajak xodimining ijodiy va kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish operativ va xizmat faoliyatiga tayyorlikda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqsadga erishish uchun **mashg'ulot**larda yuqori ijodiy salohiyatga ega shaxsni shakllantirishga imkon beradigan vositalar va usullardan foydalanish zarurdir.

– Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning asosiy tashkiliy choralari quyidagilardir:

- kursantlar o'rtasida muloqot qobiliyatini rivojlantirish **bo'yicha** treninglar o'tkazish;
- psixologik portret shaxsining vizual psixodiagnostikasini rivojlantirish;
- rasmiy vazifalarni hal qilishda fuqarolar bilan psixologik aloqani o'rnatish;
- kursantlarning kasbiy faoliyatida psixologik ta'sir;

- fuqarolar bilan muloqotda nizolarning oldini olish;
- psixologik charchoq va yengillikning oldini olish kursantlar va tinglovchilarning muloqot jarayonini amalda takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- trening davomida tinglovchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- o'zgaruvchan tarkibning ijtimoiy-psixologik kayfiyatini doimiy ravishda nazorat qilish;
- darsdan va mashg'ulotlardan tashqari vaqtda tinglovchilar ijodiy faoliyatini faollashtirish.

“Ssenariyli dars”metodi

Ushbu dars metodi asosida kursantlarni ijodiy faoliyatga undashi mumkin. Ya'ni, kursant tomonidan o'qib chiqilgan badiiy asar yuzasidan ssenariy tuzish o'ziga xos ijodiy fikr mahsuli bo'ladi. “Senariyli dars” metodi S.Yaminova tomonidan alohida o'rganilgan dars metodlaridan biri hisoblanadi¹.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Mazkur mustaqil ijodiy ta'lim metodida o'qib chiqilgan ma'lum bir badiiy asarning tahlili yotadi. Badiiy asar tahlili asosida kursantlardan ijodiy fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish talab etiladi. Bu usulda kursant o'z mustaqil fikri va xulosasini bayon etishi uchun savol va topshiriqlar berish lozim[1].

Tadqiqotlarimizda 1-bosqich kursantlarida chet tili darslarida mustaqil, erkin fikrlashga, mavzular bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilimlarni o'zlari izlanib topishlari uchun pedagogik texnologiyaning muammoli savol, mantiqiy savol metodlari asosida ishlashga yo'naltirdi.

ik. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, kursantlarda ijodkorlik, va tadqiqotchilik faoliyati rivojlanishiga yordam berdi. Avvalo, asar aynan fan uchun emas, balki kursant uchun yangilik kashf etishi, muammoni o'rganish, kursantning hayotiy tajribasi va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Buning uchun o'qituvchi kursantni darslikdagi mavzu matni va uni mustahkamlovchi savollar bilan chegaralab qo'ymasdan ularga muammoli savollar orqali tadqiqiy fikrlash faoliyati shakllanishiga e'tibor berishi lozim.

Kursantlar muammoli savollarga javoblar tayyorlash uchun darslik, o'quv qo'llanmalar, internet manbalari, elektron darsliklar asosida ishlaydi, olgan ma'lumotlarni tizimga soladi, taqdimot uchun asosiy tushunchalarni ajratadi, berilgan muammo yechimlarini asoslab berish uchun izlanadi. Bu ularni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltiradi.

Kompetensiyalar tarkibiga kiruvchi "Axborot bilan ishlash ko'nikmasi" mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish; media vositalardan zarur axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media madaniyatiga rioya qilish; ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiy va keraklilarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'g'ri to'ldirish, mehmonxona ro'yxatida o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshqalar) kompetensiyalari ta'lim muassasasidagi axborotlashgan muhit ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga, kursantlarda ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga, ularda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunga o'qituvchilar diqqat-e'tiborini kursantlarning bilish faolligini ta'minlashga qaratishi

alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida kursant va o'qituvchi AKTdan unumli foydalana olsalar, ularning ijodiy fikrlash faolliklari jadallashib, subyekt va subyekt doirasi kengayadi.

Ma'lumki, kursantlarda axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilish davr talabidir. Tadqiqot jarayonida AKTdan foydalanish ilmiy izlanishlar sifatini yaxshilash va tadqiqot samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda tadqiqot materiallarni tanlash muhim bo'lib, bunda didaktik prinsiplarga rioya qilinadi²:

muammolik,
mavzuga oidlik,
tizimli yondashuv.

Axborotlarni tarqatishning huquqiy va axloqiy jihatlarini hisobga olgan holda axborotga mas'ul munosabatda bo'lish; qabul qilingan ilmiy ma'lumotlarga tanlangan munosabat.

AKTdan tadqiqot ishlarida foydalanishning afzalliklari³:

Tadqiqot ishlarini individuallashtirish;
Tadqiqot ishini jadallashtirish;
Tugallangan tadqiqotlar hajmining o'sishi.
Tadqiqot ishlarini ochiq va oshkoraligini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar chet tillarini o'qitish jarayonini sezilarli darajada boyitadi va kursantlarda ijodkorlik qobiliyatini yanada oshiradi. Intellectual, ijodiy izlanish paydo bo'ladi. Bu doimiy o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan, faol shaxsni kamolga etkazishga yordam beradi.

1. Xo'jamberdieva, D. A. (2022). Talabalarda Ijodiy Fikrlashni Rivojlantirish Yo'llari. *Science And Education*, 3(2), 1424-1429.
2. Siddikov, I. B. (2021). Modern Models of Providing Autonomy Of Higher Educational Institutions (Analysis Of Foreign Countries Experience). *Current Research Journal of Pedagogics* (2767-3278), 2(05), 25-31
3. Bakhromovich, S. I. The Phenomenon of Management and Leadership Personality In The Views Of Oriental Scholars. Chief Editor. 2018

Adabiyotlar ro'yxati

1. Xo'jamberdieva D. A. (2022). Talabalarda Ijodiy Fikrlashni Rivojlantirish Yo'llari. *Science And Education*, 3(2), 1424-1429.
2. Siddikov, I. B. (2021). Modern Models of Providing Autonomy Of Higher Educational Institutions (Analysis Of Foreign Countries Experience). *Current Research Journal of Pedagogics* (2767-3278), 2(05), 25-31
3. Bakhromovich, S. I. The Phenomenon of Management and Leadership Personality In The Views Of Oriental Scholars. Chief Editor. 2018
4. Bakhromovich, Siddikov Ilyosjon, and Maxamadaliyev Lutfillo. "Development of Ecological Culture In Students In The Process Of Education Of History Of Uzbekistan." 2021
5. Гребенюк О. С. Педагогика индивидуальности. - Калининград, 1995.
6. Лихачев Б. Т. Теория эстетического воспитания школьников: учебное пособие. -М., 1985.

Dilnoza SULAYMANOVA,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqotlar universiteti
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o'qituvchisi

S.T.KOLDRIJ SHE'RIYATIDA SHARQ SHE'RIYATI AN'ANALARI IN'IKOSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz romantizm adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lgan S.Koldrij she'riyatining sharq she'riyati bilan uyg'unligi she'riy misollar yoradamida tahlil qilingan.

Abstract. In this article, the harmony of the poetry of S. Coldridge, one of the bright representatives of the English romantic literature, with the poetry of the East is analyzed with the help of poetic examples.

Аннотация. В данной статье на поэтических примерах анализируется гармония поэзии С. Колдриджа, одного из ярких представителей английской романтической литературы, с поэзией Востока.

Ingliz romantizm she'riyatining taniqli vakillaridan biri S.Koldrij hisoblanadi. Uning turli mavzulardagi she'rlari romantizm ruhi bilan sug'orilgan. Shoir satrlari tabiat tasviri bo'ladimi, insoniy hislar tasviri haqida bo'ladimi – barchasida lirik qahramonning ko'tarinki kayfiyati, cheksiz yuksak tuyg'ulari va iztirobli o'ylari aks etadi. Bu romantik tasvir uslubiga xos muhim jihatlardir.

S.Koldrij she'rlari rus adibi S.Marshak tomonidan rus tilga mahorat bilan o'girilgan. Shu nuqtai nazardan shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlarini tahlil etishga harakat qilamiz:

Восторги, страсти и мечты,
Все, что волнует нашу кровь, –
Питают ясный, чистый све
Твоих лампад, Любовь.
Маъноси: Quvonchlar, ehtiroslar va orzular
Bizning qonimizni jo'sh urdiradi,
Ishqingning yog'dularidan, Sevgi
Nurga to'lgan olam oziqlanadi.

(Tarjima muallifniki D.S)

Bunda adabiyotshunos D.Quronov to'g'ri ta'kidlaganiday: "Shaxsning sirli va adadsiz ichki olami markaziy muammoga aylangan". Ya'ni lirik qahramon- oshiq qalbini quvonchga, ehtiros va orzuga to'ldiradigan muhabbat sirli va adadsiz olam sifatida ifoda etilgan. Shoir shu jihatdan ishqning yog'dulari olamni nurga to'ldiradi, deydi, bunda ishqning ulug' qudratini his etish mumkin.

С зарей мешался блеск луны
И предомной стояла дева, –
Моя надежда и любовь,
Мой ангел – Женева.
(Маъноси:
Tong shafag'i va oy nuri uyg'un bir lahzada
Mening oldimda bir qiz turadi.

U mening umidim va muhabbatim –
Mening farishtam u – misli Jenyeva.

(Tarjimon D.S.)

Muhabbat hislari romantika bilan to'lib-toshgan. Shuning uchun shoir tabiatdagi go'zal manzara — tong shafag'i va oy nuri uyg'unlik kasb etgan lahzada qalbiga ishq solgan Jenyeva ismli qizga ro'baro bo'ladi. Jenyeva ismli qiz Sharq adabiyotidagi Momo Havo timsoliga tenglashtiriladi (ingliz tilidagi asl she'rda qiz obrazi "Eva" deb keltirilgan).

The moonshine, stealing o'er the scene,
Had blended with the lights of Eve;
And she was here my hope and my joy,
My own dear Genevieve!

U lirik qahramon oshiq uchun umid va muhabbat timsoli. Qolaversa, lirik qahramon o'z muhabbatini farishta deya alqaydi:

Я пел ей повесть старины.
Рассказ был мрачен и печален,
Суров и дик, как скорбный вид
Седеющих развалин.

(Маъноси:
Unga o'tmish hikoyasin so'zladim
Hikoyaki, g'amgin, qayg'uli.
Vayronlikka yuz tutgan
Yana og'ir, iztirobga to'la manzara).

Shu o'rinda romantizmga xos assotsiiviatlik ko'zga tashlanadi. Ya'ni lirik qahramon suyuklisi bilan birga xayolan o'tmish taassurotlari bilan yuzlashadi. Jenyevaning o'tmish hikoyasini eshitgandagi holati ham juda go'zal: nozik va hayratli. Qolaversa uning yerga qarashi ham Sharq go'zalining holatini yodga soladi.

Keyingi misrada ham Jenyevaning ichki dunyosi tasvirlab berilgan. Xuddi shuningdek, Sharq she'riyatini ham kuzatishimiz mumkin. Sharq she'riyatida g'ozallar timsoli juda hayoli va iboli, birovga tik qarashdan uyaladigan holatda tasvirlangan.

Она внимала глядя ниц,
В румянце нежного смущенья,
Боясь взглянуть и встретить взгляд
Любви и восхищенья.

(Маъноси: U tinglab, pastga qaradi,
Xijolatdan nozik qizarib,
Tik nazar-la boqishdan qo'rqib,
Sevgi va hayrat ila).

Ushbu misralarni tahlil qiladigan bo'lsak, adabiyotshunos D.Quronov ta'riflaganidek: "Voqelikka boqiy va mutlaq ideallar asosida yondashiladi".

Botir, qo'rqmas, jasur ritsarning muhabbatga sadoqati Sharq adabiyotidagi Farhod hamda Majnun obrazlariga uyg'un. S. Koldrij insondagi eng oliy tuyg'uni romantik tasvirlarda obrazli ifoda etgan.

Ma'lumki, muhabbat mavzusidagi she'rlar romantik tuyg'ularga boy bo'ladi. Lirik qahramon – oshiq o'zining qaynoq hislarini ifoda etish uchun timsol qidiradi. S. Koldrij misralari shu jihatdan e'tiborni tortadi. She'rdagi Sharqona tasvir yetakchilik qiladi. Xususan, bu suyuklining ko'zlari tungi yulduzga o'xshatilishida ko'rinadi. Sharq she'riyatida ko'zni yulduzga mengzash ko'p asrlilik an'anaga aylangan. So'nggi satrda esa G'arb va Sharq uyg'unlashadi. Bunda shoir Xeruvim – (xudoga sajda qiluvchi va uni ulug'lovchi qanotli farishta)larni tilga oladi. Xeruvimlar birinchi bo'lib "Ibtido" kitobida eslatib o'tilgan: "*U Odam Atoni quvib chiqardi va Sharqda Adam bog'i yonida hayot daraxtini qo'riqlash uchun Xeruvimlarni qo'ydi va olovli qilich o'rnatdi*".

Shoir ma'shuqaning ovozi xeruvimlar-karublar qo'shig'iga qiyoslaydi.

Но не одна краса меня пленяет,
Хотя и радует она мой глаз:
Я рад, что глас в душе твоей склоняет
Слушать мой горестный рассказ.

(Маъноси:
Faqat go'zallikmas meni qul qilgan,
Garchi u ko'zimni quvontirsa-da:

Sodman, qalbingdagi menga intizor,
Tinglasang hikoyam qayg'u bo'lsa-da).

Ma'lumki, Alisher Navoiy qayg'uli ishq dostoni "Layli va Majnun"ni quyidagicha yakunladi:

So'gin nechakim uzotdim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugottim oxir.

S. Koldrij satrlari ham ishqiga yetisholmagan oshiqning qayg'uli hikoyasi haqida.

Я, как пловец, который тонет
В волнах бушующей реки,
Жду с нетерпением и стоном
Ко мне протянутой руки.
Ты сострадательная дева,
За то люблю тебя я, Женеьевева.

(Маъноси:
Men, g'avvosman, cho'kib ketayotgan,
Shovqinli daryoning to'lqinlarida,
Kutaman, sabrsiz, qilaman nola,
Menga qo'l uzatgan.
Siz mehribon qiz,
Shu bois sevaman seni, Jenyeva.

Yuqoridagi misralarda tasvir etilgan lirik qahramon ruhan Sharq she'riyatidagi oshiq obraziga yaqin. Xususan, ishq yo'lida u o'zini "shovqinli daryoning to'lqinlarida cho'kib ketayotgan g'avvos"ga o'xshatadi. Ayni choqda ma'shqani sabrsizlik bilan kutishi, nolalar qilishi holati ham Sharq oshiqclariga monand. Bu satrlar mubolag'aga boyligi sabab Sharq ohanglarini yodga soladi.

S. Koldrij she'rlari tahlili asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Romantizm Sharq she'riyatining asosiy tasvir metodi bo'lgan. G'arb shoirlar bu an'anaga ergashganlar. Jumladan, S. Koldrij she'riyati ham romantizm buloqlaridan suv ichgan.

2. S. Koldrij Sharq she'riyatini yaxshi biladi, undagi timsollarni talmeh sifatida qo'llaydi.

Umuman olganda, S. Koldrijning romantik uslubdagi she'rlarida Sharq adabiyotidagi badiiy timsollar, obrazlar, tashbehu metaforalar ko'p uchraydi. Bu xususiyat S. Koldrijning Sharq adabiyotidan yaxshi xabardorligini asoslaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov D., Mamajonov. Z va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati-Toshkent: Akademnashr, 2013.
2. Xolbekov.M. Marlo va Shekspir. -Toshkent, 2015.
3. Coldridge S.T. The poetical works of Samuel Taylor Koldridge -London,1912.
4. Borfkin, Mauf Archetypial Patterns in poetry. Psychological studies in imagination. - New York, 1958.

Iroda ASATJANOVA,
Urganch davlat universiteti
Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

OYDIN HOJIYEVA SHE'RLARIDA KUZ TASVIRI VA XARAKTER RUHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yorqin ijod sohibasi, Vatani, eli uchun badiiy so'z qudratini namoyon eta olgan ulkan qalb egasi Oydin Hojiyevaning she'rlaridagi kuz tasviri, uning ifodalalanishi, turli o'xshatishlar qalamga olindi. Xalqining, elining sevimli adibi bo'lgan ijodkorda tabiat tasvirlarini ifodalalanishi hech kimda kuzatmasligimiz mumkin. Maqolada kuz tasvirining she'riy misralar orqali ifodalalanishi xuddi go'zal chizgilar orqali rassom qiyofasiga kirgan shoira qalbining badiiy aksidir.

Kalit so'zlar: badiiy tasvirlar, ichki kechinma, peyzaj lirikasi, lirik qahramon, ijodkor qalbi, tabiat go'zalliklari.

Annotation. In this article, the image of autumn in the poems of Aydin Khojiev, a brilliant creator, a respected woman, the owner of a huge heart, who was able to show the power of artistic words for the Motherland, her country, was written. We may not observe the expression of images of nature in an artist who is the queen of her people. The expression of the image of autumn in the article through poetic lines is an artistic reflection of the soul of the poet who has become an artist through beautiful lines.

Key words: artistic images, nature, inner experience, poetic poetics, creative heart, natural beauty.

Аннотация. В данной статье написан образ осени в стихах Айдына Ходжиевой, гениального творца, уважаемой женщины, обладательницы огромного сердца, сумевшей показать силу художественного слова для Родины, своей страны. Мы можем не наблюдать экспрессии образов природы у художника, являющегося любимым песательницей своего народа. Выражение образа осени через поэтические строки в статье является художественным отражением души поэта, ставшего художником через красивые строки.

Ключевые слова: художественные образы, природа, внутреннее переживание, поэтическая поэтика, творческое сердце, природная красота.

Xalqimizning ardoqli shoirasi bo'lgan Oydin Hojiyeva XXI asr zamonaviy adabiyotimizda ayol shoirlar ichida o'z o'rniga, o'z roliga ega bo'lgan ijodkordir. Uning she'rlari o'zining nafisligi, ohangdorligi, jozibadorligi, tasvirlarning ohoriyligi bilan boshqa ijodkorlar she'riyatidan tubdan farq qiladi. Biz ko'pchilik tadqiqotlarimiz orqali Oydin Hojiyeva ijodidagi tabiat tasviri, bahor tasviri, yoz tasviriga to'xtalidik. Bugun esa biz shoira ijodidagi kuz tasviri qalamga olingan she'rlarga e'tibor qaratamiz.

Yulduz yomg'irlari quyilar sharros,
Saksovul, burganlar cho'milar nurga.
Vaqtini egallagan shamol – chavandoz,
Suron solib o'tar mudragan qirga.

Oydin Hojiyeva she'rlarida tabiat ya'nikim, kuz tasviri o'quvchiga estetik zavq, lirik kayfiyat bag'ishlovchi vosita, siqilgan yurakka taskin beruvchi onlar sifatida talqin qilinadi. Ijodkorning maftunkor vohasidagi osmon baravar tog'lar, jiyaklarida boychechaklar o'sib yotgan so'qmoqlar, shishadek tiniq osmon, oppoq momiq bulutlar, shoxlari osmonga tekkudek azim daraxtlar, sokin o'rmonlar, kakliklarning sayrash kishining bahri-dilini ochadi; tandir og'ziday alanganib turgan quyosh, yam-yashil yaproqlari tagidan no'xatdek-no'xatdek zangor mevalari ko'rinib turgan archa ko'ngillarga shodlik baxsh etadi; cho'l havosi, uning kengligi, sarg'ish tuman ichra suzayotgan oy, bo'g'iq ovoz chiqarib, afsonaviy bir maxluqdek kilkillab oqayotgan daryolar o'quvchi qalbini xotirjam qiladi. Bu manzaralar qandaydir tashqi kuzatuv asosidagi tasvir emas. Bu yer-u osmondagi bar-

cha go'zalliklar ham birdaniga, bir vaqtda yozuvchi ko'z o'ngida gavdalanmaydi, bu eshitish va ko'rish orqali qabul qilinadigan tabiat manzarasi emas, balki bu murakkab va aniq qonunlarga asoslangan tabiat hayotining umumiy manzarasi. Tabiatni har tomonlama, ikir-chikirlarigacha, chuqur bilimdonlik bilan tasvirlash shoira ijodiy prinsipining asosiy xususiyatlaridan biridir.[1]

E'tiborimizni ijodkorning "Shom shu'lalari" to'plamidan joy olgan "Kuz osmoni" she'riga qaratamiz:

Kuzning osmoniga yarashar bulut,
Yarashar arg'imchoq solgan turnalar.
Kuzning osmoniga sokinlik unut,
Osmon kubbasiga to'glar o'rmalar.[2]

Kuz fasli insonni dilini xushnud qiladigan eng go'zal fasllardan biridir. Ko'pchilik uchun kuz yaproqlar sarg'aygani uchun ayriliq, judolik fasli sifatida qoraladi. Lekin shoira ijodida kuz fasli o'zgacha va jozibalidir: kuzning osmoni juda chiroyli va nafis bo'ladi. Uning osmoni tiniq bo'lmasa ham go'zal, unga bulutlar yarashadi. Bulutlar osmonning ko'rkiga-ko'rk qo'shadi. Arg'imchoq singari tebranib turgan turnalar osmon bag'rida yayraydi. Kuzning osmonida biz sokinlikni ko'rmaymiz. Unda tog'lar viqoridek shovqinlar bor. Kuz faslida daladagi polzni aylanib, zag'izg'on turshak mevalarni cho'qiydi. Jiblabonlar kuzgi dasturxonga yoyilgan noz-ne'matlarni ko'rib og'zi moylanadi. Ayni kuz pallasida behilar daraxtda oltinday tovlanadi, anorlar esa tars-tars yorila boshlaydi. Huddi ipda tizilgan marjonday soylarda antiqa toshlar yaltiraydi. Ayni kuz faslida ish juda qizg'in, kimdir beda g'aramini tomga bosadi,

kimdir esa mo'rkonlarni ko'zdan kechiradi. Mehnatkash odamlar ishdan horib-charchab kelib yerga quloq tutsa, qandaydir uyg'oq hisni sezadi. Aynan shu fursatda ufqning etaklarida cheksiz hayollar kemadek suzadi. Dov-daraxtlar ham ko'k to'nini yelkadan tashlab, qish g'amini yeya boshlaydi.

Bunday go'zallik, jozibadan insonning bahridili ochiladi. Ijodkorning ushbu she'rida tabiat go'zalligi keng miqiyosida tasvirlangan. Peyzaj yordamida shoira go'zal tasvirlarni yaratgan. Shuning uchun ham she'r kitobxonga manzur bo'lgan. Kuz xususidagi boshqa bir she'rga e'tibor qaratamiz:

O'ychan kuz kunlari, namxush bog'larda.
 Tovlanar fursatning alvon xatlari.
 Shamolda sollangan arg'imchoqlarda
 Anqir bolalikning farog'atlari.

Ushbu she'rda kuz fasli o'ychan qiyofada tasvirlangan. Kuzda, quyosh tabiatni tinchlantirgandek, uni uzoq qish uyqusiga tayyorlab qo'ygandek, sekin yonishi aytib o'tilgan. Barglarning olovli ranglari, shoxlardan tushib, o'tib ketayotganlarning oyog'i ostiga yumshoq gilamni bo'lib, yerga tushishi chiroyli tasvirlar orqali ifoda qilingan. She'rda havo shunchalik tozalik bilan to'lganki, u tiniq va ohangdor, cho'zilgan ipga o'xshaydi. Ochiq havoda, bulutsiz osmon shu qadar yaqinki, siz qo'lingizni uzatib, bu ko'k rangga tegasiz. Uni bulutlar sudrab borganida, yer kulrang yumshoq va ayni paytda zich adyol bilan qoplanganga o'xshaydi. Sovuq qish qanchalik yaqin bo'lsa, kuz shunchalik sovuq yomg'irlar bilan yig'lab yuboradi va sovuq shamol bilan xo'rsinadi, bu sizni abadiylik haqida o'ylashga va biroz xafa bo'lishga undaydi. Yomg'irdan keyin tushgan barglar va so'lib qolgan o'tlarning hidi qoladi, bu burunni yoqimli qitiqlaydi va odam bu hid bilan qayta-qayta nafas olishni, uni eslab, kelgusi kuzgacha yodda saqlashni xohlaydi.

Men bahorning ko'nglini topdim,
 Uchirdi gul arg'imchoqlarda,
 Kuzning za'far libosini o'pdim,
 Zar yaproqlar terdim bog'larda

"Agar sen shoir esang va ruhingda qadim bobolarning navolari chalinib turgan esa, shuni kuyla! Agar turlanib borayotgan davr ruhi ruhingga singishib ketgan bo'lsa, unda izlan, yangi shakllar top." [3] Aynan mana shu fikrlarning davomi sifatida aytish mumkinki, ijodkor ijtimoiy dolzarb muammolarni yig'ishtirib qo'yib, o'z ko'ngil dunyosining kashfiga beriladi. Yilning bu vaqti shoira nazdida eng tirik palla! Darhaqiqat, kuz tabiatni ochib beradi, bu dunyoni butunlay boshqacha ranglarda ko'rsatadi – avval yorqin, suvli, keyin kulrang va zerikarli. O'zgaruvchan, bunday barqaror bo'lmagan kuz

yildan-yilga issiq yozni sovuq qishga aylantiradi va har safar ularning vidolashuviga sabab bo'ladi.

Jarangdor sukunat, sassiz hirgoyi, pokiza nafosat bor bo'lgan bu faslda kuzning chiroyiga maftun bo'lib qahrabo toshqinida oqib ketasan kishi. Shoira fikricha, kuz faslining har bir oyi o'zgacha, turli xususiyatga ega. Saratonning dami kesilgan, daryo irmog'i tiniq tortgan, "shakarangur", "kelin barmog'i" kabi uzumlar tokzorlarda tong sahada uziladigan avgust oyi Oydin Hojiyeva tasvirida quyidagicha: yoz fasli bog'larda chordona qurib dehqonlarni bog'larga mehmonga chorlaydi. Dehqonlar xayollarida o'z aksini ko'rib ko'nglidagi bir shaydo his osmonga tushadi. Erta tongda anjirlarning xushbo'y bargida durdonaday mayin shabnam dildiraydi, ayni shu pallada tog'liklarda, vodiy yonida salqin shamol gir aylanadi.

Saratonning dami kesilar,
 Tiniq tortar daryo irmog'i.
 Tokzorlarda sahar uzilar,
 "Shakarangur", "Kelin barmog'i". [4]

Oydin Hojiyeva she'rlarida insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etar ekan, shoir unda asrlar davomida shakllanib kelgan an'anaviy timsollar va badiiy tasvir vositalarini o'z fikr va mushohadalariga, falsafiy dunyoqarashiga tayanagan holda yangicha talqin qiladi. Adabiyotshunos olim U.To'ychiyev lirik qahramonning muhim belgilaridan biri sifatida "Lirik qahramon subyektivlik "Men" saltanati shohidir" [5] - , deya e'tirof etgan edi. Bu "Men" esa na faqat shoirning botiniga, balki o'quvchining ichki olamiga, ruhiyatiga ham dahldor hisoblanadi. Shuning uchun ham o'qilayotgan she'r bizning o'z tuyg'ularimiz, hissiy kechinmalarimizdek yangraydi. Uni o'zimiznikidek qabul qilamiz. Bu ijodkorning badiiy mahoratidan dalolat beradi. Daraxtlarning tepa shoxidagi ko'zni oladigan tillarang yaproqlar butun mehrini gul dudog'iga o'tqazgan insonga qalbdan tuproq tutadi. Qanotida oftob izlari qolgan zarg'aldoq ham uchib ketadi. Oltin boshloqlar ko'k toqida huddi sariq yulduz kabi chiqa boshlaydi. Kuz fasli kelin-kuyovning to'ydan keyingi "asal oyi"ga qiyos qilinadi. Baxti kulgan hur qizning sep anjomlari but, "asal oyi"ga ketishga shaylanaversin. Bo'lib o'tajak to'yga tabiat ham ota-ona kabi taraddud ko'radi.

Yuqoridagi she'rlarida tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni tuyg'ulardan mahrumlik deya e'tirof etadi. Oydin Hojiyevaning umr kuzagida bitilgan asarlarini o'qigan she'rxontashqi bir dunyoga emas, balki shoiraning ko'ngil bog'lariga sayohat qilganday bo'ladi. Shu bog'larning bahoriy manzara va quvonchlaridan ruhlanadi, kuz quchog'idagi holatlariga nigoh tashlab goh hazin, goh o'ychan, goh g'am - g'ussali xayollarga beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Oydin Hojiyeva. Ijodkorlar suhbat. Badiya. T.: "Sharq", 2007.
2. Hojiyeva Oydin. Nazokat. She'rlar, badialar – T.: "Sharq", 2010-yil. 40-bet
3. Ulug'bek Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati. – T.: Sharq. 2014. 65-bet
4. Түйчиев У. Бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – T.: «Шарқ», 2007. 486-bet
5. Hojiyeva Oydin. Shom shu'lalari. – T.: "Sharq", 2010-yil.

Dilnavoz Yusupova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori,
filologiya fanlari doktori

ALISHER NAVOIYNING "FIROQ" RADIFLI G'AZALLARI XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni", xususan, "G'aroyib us-sig'ar"dan o'rin olgan "firoq" radifli g'azallari tahlilga tortilgan bo'lib, maqola muallifi ushbu g'azallar shoirning yoshliuk lirikasiga xos deb hisoblaydi va fikrlarini mazkur g'azallarining dastlabki devonlarga kiritilganligi bilan asoslaydi. Uning fikriga ko'ra, bu g'azallar hasbi hol xarakterida bo'lib, ularda vasf etilgan firoq motivi shoirning yor-do'stlari, yaqin kishilari va ayni damda ona shahri Hirotidan ayriliqda yashagan davri bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: ishq, firoq, g'azal, devon, tashbeh, nido.

Annotation. The article analyzes the gazelles of Alisher Navoi included in «Khazain ul-maoni», especially in «Garaib us-sigar». The author of the article considers these verses typical of the poet's youthful lyrics and bases his opinion on the fact that these gazelles were included in the composition of the first divans. In his opinion, these gazelles are autobiographical in nature, and the motive of separation sung in them is associated with the time when the poet lived apart from his friends, loved ones and, at the same time, from his native city of Herat.

Key words: love, separation, gazel, divan, tashbih, exclamation.

Аннотация. В статье анализируются газели Алишера Навои включенные в «Хазайн ул-маони», особенно в «Гараиб ус-сигар». Автор статьи считает эти стихи типичными для юношеской лирики поэта и основывает свое мнение на том, что эти газели вошли в состав первых диванов. По его мнению, эти газели носят автобиографический характер, а воспетый в них мотив разлуки связан со временем, когда поэт жил в разлуке со своими друзьями, близкими людьми и одновременно с родным городом Гератом.

Ключевые слова: любовь, разлука, газель, диван, ташбих, восклицание.

Sharq musulmon adabiyotida ayriliq, ya'ni firoq mavzusidagi she'rlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu bejiz emas, albatta, zero, firoq tushunchasi Odam Ato va Momo Havoning bu olamga qadam qo'yishlari bilanoq real mohiyat kasb eta boshladi. Natijada ushbu mavzu Sharqdagi buyuk mutafakkirlar ijodining ajralmas qismiga aylandi. Birgina Jaloliddin Rumi asarlarini olib ko'raylik. Uning "Masnaviyi ma'naviy"sidan joy olgan "Naynoma"sidayoq firoqning butun ma'no-mohiyati o'z ifodasini topgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Buyuk tasavvuf nazariyotchisi Aziziddin Nasafiyning "Komil inson kitobi"da firoq majoziy ishqning ikkinchi martabasiga oid deb qaraladi. Shoir ishqqa ta'rif berar ekan, shunday yozadi: "Ishq bir o'tdirki, oshiq vujudiga tushar; bu o'tning makoni ko'ngildir. Ko'ngilga bu o't nazar yo'lidan kelar va ko'ngilda vatan tutar... Bu o'tning shu'lasini barcha a'zolarga yetib, tadrijiy ravishda oshiqning ichini kuydirib, pokiza va sof etadi. Oshiqning ko'ngili shunday nozik va latif bo'ladiki, nozikligidan ma'shuqning diydoriga chiday olmaydi. Ma'shuqning tajallisidan fano bo'lish xavfi tug'ilar. Muso alayhis-salom Haq taoloning diydorini istaganda bu maqomda edi. Shuning uchun, Haq taolo Men senga o'zimni ko'rsatmayman, demadi, balki buyurdikim: Lan taroniy, ya'ni meni ko'rolmaysan..."

Bu maqomda oshiq firoqni visoldan afzal biladi. Firoqdan ko'proq rohat va osoyishtalik topadi¹.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni" lirik kulliyotida "firoq" radifi asosida yozilgan uchta g'azal bor. Ulardan ikkitasi "G'aroyib us-sig'ar" devoniga, bitta-

si "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan. Dastlabki ikki g'azal yoshlik lirikasi mahsuli bo'lib, ularning "G'aroyib us-sig'ar" devonidan oldin "Oqqo'yunli muxlislar devoni"da ham uchrami shoir bu g'azallarni yigitlik davrida yaratganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, "Oqqo'yunli muxlislar devoni" Navoiyning 30 yoshgacha bo'lgan she'rlarini o'z ichiga oladi va undagi she'rlarning aksariyati shoir Samarqandda yashagan davrida yaratilgan. Bu hol bevosita shoirning o'z ona shahridan ayriliqda yashaganligi bilan bog'liq mavzuga alohida e'tibor qaratganligidan darak beradi. Boshqacha aytganda, mazkur g'azallarda asosiy urg'u qaratilgan firoq mavzusi shoirning yor-do'stlari, yaqin kishilari bilan birga ona-yuridan ayriliq damlarini ham o'z ichiga oladi.

Devondan o'rin olgan aslabki g'azal ayriliqda yurakbag'ri ezilgan, jismi notavon bo'lgan lirik qahramonning o'tli nidosi bilan boshlanadi:

*Vah, necha jismimni g'amdin notavon etkay firoq,
Notavon jismimg'a har dam qasdi jon etkay firoq.*

Baytdan-baytga tadrijiylik ortib boradi. Firoq lirik qahramonning joniga qasd qilib, bu jonni yana rasvoya jahon etadi, bunga ham qanoat etmasdan, rasvo bo'lgan jonni yuzta g'amu anduh o'qiga nishon qiladi, so'ng ushbu yuz o'qdan paydo bo'lgan jarohatni yashirin tarzda asta-sekin kuydira boshlaydi:

*Jonni rasvo aylagandin so'ng qanoat qilmayin
Yuz g'amu anduh xadangiga nishon etkay firoq.*

*Emdikim anduhu mehnat o'qig'a qildi nishon,
Har jarohat uzra yuz dog'i nihon etkay firoq.*

Ko'ngil bu azoblarga dosh berolmay, taslim bo'lish-ga moyil...

Beshinchi baytda lirik qahramon ko'ngilga murojaat qilib, uni bu dardu alamlarga yengilmaslikka, har qanday dardni mardonavor qabul qilishga chaqirar ekan, bu – firoq orqali taqdirning imtihoni ekanligini ta'kidlaydi:

*Ey ko'ngul, solma o'zungni dard ila mardona bo',
Bizni, shoyadkim, bu yanglig' imtihon etkay firoq.*

Maqta'dan avvalgi baytda bu fikr hikmat darajasiga ko'tariladi:

*Do'stdin istar rizo zinhori ani ko'rmakim,
Vasl qilg'ay komron yo notavon etkay firoq.*

Baytdagi mazmunga ko'ra, do'stning rizosini istagan kishi uchun visoldan baxtga erishish yoki ayriliqdan notavon bo'lish ahamiyatsizdir.

Xo'sh, baytda keltirilgan *do'st* kim? Ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy she'rlarida tasvirlangan yor yoki do'st alohida ob'ekt emas, balki bir qancha ma'no qatlamlarini o'zida aks ettiruvchi umumlashma obrazdir. Tahlil qilayotganimiz ushbu baytda ham do'st obrazi ayni paytda ham ona-yurt, ham Husayn Boyqaro (yoki shoirning boshqa do'stu ustozlari) orqali asl maqsad bo'lgan Yaratganni ifodalab kelmoqda. Vatanidan yoki yaqinlaridan ayriliqda yashagan shoir ertami-kechmi unga qaytishiga ishonadi, firoq uning ona-yurtga, do'stlariga bo'lgan muhabbatini zarracha pasaytira olmaydi. Va ayni paytda baytga Yaratganning roziliga erishishni istagan banda Undan keladigan har qanday sinovni, u xoh, visoldan keladigan baxt bo'lsin, xoh ayriliqdan keladigan notavonlik bo'lsin, mamnuniyat bilan kutib oladi, degan ma'no ham singdirilganligini ko'ramiz.

Maqta'da shoir **nido** san'ati vositasida o'ziga murojaat qilib, bag'ir qonidek may ichgilu, uning ta'sirida bexud bo'l, zero, firoqning bag'irni qon qiladigan darajadagi azobidan faqat Uning ishqiyu vasl umidi qutqara oladi, deb ta'kidlar ekan, so'zlar takrorini *tashbih* san'ati bilan uyg'unlashtirib, baytning lisoniy jozibasini orttirishga erishadi.

*Ich, Navoiy, may bag'ir qonidegu bexud yiqil,
Necha vasl ummididin bag'ringni qon etkay firoq.*

Devondan o'rin olgan ikkinchi g'azal esa quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Qon yoshim sorig' yuz uzra oshkor etti firoq,
Za'faronzorimni g'amdin lolazor etti firoq.*

Matla'dayoq kuchli mubolag'aviy tasvirga guvoh bo'lamiz. Oshiqning yuzi hijronu alam tufayli za'faron (sariq) tusga kirgan, firoq shiddati haddan oshgach, oshiq sariq yuzi uzra qonli ko'z yosh to'ka boshlaydi, bu ko'z yoshlar hatto uning za'faron o'sgandek tasavvur qoldiruvchi sariq yuzini lolazorga aylantiradi. Ma'lumki, za'faron sariq tus beruvchi xushbo'y o'simlik bo'lib, mumtoz adabiyotimizda odatda oshiqning g'amdan sarg'aygan yuziga nisbat beriladi. Bu o'rinda shoir za'faronzorning lolazorga aylanishi bilan bog'liq tashbihdan foydalanyaptiki, bu firoqning ta'sir kuchini ko'rsatishda betakror badiiy vosita sifatida xizmat qilgan.

Keyingi baytda tasvir yanada qiziqarli tus oladi: g'azalning lirik qahramoni firoqning uyiga kirgan edi, uning ko'z yoshlaridan paydo bo'lgan yuzlab gavharlarni firoq oshiqning oyog'i ostiga to'kib, go'yo unga ehtirof ko'rsatdi (Firoqning ustaligini qarangi, uning uyiga tashrif buyurgan mehmon uchun sochqini ham oshiqning o'zidan olib, yana uning o'ziga fido qilyapti). Baytda qo'llangan **tashxis** (jonlantirish) san'ati kitobxon ko'z oldida manzaraning yanada jonli chiqishini ta'minlagan:

*To firoq uyiga kirdim, vahki, ashkimdin edi,
Garchi yuz gavhar, ayog'img'a nisor etti firoq.*

Navbatdagi baytda tasvirlanishicha, aql nihoyat taqdiriga tan berib, sabr va toqatni ixtiyor qilmoqchi edi, lekin firoq yana uni bu holatidan beixtiyor qilib, o'z izmiga soldi:

*Dam-badam ohim chekarga sabr ila toqatni aql
Ixtiyor etti, vale beixtiyor etti firoq.*

Mumtoz adabiyotdagi tashbihga ko'ra, yorning labi – obi kavsar va oshiq bu lablardan obi hayot, ya'ni jon topmoqchi. Lekin firoq bunga yo'l bermayapti. Bu xuddi jon talvasasida yotgan kishining o'lim bilan olishuviga o'xshaydi.

*Jon taloshur elni marg andoqki aylar muztarib
Lablaring istar ko'ngulni beqaror etti firoq.*

Keyingi baytlarda tadrijiylik yana davom etadi. Oshiq bir vaqtlar "biz ishq iztiroblari ichra sobitmiz, ya'ni ishq g'ami bizni ohu fig'on qilishga majbur qilolmaydi" deb iddao qilgan edi, lekin firoq shiddati bu da'voni puchga chiqardi, ya'ni oshiqni el ichra sharmsor qildi:

*Deb eduk ishq anduhidin har dam afg'on qilmali,
Vahki, bu da'voda bizni sharmsor etti firoq.*

Firoq g'ami shunday ortdiki, endi oshiq uchun shodlik va xursandchilikdan nomu nishon qolmadi, chunki firoq g'am toshini olib, ko'ngilning ustiga yuz mingta mix

bilan g'amni shunday qoqib qo'yidiki, endi bu ko'ngilga shodligu xursandchilik sig'maydi. Yana **tashxis** san'ati vositasida firoqning jonlantirilishi kitobxon ko'z o'ngida ajoyib bir lavhani gavdalantiradi.

Firoqdan yozg'irish kayfiyati ustuvor bo'lgan g'azal mazmuni maqta'ga kelganda birdan boshqacha tus oladi: shoir o'z-o'ziga murojaat qilib, tez orada firoq chekinib, visol ustuvor bo'ladigan kunlar kelishini, shunda ko'ngilda firoq alamidan qolgan dog'larni yodgorlik sifatida kulib eslashini umidvorlik bilan ta'kidlaydi:

*Ey Navoiy, vasl aro bo'lg'ayki, boqib kulgamen
Dog'larnikim, ko'ngulga yodgor etti firoq.*

Bu umidvorlik hissi g'azalning so'nggi baytiga kelganda real voqyelik bilan uyg'unlashadi. Ya'ni ushbu g'azal uning lirik qahramoni o'zi uchun behad aziz bo'lgan kishi (yori, do'sti yoxud zamona hukmdori)dan ayriliqda ekanligida yozilgan bo'lib, shoir tez orada u bilan diydorlashuviga ishonadi. Zero, baytda aytilishi-cha, firoq shoirga dushmanlik qilib, ma'lum muddat

uning Jamshiddek qudratli podshoh vaslidan bahramand bo'lishiga to'sqinlik qildi:

*Demangiz netti firoq oxirki bo'ldung dushmani,
Man'i vasli xusravi Jam iqtidor etti firoq.*

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'azalning shoir ixlosmandlari tomonidan tartib berilgan "Oqquyunli muxlislar devoni"dan o'rin olganligi (mazkur devon 1471 yilda tuzilgan), keyinchalik o'zining ilk rasmiy devoni "Badoyi' ul-bidoya"ga kiritilganligini hisobga olsak, uning 1471 yildan avvalroq, shoir Samarqandda yashagan davrlarida yaratilganligi bilan bog'liq taxminni yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar"dan o'rin olgan "firoq" radifli g'azallari hasbi hol xarakterida bo'lib, unda vasf etilgan firoq motivi shoirning yor-do'stlari, yaqin kishilari va ayni damda ona shahri Hirotdan ayriliqda yashagan davrlarini o'zida aks ettiradi.

1. Азизиддин Насафий. Комил инсон. — Т.: F.Фулом номидаги НМИУ, 2021. — Б. 96-97.

Diyora Abdujalilova
mustaqil tadqiqotchi

ALISHER NAVOIY VA YAHYOBAY TOSHLIJALI: ILK DOSTONLARINING QIYOSI

Sharq Musulmon adabiyoti tarixida xamsachilik an'anasi alohida o'rin egallaydi. Vujudga kelish va shakllanish davriga ko'ra XII asrga mansub bo'lgan bu adabiy hodisa sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab naziralar — javob dostonlariga ega bo'ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib «Xamsa» yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir. U 1170 — 1204-yillar oralig'ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib «Panj ganj» («Besh xazina») deb atala boshlandi va keyinchalik «Xamsa» nomi bilan mashhur bo'ldi¹.

An'anani davom ettirgan holda bir necha asrlar davomida yuzlab shoirlar "Xamsa" yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Lekin mashhur xamsanavislar safidan joy olish barchaga ham nasib etmagan. Adabiyotshunoslikda mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Usmonli turklar adabiyotida XVI-XVII asrlarda "Xamsa" nomi ostida masnaviy yozgan shoirlarning soni o'n oltitaga yetadi². Lekin ularning hammasi ham o'z asarlarini mukammal beshlik holiga keltirishmagan yoki nomi ma'lum bo'lgan asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Onado'lida masnaviy yozish va fors shoiri Nizomiydan ilhom olish

Navoiydan ancha avval boshlangan bo'lsa-da, ko'pgina shoirlarga masnaviy majmuasini yozishlariga usmoniy imperiyasida ko'p o'qilgan Navoiyning "Xamsa"si turtki bo'lgan, degan ehtimol ko'proq. Levend Turkiya kutubxonalarida Navoiy "Xamsa"sining o'n bitta to'liq (ikkitasi kulliyotlar tarkibida), hamda dostonlardan biri yoki birdan ortig'i bor bo'lgan yana yettita qo'lyozma mavjudligini qayd etgan³.

Xamsashunoslikda Usmonli turklar adabiyotida beshlik yaratgan shoirlar sifatida quyidagilar eslanadi: Hamdiy, Behishtiy, Yahyobey Toshlijali, Nav'izoda Atoyi, Fayziy, Subhizoda Fayzulloh, Chokariy, Ahmad Rizvon, Hojatiy, Jaliliy, Muidiy, Fathulloh Orif Chalabiy, Fazliy, Lome'iy va b.

Alisher Navoiydan so'ng unga ergashib, turkiy tilda "Xamsa" yozgan shoirlardan biri Toshlijali Yahyobeydir. U XVI asr Usmonlilar davrida yashab ijod etgan shoir, devon va "Xamsa" sohibi hisoblanadi. Yahyobey 1498-yilda tug'ilgan (Ba'zi manbalarda tug'ilgan yili no-ma'lum deb keltiriladi)⁴.

U o'z asarlarida Sangiston, Toshli degan joydan ekanligini e'tirof etadi. Toshlijali taxallusi ham shundan kelib chiqqan.

*Arnavud"unm hassları yegleri
Nesl-i kadimüm Dukakin beqleri*

*Mülk-i Arab"dan ki firar itdiler
Taslu vilayetde karar itdiler.*

Bolaligida Usmonlilar davlatiga qarashli harbiy bo'linma – Yanicharlar bo'linmasiga olib kelinadi. Harbiy bo'linmada o'zining ilmga bo'lgan ishtiyoqi bilan bo'linma kotibi Shahobiddin Beyning e'tiboriga tushadi va ba'zi majburiyatlardan ozod bo'ladi. Oshiq Chalabiy so'zlariga ko'ra, u Kamolposhshozoda, Fenarizoda Muhiddin kabi olim va shoirlar mailislarida qatnashadi.

Ijod bilan birga jangovorlikni ham o'zida tarbiyalab boradi. Toshlijali Yahyobey Sulton Sulaymon taxtga o'tirganidan so'ng ijodkor sifatida ham nom qozona boshlaydi. Rustam poshoning qanoti ostida saroyda xizmat qila boshlaydi. Manbalarda uning shahzoda Mustafoning yaqin do'sti bo'lgani, sanjak (Usmonlilar davrida shahzodalar ma'lum yoshga yetgach ularga biror viloyat boshqaruvi topshirilgan) boshqaruvida maslahatchisi bo'lgani haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Yahyobey Toshlijalining bizgacha bir devoni, devon-
dan o'rin olgan Istanbul haqidagi ikkita manzumasi va
besh dostonidan iborat "Xamsa"si yetib kelgan. Latifiy
bulardan tashqari, shoirning "Noz-u niyoz" nomli bir
asari ham borligini aytib o'tadi⁵. Lekin bu asar hozirg-
cha topilmagan. Shuningdek, adabiyotshunoslikda
Toshlijalining 2000 baytli "Sulaymonnoma" hamda
Payg'ambar (s.a.v) mo'jizalari haqidagi asarlari ham
mavjudligi to'g'risida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Lekni
shoirning o'zi "Gulshan ul-anvor" dostonining "Xotimat
ul-kitob" qismi va devonining debochasida Sulton
Sulaymon homiyligida "Xamsa" yozganini va uni uni
Sultonga baq'ishlaganini aytib o'tadi.

Toshliji devoniga uch marta tartib berib, har safar unga muhim o'zgartirishlar kiritgan. Mehmed Chavusho'g'lu tomonidan Yahyobey devonining olti nusxasi solishtirilib, ilmiy-tanqidiy matni nashr etilgan⁶.

Yahyobey devon sohibi bo'lsa-da, uning turkiy adabiyotdagi asosiy o'rnini "Xamsa" belgilab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Toshlijalining besh dostonidan iborat "Xamsa"si "Gulshan ul-anvor", "Shoh-u gado", "Ganjinai roz", "Yusuf va Zulayho" va "Usulnoma" dostonlaridan iborat.

Adabiyotshunoslikda Toshlijalining “Gulshan ul-anvor”, “Ganjinaí roz” va “Usulnoma” dostonlarining har uchasi ham Nizomiy “Maxzan ul-asror”iga javob tarzida vujudga kelgan degan qarash bor⁷. Lekin uning “Gulshan ul-anvor” dostoni Alisher Navoiy ta’sirida, “Ganjinaí roz” dostoni esa Abdurahmon Jomiyning “Subhat ul-abror” dostoni ta’sirida yozilgan. Dostonning kompozitsion qurilishi (Jomiy dostoni singari 40 maqolatdan iborat ekanligi) va unda qo’llanilgan she’riy o’lchov ham fikrimizni tasdiqlaydi. Muallif ushbu dostonida Nizomiy va Dehlaviylar qatorida Abdurahmon

Jomiyning nomini ham alohida ehtirom bilan yodga oladi:

*Jarashur Chamiji yerbabi nizam,
Olsa zerrin naleh ol baq'a mudam.*

Shoir ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, u nafaqat "Xamsa"sida, balki g'azallarida ham sodda va xalqona uslubdan foydalangan. Xamsanavislikda Yahyobey o'zidan avval yaratilgan "Xamsa"lardan farqli o'laroq, o'z "Xamsa"sini yangi mavzular, voqealar va uslub bilan boyitgan. O'z asarlari debochasida shoir buni alohida ta'kidlab o'tadi.

Yahyobey qalami o'tkir ijodkor, qilichi keskir sarkarda bo'lgan. U devoni hamda masnaviylarida o'zi haqida so'z yuritarkan, jasurligi va janglarda ko'rsatgan qahramonliklarini faxr bilan shunday ta'riflaydi:

*İki hüner verdi bana Zü'l-celâl
Biri şecaât, biri fazl u kemâl ⁸.*

Toshlijali o'zining "Gulshan ul-anvor" dostonidan olingan ushbu baytda Alloh taolo tomonidan unga kuch-qudrat hamda zehn berilganini faxr bilan ta'kidlaydi. Shoir o'z asarlarida, xususan, qasida, musammakat va "Xamsa"sida askarlik va shoirlik faoliyati haqida juda ko'plab ma'lumotlarni keltiradi.

Yahyobey Toshlijali Xayoliy Bey bilan birgalikda Sulton Sulaymon Qonuniyning Bag'dod yurishida qatnashgan va mashhur ozar shoiri Fuzuliy bilan uchrashgan. Toshlijali "Qilich va qalam sohibi" unvonini olib, harbiy shoir sifatida taniladi.

Bizga ma'lumki, Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida eng ishonchli va asosli ma'lumotlar, albatta, o'zining asarlarida keltirilgan. Navoiy garchi o'z tarjimai holini maxsus yozib qoldirmagan bo'lsa-da, lekin shoirning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, "Vaqfiya", "Munshaot" asarlarida ulug' shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, "Majolis un-nafois", "Xamsa", "Munjojt", "Xazoyin ul-maoniy" kabi asarlarida shaxsiy hayoti, "Muhokamat ul-lug'atayn", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba'zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog'liq ma'lumotlarni uchratami9.

Alisher Navoiyning shaxsiyati, ijodiy faoliyati o'zbek adabiyotshunosligida yetarlicha o'rganilgani uchun biz bu o'rinda asosan ikki ijodkorning ijtimoiy faoliyatini muayyan tarzda qiyoslaymiz. Agar ularning hayot yo'liga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular orasida o'zaro mushtarak jihatlarni kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Yuqorida biz Yahyobeyning harbiy sohada ham muayyan tarzda muvaffaqiyatga erishganligi haqida gapirdik. Bizda, garchi, Alisher Navoiyning harbiy mahorati bilan bog'liq jihati chuqur

o'rganilmagan bo'lsa ham, Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida quyidagi voqea keltirilganiga guvoh bo'lamiz: Alisher Navoiy podshoh Husayn Boyqaro saroyida faoliyat yuritgan paytda nafaqat podshohning yaqin maslahatchisi, balki harbiy yurishlarda ham yaqin hamrohi bo'lgan. Xususan, uning Mirzo Yodgorni yengganligi bilan bog'liq voqea shoirning buyuk harbiy mahoratidan dalolat bersa, asarda keltirilgan Mavlono Soni'iy bilan bog'liq hikoyat uning adolatsizlikka qarshi murosasiz davlat arbobi ekanligini ham ko'rsatadi. Bu haqda Xondamir shunday yozadi: "Zolim kishilardan bo'lgan va bir qancha vaqt a'lo hazrat saroyida vazirlik kabi yuqori darajaga yetishgan Mavlono Soni'iy boshiga katta salla o'rab yurardi.

Kunlardan bir kuni uning noma'qul ishlari olam sohibqironining quyoshdek nur sochuvchi ko'ngliga ma'lum bo'lgach, undan g'azablanib, uning boshidan sallasini olib tashlashlarini buyurdilar. Shunda o'sha yerda bo'lgan tengsiz Amir iqboli baland podshohga yuzlanib, quyidagi misrani tilga oldilar:

Misra:

*Chu bori sar sabuk kardi,
sabuk kun bori gardan ham.*

(Mazmuni: Boshidagi yukni yengillatganekansan, endi bo'ynidagi yukni ham yengillatgin, ya'ni, sallasini olib tashladimgi, endi kallasini ham olib tashla)¹⁰.

Manbalarda Yahyobeyning Sulton Sulaymon davrida adolatsizlikka qarshi ko'plab she'rlar yozganligi, bu borada murosasiz bo'lganligi haqida ko'plab ma'lumotlar bor. Ayniqsa, Sulton Sulaymon og'li Shahzoda Mustafoni qatl ettirganidan so'ng yozgan marsiyasi buning yaqqol isbotidir. Marsiyadan parcha keltiramiz:

*Meded meded bu cihanim yikildi bir yanı
Ecel celâîleri aldı Mustafa Hânı*

*Tohındı mihr-i cemâli bozuldı erkânı
Vebale koydılar âl ile Al-i Osmânı*

*Geçerler idi geçende o merd-i meydânı
Felek o canibe döndürdi şâh-ı devrânı*

*Yalancımın kun bühtanı bugz-ı pinhânı
Akıtdı yaşumımı yakdı nâr-ı hicrânı*

*Cinayet etmedi cânî gibi anın cânı
Boguldı seyl-i belâya tağıldı erkânı*

Har ikkala ijodkor o'z ijodiy faoliyatlarini bevosita lirik she'rlar yozishdan boshlashgan. Va ikkalasining ham devon sohibi bo'lganligi, va keyinroq, muayyan tajribaga ega bo'lgandan keyin "Xamsa" yozishga kirishganligi ham ularning ijodiy faoliyatida ham umumiy o'xshashliklar borligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi birinchi doston – "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi") 1483-yilda yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat bo'lib, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shundan muqaddima 21 bobni o'z ichiga oladi.

Asar muqaddimasi "Bismillahir rohmanir rohim" oyatining tasvifi bilan boshlanib, Allohga hamd, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga na't bilan davom etadi. 12-bob salaflar haqida, 13-bob Abdurahmon Jomiy madhiga bag'ishlanadi. Dostonning 14-15 boblari so'z ta'rifiga bag'ishlangan. Husayn Boyqaro madhiga bag'ishlangan 16-bobdan so'ng, "Ko'ngil ta'rifiga" bag'ishlangan bob keltiriladi.

Muqaddimaning 18-20 boblari hayrat ta'rifidir. Alisher Navoiy doston muqaddimasining so'nggi bobini Naqshband Xoja Ubaydulloh Ahror madhlariga bag'ishlaydi.

22-bobdan dostonning asosiy boblari boshlanadi. Asosiy qism maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o'z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon qiladi, so'ngra shu mavzuga mos ibratli hikoya keltiradi. Maqolatlarning barchasi ularga ilova qilingan hikoyatlar ham bir-biri bilan izchil bog'langan, mazmunan biri ikkinchisini davom ettiradi, to'ldiradi, rivojlantiradi.

Toshlijali Yahyobey "Xamsa"sining "Gulshan ul-anvor" dostoni 98 bob, 2914 baytdan iborat bo'lib, tasavvufiy yo'nalishda yozilgan va "Xamsa"ning boshqa dostonlari kabi zamona hukmdori Sulton Sulaymonga bag'ishlangan. Masnaviy shaklida bitilganligi, asosiy bo'limlardan keyin keladigan maqolat, hikoyat va qissalari bilan Nizomiyning "Maxzan ul-asror" turidagi asarlardan bo'lsa-da, tuzilishi jihatidan ulardan farq qiladi. Ushbu asarlarda ko'rilgan maqolatdan keyin birinchi bo'lib aytilgan mavzu bilan bog'liq hikoya shaklidagi kompozitsiya tartibi "Gulshan ul-anvor"da ko'rinmaydi.

Asar muqaddima, 4 asosiy fasl, maqolat, hikoyat va tamsillardan iborat.

Asosiy qism to'rt fasl, aziz avliolarning tasnifi va darajalari shaklida tartibga solinadi. Ushbu fasllarlar hikoyalar, tamsil (hikoyaga mos hayotiy misollar) va tanbeh, ya'ni nasihatlar bilan boyitilgan.

Birinchi faslda sultonlar qanday bo'lishi kerakligi bayon qilinadi. Johillarni tarbiyalash, johillarga nasihat qilish maqsadida yozilgan ikkinchi bobda mavzu yanada kengayadi. Bu bo'limda ilm va ibodatning ahamiyati, haromdan saqlanish va haqiqiy shayx qanday bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Noqonuniy munosabatlar, yomon axloq va soxta shayxlar tanqid qilinadi.

Uchinchi bobda o'tkinchi dunyo lazzatlari odamlarni aldamasligi kerakligi haqida yozilgan. To'rtinchi fasl qanoat haqida bo'lib, u inson iymonini mustahkamlashi haqida so'z boradi. Bu bobda mavzu kengayib, tarqalib ketganligi, mavzuning ma'lum bir tizimli davom etma-

ganligi diqqatga sazovordir. To'rtinchi bobda qanoat, toat, iztirob, tafakkur, jamoatdagi ibodatning ahamiyati, qalb pokligi va tush ta'biri haqida so'z boradi. Shoir bu boblarni hikoyalar, tasvirlar va nasihatlar bilan boyitgan.

To'rtinchi fasldan so'ng avliyolar tasniflangan boshqa bir bob keladi. Bob to'rtta alohida sarlavhadan iborat bo'lib, avliyolarning qismlarini tavsiflaydi. Yuqorida zikr etilgan avliyolarning har bir guruhi to'rt xalifaning biriga ergashganligini ta'kidlagan shoir, ularning barchasining yo'li Hz. Muhammadning oldiga borganini aytadi.

Avliyolarni yetti darajaga ajratgan Yahyo bu darajalarni hikoyatlar bilan tushuntirib, boyitadi. Asar murojaatida masnaviyni go'zalligi va o'ziga xosligini ta'kidlagan shoir boshqa masnaviylarda bo'lgani kabi yaxshi xattotni ham ulug'laydi, johil xattotni shafqatsizlarcha tanqid qiladi.

Dostonlardagi muqaddimaviy boblarning qiyosiy tahlili ikki ijodkor g'oyaviy va badiiy niyatining mohiyatini anglashda muhim o'rin tutadi. Zero, "Xamsa" dostonlaridagi muqaddimalar voqelikka shunchaki an'anaviy kirish bo'lmay, balki dostonlar mundariyasi uchun ochiqch vazifasini ham o'taydi. Shu ma'noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e'tibor berish dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma'nolarni ochishga yordam beradi".¹¹

"Hayrat ul-abror" dostonining birinchi bobi «Bismillahir rohmahir rohim» («Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman») oyatining shoirona talqiniga bag'ishlanganligi uchun «basmala bobi» deb ham ataladi. Ushbu bob bilan bog'liq nazariy talqinlar o'zbek adabiyotshunoslari: A.Rustamiy, H.Karomatov, R.Vohidov, M.Muhiddinov, M.Imomnazarov, O.Davlatovlarning tadqiqotlarida uchraydi¹².

Bu bob nafaqat «Hayrat ul-abror» uchun, balki, umuman, «Xamsa» uchun ham kirish vazifasini o'taydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlaning uchratmaymiz.

Yahyobey Toshlijalining ikki ming to'qqiz yuz o'n to'rt baytdan iborat bo'lgan dostoni muqaddimasi esa uchta basmala, uchta hamd, uchta munajat hamda biri Me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan uchta Na't, Sulton Sulaymonga bag'ishlangan maqto'v qismi hamda asarning yozish sabablaridan iborat.

Alisher Navoiy basmala bobining dastlabki 12 baytini «bismilloh» oyatining umumiy tavsifiga bag'ishlaydi: oyat o'z shakli va mohiyatiga ko'ra butun Borliqning nizomini ushlab turuvchi «jahon rishtasi», tiriklik asosi bo'lmish «jon rishtasi», abadiylik xazinasiga eltuvchi sinoatli tasbih, ham dunyo, ham oxirat saodatini sayd etuvchi arqon, obihayot oquvchi ariq, Arshi a'loni yorituvchi qandilga o'xshatiladi. Keyingi baytlarda vahdat (Birlik, Alloh taoloning Bir-u Borligi) xazinasiga eltuvchi yo'l sifatida ta'riflangan «bismilloh»dagi har bir harfga ikki toifa – «ahli qabul» (qabul etganlar) va «ahli rad» (inkor qilganlar) uchun alohida-alohida ma'no yuklatiladi. Dastlab rad etuvchilarga to'xtalinar ekan, ushbu jumladagi har bir harfning bu toifa kishilarini jazolantirishga

xizmat qildirilganligini ko'ramiz. Xususan, «س» – «sin» harfi haqida gapirilganda uning shakli nahang balig'in-ing umurtqa suyagidagi arradek bo'lib, rad etuvchilar uchun ofatdek; «م» – «mim» harfi ilon nafasidek o't sochib, yo'l boshida og'zini ochgan holda yotadi degan tashbehlardan foydalaniladi. Shu tariqa Navoiy ushbu jumladagi qolgan harflarni ham mazkur maqsadga xizmat qildiradi va kitobat (harf) san'atining betakror namunasini yaratadi.

Ikkinchi toifa, ya'ni qabul qiluvchilarga to'xtalangan-da endi bu harflarning ijobiy ma'no kasb etishini kuzatamiz. Xususan, «س» «sin» harfi endi salomatlik yo'lining zinasiga o'xshatilsa, «م» – «mim» harfi maqsad manzili-dagi buloq boshiga nisbat berilganligini ko'rish mumkin. Bularning barchasida Navoiyning yuksak badiiy salohiyati namoyon bo'ladi.

Toshlijali dostonida esa Navoiy boshlab bergan bu usul yanada rivojlantirilib, dostonning dastlabki uch bobi «basmala»ga bag'ishlangan, boshqacha aytganda, unda «bismilloh» oyatining kitobat san'ati asosidagi talqini 3 ta bobda alohida-alohida davom etadi. Toshlijali Yahyo ham «Gulshan ul-anvor» dostonini «Bismillahir rohmahir rohim» oyatini badiiy talqin qilish bilan boshlaydi:

Bismillahir rahmanir rahim
Kafle-i ilmi alim ü hakim

Dostonidagi «sin» harfi bilan bog'liq talqinga e'tibor qaratsak. Navoiyda:

«Sin»i salomat yo'lining ziynasi,
Balki saodat yuzi oyinasi.

Toshlijalida:

Bası beka alemler ser-defteri
Sıni selamet ilinün serveri

Basmalarning o'zi va uni tashkil etuvchi harflar va motivlar bilan bog'liq o'xshashliklar ham talaygina. «Ha» saxovat eshigining halqasiga, «ra»lari jazba yetgan solikka, «nun» harfini kavsar suvi to'lgan qadahga o'xshatiladi. Shoir uning nuqtasini Ka'baning Hajar ul-avsad toshiga qiyoslaydi. Shoir ikkinchi va uchinchi basmalada ham go'zal o'xshatishlar bilan davom etadi.

Ikkinchi basmala:

Bismillahir rahmanir rahim
Serv-i gülistan-ı kelam-ı kadim.

Uchinchi basmala:

Bismillahir rahmanir rahim
Sünbül-i gülzar-ı kelam-ı kadim

kabi baytlar bilan boshlanadi.

Dostonning ikkinchi bobidan boshlab Navoiy «Xamsa»sining yana bir o'ziga xos jihatiga duch kelamiz. Navoiygacha yozilgan «Xamsa»larda boblarga alohida sarlavha qo'yilmagan. «Hayrat ul-abror»ning ikkinchi bobidan boshlab Navoiy saj'ning go'zal namunasi bo'lmish jumlarlar orqali bobning umumiy mazmun-mohiyatini ochib beruvchi nasriy sarlavhalardan foydalangani. Shoir sarlavhalar tuzishda hamisha ham bir xil andozadan kelib chiqmagan: zarur paytlarda murakkab shakllarni qo'llagan, ayrim o'rinlarda oddiy ifoda usullaridan foydalanish bilan cheklangan. Aynan shu holatni «Gulshan ul-anvor»da ham uchratamiz. Masalan, dostonning yozilish sabablari bilan bog'liq bob sarlavhasi quyidagicha: *“Ahbar-i ahyar-i ulu'l-elbab ve izhar-i i' tizar-i sahibu'l-kitab”*. Aynan shu bobda Navoiyga quyidagicha ta'rif beriladi:

*Mjr Nevayj gul-i bj-hardur
Hamsesi bir nafe-i Tatar'dur
Sözleridür işk odunun sarsari
Her biri bahr-i şazelün gevheri
Gerçi şakl oldi dili zer gibi
Kıymetinün keşreti gevher gibi.
Vasf idemem zat-ı hıredmendini
Ayn-ı acem görmedi manendini.*

Shu tariqa har ikkala doston muqaddimasi hamd, na't, o'zi ergashgan shayx madhi, o'zidan avval «Xamsa» yozgan shoirlarga bag'ishlangan boblar bilan davom etadi. «Hayrat ul-abror» dostoni muqaddimasi 21 bobni tashkil etsa, «Gulshan ul-anvor»da muqaddima 19 bobni tashkil etadi.

Xamsachilik tarixida doston yozgan deyarli har bir ijodkor o'zi ergashgan shayx haqida alohida bob ajratadi. Undan so'ng shayxlar, ularning darajalari haqida dostonlarida to'xtalib o'tadi.

Tadqiqotimizda Alisher Navoiy hamda Toshlijali Yahyobey dostonlarida kelgan shayxlar haqida so'z boradi. Avvalo har ikkala dostonida ham shayxlar qanday bo'lishi haqida yozadi va shayxlarni tasniflab chiqadi.

«Hayrat ul-abror»dagi hikoyatlarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, bizni dastavval orifona mazmundagi hikoyatlar, ya'ni so'fiylar hayotidan olingan va tasavvuf g'oyalari aks etgan hikoyatlar qiziqtiradi.

«Hayrat ul-abror»da jami 12 ta shayx tarixiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonidagi Ibrohim Adham bilan bog'liq Ibrohim Adhamning Ka'baga namoz o'qish bilan borgani va Robiyai Adviyaga esa Ka'baning o'zi unga muhtoj bo'lib kelgani haqidagi hikoyat keltiriladi:

*Robiya dedi anga: “Ogoh bo'l,
Kim necha yil bodiyada borchaya yo'l,*

*Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.*

*Sanga samar berdi namozu riyo,
Bizga bu bar berdi niyozu fano”.*

VIII-XI asrlarda Robiya Adviya, Mansur Halloj singari ulug' so'fiylar ijodi bilan boshlanganini ta'kidlaydi. Ibrohim Adham Xudoga xizmatning yo'li deb namoz va ibodatga beriladi. Robiya Adviya esa niyozmand, ya'ni u oshiq, yonib-kuyib faqat Xudoni sevgan, u Alloh ishqidan na o'zini, na olamni, na nomozni, na ibodatni bilardi. Navoiy mana shunday oshiqona sadoqatni zo-hiriy toat-ibodatdan ustun qo'ygan. Bu bilan Navoiyni islom dinining mohiyatini so'fiyona ruhda idrok etgan.

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonidagi Ibrohim Adham bilan bog'liq Ibrohim Adhamning Ka'baga namoz o'qish bilan borgani va Robiyai Adviyaga esa Ka'baning o'zi unga muhtoj bo'lib kelgani haqidagi hikoyat keltiriladi.

Yahyobey Toshlijali «Gulshan ul-anvor» dostonida islom shartlari, ibodat va islom masalalariga alohida o'rin ajratadi. Buni dostonning har bir bobida ko'rishimiz mumkin. Dostondan o'rin olgan Ibrohim Adham bilan bog'liq hikoyatda Ibrohim Adhamning oxiratdan, qiyomatdan qo'rqqani va taqvo yo'liga kirgani haqida hikoya qilinadi.

Ibrohim Adham bir kechada shon-shuhratini oshirish uchun katta ziyofat uyushtiradi.

*li gözine žahiri vıran olan
Batını gencıne-i yezdan olan*

*Mertebe-i saltanatından geçen
Gün gibi şevk ile velayet açan*

*şahlarun alemleri vü azamı
Kutblarun muhteremi edhemi*

*Bir gıce bir alj ziyafet ider
Begleri dıvanına davet ider*

*Came-i fahirlerini giydi hep
Zıneti oldı aceb-ender-aceb*

*Yani bu oldı şaraı niyyeti
şayi ola Şöhret ile Şevketi*

Mehmonlar devonda uni kutib o'tirgan chog'ida sul-tonning yuziga ari nish uradi. Yuz-ko'zlari shishib, bo'rtib turgan sulton shu holatda devonga keladi.

*Bir eşek arısı yüzini sokar
Yüzi şişer akli şaşar küp düşer
Yaş tulumı gibi kabarur yüzi
Ayı ödine döner iki gözi*

*şişmez idi böyle şurür itmese
Daireden taşra mürür itmese*

*Yüzi havalandı mişal-i habab
Aşladı ah eyledi itdi hicab*

*Kılmasa dünyası ile iftihar
Bozmazdı sūratını rüzgar*

Devonda shovqin ko'tariladi va yig'ilganlar sultonga nima bo'lganini so'raydi. Sulton ularga aridan yengilgan kishi dunyo sultoni bo'la olmaydi, deb javob beradi. U saltanatdan voz kechib, butun mulkini xalqqa taqsimlaydi. Faqirlik yo'lini afzal ko'rgan sulton mo'jizalar ko'rsata boshlaydi.

*Didi ki hiç ola mı şah-ı cihan
Bir eşek arısına maşlūb olan*

*Anmanuz ol padşehūn şevketin
Bir eşek arısı boza sūretin*

*Mail olup fakr u fenadan yana
şahluşından geçüp oldı geda*

*Mamelekin eyledi halka ata
Kıldı abasını kaba-yi beka*

*Geldi ana keşf u keramat-ı Hü
İtdi heyūlasını mirōat-ı Hü*

*Ehl-i tarikat ki güzer itdiler
Ayn-ı tettebbula naẓar itdiler*

*Bir elem-i aleme bulsa vusūl
Anı bilür kim neden olmişdur ol*

*Kendüyi anlar bilür idrak ider
Mana yüzi haōilini çak ider*

Mazhab ahli har bir narsaga uning mohiyatini to'liq anglagan holda qarashini ta'kidlagan Yahyobey Toshlijali dunyoni qadrlash kerak emas deb hisoblaydi.

Demak, umrini oxirini so'filylikda o'tkazgan Toshlijali Yahyobey o'z dostonida shayxlar va avliyolar uchun alohida bob ajratgani bejiz emas.

Dostonda shoir vahdati vujud, a'yan-i sobit, haqiqat-i Muhammediya, ilohiy ishq haqida so'z yuritadi. Dostonda mavqeyi koinot bo'lgan inson Zot, so'filylik odoblari, komil murshid, nafs uchun kurash, ba'zi tasavvufiy atamalar va mashhur mutasavvuflar, valiylik darajalari haqida so'z boradi.

Dostonlardagi shayxlar timsolini quyidagi guruhlar-ga bo'lish mumkin: a) dostonning muqaddimasida zikr etilgan shayxlar; b) dostonning asosiy qismiga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlar qismida tasvirlangan shayxlar. "Gulshan ul-anvor" dostonida zikri keltirilgan shayxlarning 4 tasi tarixiy shaxslar bo'lib, ular Muhammad Dede, Ibrohim Adham, Abdulloh Ansoriy, Jaloliddin Rumiylardir. "Hayrat ul-abror"da esa jami 12 ta shayx tarixiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Har ikkala dostonda No'shiravoni Odil, Ibrohim Adham, Abdulloh Ansoriy bilan bog'liq hikoyatlar mavjud. Alisher Navoiy dostonida No'shiravoni Odil haqidagi hikoyat adab bilan bog'liq tarzda talqin qilingan va No'shiravonning hali podshohlik taxtiga o'tirmagan, ya'ni shahzodalik davrini o'z ichiga olsa, Toshlijali dostonida No'shiravoni Odil haqidagi hikoyat qahramonning podshohlik davriga mansub. Toshlijali No'shiravon timsoli orqali podshoh qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligini uqtiradi va mamlakat aholisi uchun No'shiravonni namuna sifatida ko'rsatadi.

"Hayrat ul-abror" dostonida shayx Abdulloh Asoriy haqidagi hikoyatda ibodatni do'zaxdan qutulish yo jannatga kirish uchun emas, balki Haq taolo buyrug'i-ga so'zsiz amal qilish deb bilish lozimligi to'g'risida so'z borsa, "Gulshan ul-anvor" dostonida keltirilgan Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoyatda ota-o'g'il munosabatlari tarbiya va odob masalalariga bog'liq tarzda talqin qilingan.

Alisher Navoiy shayxlar bilan bog'liq nazariy masalalarni dostonning maqolalalar qismida bayon qiladi. Yahyobey Toshlijali esa dostonning so'nggi faslida valiylik bilan bog'liq darajalarni keltirib, ularni 7 ta deb ko'rsatadi

1. Bu haqda qarang: Алиев Г. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. — М.: Наука, 1985.
2. Levend A.S. Ali Şir Nevai: hayatı, sanatı va şahsiyeti. — Ankara, 1965 Levend A.S. Ali Şir Nevai: hayatı, sanatı va şahsiyeti. — Ankara, 1965; Араслы Н.Г. Низами и турецкая литература. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Баку, 1969/
3. Levend A.S. Ali Şir Nevai: hayatı, sanatı va şahsiyeti. — Ankara, 1965.
4. Ислом энциклопедияси. — Истанбул., 2011. — 156-157 б
5. Latîfî. Tezkiretû's-şu'ara ve tefsiratü'n-nuzamâ, Haz. Ridvan Cânîm, Ankara, 2000. — S.235.
6. ISLÖM ANS., 1997, C.13. 345-bet)
7. Arasly N. Nizami va turk edabyati. — Bakı: Elm, 1980. — S. 91.
8. Bu va bundan keying iqtiboslar quyidagi manbadan olinadi: Taşlıcalı Yahya Bey. Gulsen ul-envar. — Istanbul, 2016.
9. Хондамир Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин. Мақорим ул-ахлоқ (Яхши хулқлар) / Форсчадан К.Раҳимов таржимаси. — Тошкент: Фафур Ғулом, 2015. — Б. 35.
10. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). — Т.: ТАМАДДУН, 2016.
11. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти. — Т.: ТАМАДДУН. 2016.
12. А.Рустамий. Бисмиллохнинг маъноси. — Т.: Фан, 1999; Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил). Филол.фан.док.дисс. ... автореф. — Т., 1999; Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. — Б. Бухоро, 1994; Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. — Т., 2015. Муҳиддинов М.Комил инсон — адабиёт идеали. — Т.: Маънавият, 2005; О.Давлатов. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини. Филол.фан.бўйича фал.док.дисс. ... автореф. — Самарқанд, 2017.

Умедулло Маҳмудов
*ТошДўТАУ катта ўқитувчиси,
филология фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)*

МУНШАОТЛАРНИНГ АДАБИЙ ЖАНР СИФАТИДА ВУЖУДГА КЕЛИШ ТАРИХИ ВА ТАСНИФИ

Муншаот (ар. منشآت) – Шарқ адабиётидаги жанрларидан бири, муаллифнинг назмда ёки насрда ёзилган мактублар тўплами. Бундай тўпламлар бир ёки бир неча муаллиф қаламига мансуб хатлар йиғиндисидан иборат. Мактублар шунчаки битилган хатлар бўлмай, бадииятнинг ўзига хос тури – иншо санъати сифатида юзага келиб, чуқур мазмунга ва гўзал бадиий ифодага эга бўлган. Муншаот баъзан “руқъаот”(руқъаот-(арабча) мактублар), “мактубот” деб ҳам юритилган.

Мактуб ёки ёзишмалар адабий жанр сифатида қадимги Грек ва Рим адабиётида ҳам ўз ўрнига эга бўлган. Цицерон, Сенека ҳамда Плиниянинг мактублари фикримизни далиллайди. Жаҳон адабиётида ёзишмалар, мактуб ва ҳужжатлар эпистоляр жанр (грекча. epistole – мактуб, нома) сифатида тилга олинади ҳамда маълум қоидаларга бўйсунди, ўзида муайян шаклни намоён этади.... Адресат (мухотаб)га юбориладиган табрикнома (открытки), тезкор хабар (телеграмма) шу ва шунга ўхшаш хабарлар фикримизга мисол бўлади.¹

Эпистоляр жанр назариясига кўра, антик давр адабиётида мактубларга “...суҳбатнинг ярми” дея таъриф берилган, аммо бунда мактубнинг оғзаки нутқ шаклидан қатъий фарқ қилиши таъкидланади.² Мактуб ким томонидан ёзилишидан қатъий назар, у муайян шахснинг хоҳиш-истаклари, ички кечинмалари ҳамда унинг илмий салоҳиятини ўзида намоён этади. Шу сабабли мактуб ёзиш муаллифдан аниқлик ва маҳоратни талаб этади.³

Шарқ адабиётида эса эпистоляр жанр ўзига хос шакл ва мазмунга эга. Буюк уламолар, давлат арбоблари, адиблар ва бошқа машҳур шахслар томонидан иншонинг гўзал намуналарини ўзида мужассам этган муншаотлар яратилган. Араб, форс, туркий тиллардаги мазкур асарлар бадиийлик қимматидан ташқари, ўз даврига оид тарихий воқеаларни тиклашда, давлатчиликка оид муҳим манбаларни кашф этишда катта аҳамиятга эга.

Шарқ адабиётида илк тўплам Уммавийлар даврида яшаган Абдулҳамид бин Яҳё ал-Котиб томонидан яратилган “Рисола илал куттоб” асаридир. Бу асар Муҳаммад (с.а.в)нинг турли мамлакатлар ҳукмдорларига ёзган мактублари билан бошланиб,

ундан кейинги даврда ёзилган хатларни ўзида жамлаган.⁴ Шу ўринда муншаот тўпламлари аввал “рисола” номи билан юритилганлигини ҳам эслаб ўтмоқ жоиз.

Аббосийлар даврига келиб, араблар Эронни ҳам фатҳ этишга муяссар бўлгач, форслар билан савдо, ижтимоий, иқтисодий муносабатларга киришдилар ва ўз маданиятларини бу ҳудудда тарғиб этдилар. Натижада араб адабиёти ҳам бу ўлкага кириб келди ҳамда форсий адабиётдан таъсирланди.⁵ Бу пайтга келиб Иброҳим бин Муҳаммад ал-Мудаббир тарафидан “Рисолат ул-узро” асари таълиф этилди.⁶

Бу даврда яратилган мактуб намуналарида араб мактуб ёзиш анъаналаридаги каби I ҳижрий асрларга хос бўлган анъаналар сақланиб қолган. Жумладан, юқорида таъкидланганидек, пайғамбар мактублари ихчам шаклда, бадиий санъатлар ва турли лафзлардан холи равишда битилган. Бунда ҳам шу анъана сақланиб қолган. Яъни мактублар мухтасар шаклда, балоғат илми талабларига риоя қилган ҳолда ёзилган.⁷

Ушбу ўринда иншо (ёзишмалар)нинг икки кўриши мавжудлигини зикр этмоқ керак:
назм йўли билан ёзилган муншаот;
насрий муншаот.

Назмий турдаги иншолар расмий ёки норасмий мақомга эга бўлиб, бунда икки шоирнинг бир-бирига юборган шеърий мазмундаги мактублари ёки ҳарбий ҳолатларда икки томоннинг ўзаро ёзишмаси, шунингдек, арзи ҳол қилиш мазмунида ёзилган шеърий номаларни тушуниш мумкин.

Адабиёт тарихида Низомиддин Абдулвосиъ (Муншо ул-иншо), Насруллоҳ бин Ало ал-Бино (Латойиф ул-иншо), Абдуллоҳ Қутбиддин Муҳйи (Макотиби Абдуллоҳ Қутбиддин Муҳйи), Алишер Навоий (Муншаот (форсий мактублари), Хожа Абдуллоҳ Марворид (Муншаоти Абдуллоҳ Марворид) каби муаллифлар томонидан яратилган муншаот тўпламларида асосан насрий мактублар тўпланганини қайд этиш жоиз.

Муншаот асарларидан ўрин олган мактубларнинг барчаси, албатта, “басмала” билан бошланган, ундан сўнг ҳамд ва наът қисмлар, талаб ёки дуо ва мактубнинг интиҳо (таммат, хатм) қисми билан якун-

ланган. Кейинчалик иншо илмининг санъат даражасига кўтарилиши оқибатида гўзал мактуб намуналари ижод этилган ва тўплам ҳолатига келтирилган.

Туркий адабиётга иншо шаклида ёзилган ҳужжат ва мактублар мажмуа шаклида XIV асрдан пайдо бўла бошлади дейиш мумкин. Иншо туркий адабиётда термин сифатида расмий ёзишмаларни ўзида жамлаган бир тизим, яхлит композиция ва гўзал санъат билан битилган наср кўриниши ҳисобланади.⁸ Ушбу асарлар, асосан, араб ва форс адабиётида қўлланган муншаотнавислик қоидаларини давом эттирганлигини қайд этиш мумкин. Шунингдек, яратилган аксар муншаотлар форсийда ёзилган бўлиб, бунинг сабаби сифатида туркий ҳукмронларнинг даврида ҳам давлат тили форс тили бўлганлигини қайд этиш жоиз. Аммо илк туркий тилда ёзилган муншаот сифатида Алишер Навоий қаламига мансуб “Муншаот” асари тилга олинади. Навоий “Муншаот” асарининг муқаддимасида форсча мактублар шаклланган юксак услубга эга эканини, туркий халқларда бу услубда ҳали ҳеч иш қилинмаганини ва ўзи муншаотга биринчи бўлиб қўл урганини қайд қилган.⁹ Навоийнинг “Муншаот” асари муқаддима (ҳамд ва наът ҳамда асарнинг ёзилиш сабаби)дан сўнг тўғридан тўғри шоир қаламига мансуб мактублар билан бошланади.

Қодиржон Эргашевнинг “Ўзбек насрида иншо (Навоий “Муншаот”и мисолида) номли номзодлик диссертациясида муншаот таркибига кирган мактубларнинг олима Суйима Фаниева томонидан амалга оширилган таснифи қуйидаги тартибда келтирилган:

давлат ва сиёсатга алоқадор мактублар;
турли шахсларга уларнинг лавозимлари ва ишлари хусусида ёзилган хатлар;
бадий ижод борасидаги ёзишмалар;
табрик ва таъзияномалар;
шахсий кечинмаларни ифодаловчи мактублар¹⁰.
Кейинчалик Ю.Турсунов ўзининг “Муншаот – Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятини ўрганишда тарихий-бадий манба сифатида” номли номзодлик ишида С.Фаниеванинг таснифини асос қилиб олади ва унга қуйидаги қўшимчаларни киритади:
насиҳат характеридаги мактублар;
танбеҳ ифода этилган мактублар;
миннатдорлик ифодаланган хатлар;
қисқа мактублар¹².

Албатта, юқоридаги тасниф жуда маъқул. Аммо биз муншаот асарлари ва унинг таркибига кўра таснифи ва умуман муншаот асарларига бағишланган тадқиқот ишлари билан танишиш жараёнида уларнинг таснифини бирмунча соддалаштириш керак деган фикрга келдик. Чунки юқоридаги таснифда мактубларнинг мазмун-моҳияти баён этилган, аммо ушбу турдаги мактублар муайян гуруҳга мансуб ҳамда уни Шарқ адабиётида анъанавий тарзда ўз номи билан аташ ҳали-ҳануз давом этиб келмоқда.

Жумладан, биз қуйида мактубларнинг амалга оширилган тарихий таснифини келтириб, юқорида келтирилган таснифдаги барча мактублар мазкур ўринда мавжуд эканлигини маълум қилмоқчимиз. Муншаотлардан ўрин олган мактуб ва номаларни тузилиши ҳамда мазмун мундарижасига кўра қуйидаги турларга ажратиш шарқ халқлари адабиётида анъанага айланган:

султонийят;

ихвонийят;

девонийят.

Султонийят (Султоний мактублар) – бунда фармонлар, маншур (муҳрланмаган фармон)лар ва саройдан чиқарилажак нома ва мактублар ёки амир ва султонларнинг ўзаро ёзишмалари, шунингдек, қўл остидагиларига битган мактублари назарда тутилади.¹³ Бундан ташқари, турли муносабатлар билан, жумладан, давлат аъённинг ҳажга сафари хусусидаги фармонда адресат (мухотаб)нинг жамиятдаги мавқеи, мақоми ёки лавозими ўзига хос иборалар ёрдамида қайд этилади.

Шу ўринда қайд этиш жоизки, бу туркумдаги мактублар сажъ қоидаларига биноан битилган. Е.Э.Бертельс: “Саройдан чиқувчи ҳар бир ҳужжат нафислиги билан ажралиб туриши, мухтасар, аммо имкон қадар сайқалланган бўлиши, унда Қуръондан иқтибослар ҳамда шеърӣ парчалар келтирилган бўлиши шарт”¹⁴ – дея таъкидлайди. Бундан ташқари, олимнинг фикрига қараганда, “мактубда аниқлик устувор йўналиш сифатида қаралмаган ва у бирмунча тушунарсиз ҳам бўлиши мумкин, аммо гўзал нутқдан иборат бўлмоғи лозим”¹⁵.

Ихвонийят (дўстона ёзишмалар) – бу турдаги мактублардан мақсад кишиларнинг бир-бирларига юборган меҳр ва муҳаббатга йўғрилган ёзишмалардир. Уларнинг таркибига дўстона, оила аъзоларининг ўзаро ёзишмалари, панд-насиҳатлар, маслаҳатлар ёзилган мактубларни киритиш мумкин.¹⁶ Мазкур турдаги мактубларни ҳам икки гуруҳга тақсимлаш ўринли:

бадий хусусиятга эга мактублар;

кундалик ҳаётдаги саргузаштлар акс этган мактублар.

А.Меънинг фикрига кўра, “Қофия билан безаб хат битиш тарзи расмий ҳужжатлардан (султонийят) хусусий мактубларга (ихвонийят) ҳам ўтди.”¹⁷

Бадий хусусиятга эга мактублар – бундай мактубларда ёзувчининг бадий маҳорати батамом намоён бўлади. Мазкур турдаги мактубларга икки улуг шоир Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоийнинг ўзаро ёзишмаларини мисол тариқасида келтиришимиз мумкин.

ای باد صبا آمدی از منزل یار
جانم ببر و به پای او ساز نثار
وان گه قدری ز خاک پایش زنهار
بهر عوض جان من دل شده آر

بعد از عرض عبودیت معروض رای شر یف بندگان قدسی آستان، آنکه
...احوال فقیر حقیر زخوبی گزران است

Таржимаси:

Эй боди сабо, ёр манзилидан келдине
Жонимни элтиб унинг пойига нисор айла
Ва бориб унинг хоки пойидан бир оз
Менинг жоним эвазига келтиргин

Муқаддас зотларнинг даргоҳига таъзим арз
этиб, фақир ҳақирнинг аҳволи ҳадди аълодин ош-
миш...¹⁸(таржима муаллифдан)

Кундалик ҳаётдаги саргузаштлар акс этган мактублар эса тарихий аҳамият касб этади, ушбу турдаги мактубларда аҳолининг ижтимоий-сиёсий аҳволи баён этилади. Бунга юқорида келтирилган Анварий Абивардийнинг “Хуросоннинг кўз ёшлари” қасидаси мисол бўла олади. Чунки унда шеър бошидан охиригача халқ дардининг изҳори, бошидан кечирган кунлари хусусидаги ҳикоядан иборат. Уни ўқир экансиз, вайрон бўлган шаҳру қишлоқ, масжиду мадрасалар, ситамдида халқу ғоратгар босқинчилар, бағри қон оналару қонга беланган мурғак болалар кўз олдингизда ёрқин намоён бўлади. Қасида Самарқандга Қилич Тамғочхонга юборилган. Аммо Қилич Тамғочхоннинг бу босқинни бартараф этган ёки этмаганлиги маълум эмас.

Девонийят (Девоний мактублар) – мамлакат ишлари, унга доир ҳужжатлар, давлат идораларидан чиқадиган мактублардир. Ёрлиқлар, ҳукм ва буйруқлар, васикалар ва бошқа ҳужжатлар шулар жумласидандир.¹⁹

Демак, ихвонийёт туркумидаги хатлар расмийликдан холи эканлиги, унда давлат ва мамлакат ишларига алоқадор мавзулар қайд этилмаслиги ҳамда номаларнинг хусусий характерга эгаллиги билан султониёт ва девонийёт туркумидаги хатлардан тубдан фарқ қилади.

Шу ўринда қайд этиш жоизки, олимлар С.Ғаниева ҳамда Ю.Турсуновларнинг таснифларидан ўрин олган давлат ва сиёсатга алоқадор мактублар, турли шахсларга уларнинг лавозимлари ва ишлари хусусида ёзилган хатлар девоний турга, бадиий ижод борасидаги ёзишмалар ва шахсий кечинмаларни ифодаловчи мактублар дўстона ёзишмалар (ихвонийёт) таркибига киради. Табрик ва таъзияномалар, насиҳат (огоҳлантириш) ҳамда миннатдорлик ифодаланган хатлар барча турдаги ёзишмалар таркибида ҳам келиши мумкинлиги билан характерланади.

Хулоса қилиб айтганда, араб ва форс адабиётида яратилган муншаотлар туркий адабиётда яралган муншаот асарлари учун асос бўлиб хизмат қилган. Яъни бунда мактуб ёзиш қоидалари, шакллари ва усуллари тўлиғича туркий адабиётга ҳам кириб келган дейиш мумкин. Муншаот таркибидан жой олган мактублар таснифи турли даврда турлича бўлган дейиш мумкин, аммо уларни иншо санъати қоидаларига мувофиқ тасарруф ва тасниф этиш мактубларнинг илмий аҳамиятини оширади. Шу маънода мактуб ва номаларни тузилиши ва мазмун мундарижасига кўра, султониёт, ихвонийят ва девонийят тарзида таснифлаш мумкин.

1. Стилистический энциклопедический словарь русского языка / под. ред. М.Н. Кожинной; члены редколлегии: Е.А. Баженова, М.П. Котурова, А.П. Сковородников. 2-е изд., испр. и доп. — М.: Флинта: Наука, 2006, с. 628.

2. Белунова Н.И. Категория речевого общения и особенности ее реализации в тексте дружеского письма (но материале писем творческой интеллигенции конца 19 - начала 20 в.) // Филологические науки. 1998. №2. С 79.

3. Панкеев И.А. Энциклопедия этикета. М.: 2001.90 с.

4. أمراء البيان، محمد بن عبد الرزاق بن محمد كرد علي. مكتبة الثقافة الدينية. القاهرة: ١١٠٢. ص ٩٨-٩٩.

5. Nâbi'nin münşeât'ı: inceleme-metin. Adnan OKTAY. Dicle Üniversitesi Eğitim Bilimleri Enstitüsü, Doktora tezi. Diyarbakir-2014. S 10.

6. Nâbi'nin münşeât'ı: inceleme-metin. Adnan OKTAY. Dicle Üniversitesi Eğitim Bilimleri Enstitüsü, Doktora tezi. Diyarbakir-2014. S 10.

7. بررسی جایگاه منشآت و منشآت نویسی در ایران تا پایان قرن هشتم هجری. هادی عارفی. فصل نامه تاریخ نو. شماره ٢١، ٢٩٣١.

8. Nâbi'nin münşeât'ı: inceleme-metin. Adnan OKTAY. Dicle Üniversitesi Eğitim Bilimleri Enstitüsü, Doktora tezi. Diyarbakir-2014. S 16.

9. Алишер Навоий. Муншаот. Тўла асарлар тўплами(10 жилдлик). Тўққизинчи жилд. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Т.:2013. — 3 б.

10. Эргашев Қ.О “Ўзбек насрида иншо(Навоий “Муншаот”и мисолида)”: ф.ф.н дисс. Т.: 1996.

11. Турсунов Ю. “Муншаот-как историко-литературный источник в изучении жизни и деятельности Алишера Навои: Автореф. Дисс. Канд. Фил.наук.-Т.: 1986

12. دانشنامه ادب پارسی، به سرپرستی حسن انوشه، پاپ اول، سازمان چاپ و انتشارات، تهران، ١٣٢١، ج ٢، ص ٢٢٨.

13. Е.Э.Бертельс. Избранные труды. Том 5. — Москва: «Наука», 1988. С.268.

14. Е.Э.Бертельс. Избранные труды. Том 5. — Москва: «Наука», 1988. С.268.

15. کتاب شناسی توصیفی منشآت دوره تیموری و بررسی نقض آن ها در پژوهش های تاریخی آن دوره. علی منوچهری. پایان نامه جهت اخذ درجه کارشناسی ارشد تاریخ. دانشگاه تهران-١٣٩١. ص ١١

16. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. —Москва: “Наука”, 1973. С 206.

17. منشآت فارسی. امیر علی شیر موای. مقدمه و تصحیح دکتر حسین محمد زاده صدیق، منیره محمد دادی. فصلنامه نامه صديق، شماره ٥. ص ٦٥.

18. کتاب شناسی توصیفی منشآت دوره تیموری و بررسی نقض آن ها در پژوهش های تاریخی آن دوره. علی منوچهری. پایان نامه جهت اخذ درجه کارشناسی

19. ارشد تاریخ. دانشگاه تهران-١٣٩١. ص ١١

Tozagul DUSANOVA,
NavDPI mustaqil tadqiqotchi

TURKIY ADABIYOTDA NASR VA NAZM UYG'UNLIGI AN'ANALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy adabiyotda nasr va nazm omixtaligida yaratilgan asarlarning tadrijiy taraqqiyoti va "Qisasi Rabg'uziy", "Guliston bit-turkiy", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" va Xojaning "Mifto ul-adl" asarlari o'rtasidagi g'oyaviy mushtaraklik haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: nasr va nazm, islomiy mavzular, she'r, hikoyat, bayt, badiyat.

Annotation: This article provides information on the gradual development of works created under a combination of prose and poetry in Turkic literature, as well as on the ideological unity between the works «Qisasi Rabguziy», «Guliston bit-turkiy», «Mahbub ul-Qulub» by Alisher Navoi and «Mifto ul-adl» by Khoja.

Keywords: prose and poetry, Islamic themes, poem, narrative, byte, artistry

Аннотация. В данной статье представлена информация о постепенном развитии произведений, созданных под сочетанием прозы и поэзии в тюркской литературе, а также об идейном единстве между произведениями "Кисаси Рабгузий", "Гулистон бит-туркий", "Махбуб ул-Кулуб" Алишера Навои и "Мифтох ул-адл" Ходжи.

Ключевые слова: проза и поэзия, исламские темы, стихотворение, повествование, байт, художественность

Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg'unligi asosida yozilgan asarlarning tarixiy taraqqiyoti uzoq asrlarga borib taqaladi. XI asrda yashab ijod etgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari turkiy tilda yozilib, bizgacha yetib kelgan ilk yirik tasavvufiy doston hisoblanadi va unda islomiy mavzular va Qur'on iboralari ko'p qo'llangan. Asarning muqaddima qismi nasriy va she'riy yo'lda yozilgan. Nasriy muqaddimada Tangriga hamd, payg'ambarga bag'ishlangan na't, kitobning nomlanishi, xonga tortiq qilingani va hukmdorga ma'qul bo'lib, muallifni yuqori lavozimga qo'yganligi, asarning ramziy qahramonlari va ular o'rtasida savol-javob, munozara bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Nasriy muqaddimadan keyin 77 baytlik she'riy muqaddima keltiriladi. Unda ham nasriy muqaddimadagi fikrlar she'riy yo'lda bayon qilinadi. Qolgan boblar she'riy yo'lda yozilgan.

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari ham nasriy, ham she'riy, ya'ni aralash yo'lda bitilgan. Asar hamd, na't, muqaddima, qissalar, lirik kechinmalar va xotima kabi tarkibiy qismlardan iboratdir. Qissalar nasrda, ulardan joy olgan ba'zi lirik kechinmalar, hikoyatlarning xulosalari va asar xotimasi nazmda ijod etilgan. Nosiruddin Rabg'uziy Qur'oni karimdagi payg'ambarlar haqida kelgan qissa va hikoyatlarni qayta ishlab, sayqal berib takomillashtirgan.

Asar badiiyati ham o'ziga xos. Bir qator qissalar boshlanishida yoki ichida berilgan o'zbekcha hamda arabcha she'rlar Rabg'uziyning nozikta'b zullisonayn shoir bo'lganligidan darak beradi. Bu she'rlar asar mazmunini to'ldiradi, g'oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, juda ko'p o'rinlarda voqealar bayoni holatlar tasvirida tashbeh(o'xshatish), tanosib, tazod (qarama-qarshilik), tajnis (jinsdoshlik), takrir, tashxis (jonlantirish) kabi she'riy san'atlardan unumli foydalanilgan. Xususan, saj' (nasrdagi qofiya) adibning sevimli badi-

iy vositasi ekanligi ko'zga tashlanadi. Muallif saj'dan asosan ta'rif va tavsif o'rinlarida foydalanadi. Masalan, Idris alayhissalom ta'rifi: "...payg'ambar alayissalom ul umri ukush, diydori ko'shish, Azroilg'a qotishg'on, rizvon birla yanashg'an, dunyodin qushtek uchg'an, tamug'g'a kirib chiqq'an, Sirot din yashindek kechg'an, uchmoh qabug'in ochg'an, o'zi aziz, o'rni adiz, arig' zotlig', Axnuh otlig' Idris yalavoch"[1].

Asardagi qissalarning ko'pi qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so'ng she'riy madh, keyin asosiy voqealar bayoni beriladi. Ba'zi qissalar ichida yana mustaqil hikoyat, rivoyat va naqlar ham keltirilgan. "Yusuf qissasi"da bir necha hikoyat, latifa, bayt, g'azal va boshqa janr namunalari uchraydi, ular asarda ilgari surilgan asosiy g'oyaviy-badiiy maqsad bilan yaxlitlikni tashkil etadi. Masalan, "Dovud haqida"gi qissa Dovudning ta'rifi bilan boshlanadi. So'ng she'riy tavsif beriladi va undan keyin Dovud payg'ambar haqidagi umumiy tasavvurlar bayon etiladi.

Jumladan, Qissai Dovud Alayhis-salom: "Ul inna haza lahu tis'un va tis'una na'jatan ibtilosi birla mubtalo bo'lg'an, xarra raki'an va anab sajdasin qo'lg'an, fa g'afarnaa xitobin eshitgan, Davudu inna ja'alnaaka xalifatai fil arzi xil'atin bo'lg'an, fahkum baynan-nasi bilhaqqi amrini tutqan va la tattabi'il hava nahyisindin yiroq turg'an, va vahabnaa li Davuda Sulaymon mavhibati berilgan va qatala Davudu Jaluta muborazati birla jilva qilg'an Dovud yalavoch alayhis-salom.

She'r:

Kel netak erdiki bil Dovud yalavoch ishlari,

Bir o'g'long'a hamd ayurda kimlar erdi eshlari...

"Dovud yalavoch (payg'ambar) bani Isroildan erdi. O'n qarindosh erdilar. Otalari Isho' otlig'. Dovud qamug'idin (barchasidan) kichik erdi. Tun-kun yig'layur erdi, ibodat ichinda..."[1.23-b].

Asardagi "Yusuf alayhis-salom qissasi" o'zining badiiy jihatdan mukammalligi, hajman kattaligi bilan ajralib turadi. Bu qissa Yusuf Siddiq alayhis-salom haqida ma'lumot beruvchi nasriy matn bilan boshlanadi, so'ng nazmiy matn bilan davom etadi va salkam yuz sahifani tashkil etadi. Qissa tarkibida nasriy matnlar orasida 16 ta nazmiy matn keltirilgan bo'lib, 165 misrani tashkil etadi. Bu nazmiy matnlar she'r, bayt, g'azal deb nomlangan.

"Qisasi Rabg'uziy"ning 1-kitobida nasriy matnlar tarkibida 380 misra, 2-kitobida nasriy matnlar orasida 236 misra she'riy matn keltirilgan. Jami "Qisasi Rabg'uziy" asarida nasriy matnlar tarkibida 616 misra nazmiy matn keltirilgan.

Qissalar o'zbek nasrining ajoyib namunasidir. Ularda xalq tilining o'sha davrdagi ko'rinishlari butun boyligi, tarovati, kuchi, qudrati, mavjud holati bilan namoyon bo'lgan. Qissalar tarkibida ba'zan she'riy parchalarning uchrashi esa uning mazmunini boyitgan, ta'sirchanligini yanada oshirgan.

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari ilk turkiy tildagi nasr va nazm yo'nalishida yozilgan bebaho asar hisoblanadi.

Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg'unligida yozilgan asarlar sirasiga Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asarini ham kiritishimiz mumkin.

O'zbek mumtoz adabiyotining vakillaridan biri, benazir tarjimon Sayfi Saroyi o'zbek adabiyoti tarixida alohida mavqega ega ijodkor hisoblanadi. U fors-tojik adabiyotining ulug' namoyandasi Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarini o'zbek tiliga birinchi bo'lib tarjima qilib, yarim original, falsafiy-axloqiy "Gulistoni bit-turkiy" asarini yaratgan. Adib Sa'diy asarining asosiy mag'zini olib, uni zamona ruhini va mahalliy muhitni aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit'a va baytlar bilan to'ldirgan.

Sayfi Saroyi "Guliston" tarjimasi bilan o'z ismini turkiy adabiyot sahifalariga oltin harflar bilan yozgan tarjimon va shoirdir, u asarlarini turkiy tilning qipchoq lahjasida yozgan.

Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari turk lahjalarida so'zlashuvchi xalqlar uchun o'z davrida ibrat bo'la olgan asar hisoblangan. Hatto maktablarda darslik sifatida ham o'qitilgan. Mashhur turk olimi Mehmet Fuat Ko'prulu "Guliston bit-turkiy" haqida shunday yozadi: "Shu qadar aniq va toza tilda yozilganki, tarjimonning adabiy qudrati chindan ham har qanday tanqiddan ustun turadi. XIV asr qipchoq lahjasida adabiy nasrning bundan ortiq go'zal bir namunasini topish imkonsiz"[3.374-b].

"Gulistoni bit-turkiy" Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarining erkin tarjimasidir. Sayfi Saroyi "Guliston"ning asosiy mazmuni va shaklini olib, uni yangi hikoyatlar, qit'a va baytlar bilan to'ldirib, ona tilida xalqiga taqdim etadi.

She'r: *Ey jahoni ilmu ustodi hunar,*

Ma'rifatning manbai sohib nazar...

Muqaddimada keltirilgan ushbu she'r 60 misradan iborat bo'lib unda shoir Misr Amiri Batxasbekni vafsi etadi.

Misr ichinda bor bir orif amir,
Eyguluktur dam-badam elga ishi,
Johu davlat, fathu nusrattur eshi.
Lutfu axloqi karam koni durur,
Eyg'u oti doimo tilda yurur...[2.171-b]

Sayfi Saroyi "Gulistoni bit-turkiy" asari qo'lyozmasining fotonusxasi Moskva va Toshkentda ham saqlanmoqda. Farg'onada topilgan "Yodgornoma"da ham bor. Sayfi Saroyining "Gulistoni bit – turkiy" asari nasr va nazm uyg'unligida yaratilgan va quyidagi boblarga bo'lingan. Boblardagi nasriy va nazmiy matnlar miqdori ham bir xil emas. Asarda jami 248 ta nasriy va 454 ta nazmiy matnlar keltirilgan.

Asar tarkibida nasriy matnlarga nisbatan nazmiy matnlar miqdori ancha ko'p. Ba'zi hikoyatlardan so'ng bitta nazmiy matn keltirilgan bo'lsa, ba'zi bir hikoyatlar orasida nazmiy matnlar soni 10 ga yaqin. Masalan, Birinchi bobdagi "Podshoh va uch o'g'li" haqidagi hikoyat kichik o'g'ilning ko'rimsiz, ammo jasur va sadoqatli ekanligi haqida hikoya qiladi va bu hikoyat tarkibida 7 ta she'r, ya'ni nazmiy matn keltiriladi. Yoki shu bobdagi "G'addor dunyo elindan shikoyat qilib kelgan kishi" haqidagi hikoyatda 10 ta nazmiy matn keltirilgan.

Asarning beshinchi bobidagi oxirgi hikoyat Hamadon qozisining axloqsizligi va Malik tomonidan fosh etilishi haqida hikoya qiladi. Ushbu hikoyat orasida 14 ta nazmiy matn keltirilgan. Bu she'rlardan 6 tasi 4 misra, 6 tasi 2 misra, 1 tasi 10 misra, 1 tasi Hikoyati manzum deb nomlanadi va 22 misradan iborat.

"Gulistoni bit-turkiy" asaridagi hikoyatlarning ayrimlari juda ixcham shaklda berilgan. Masalan, Rustam haqidagi hikoyat: "Bir kun Rustam onasina qatti so'zlandi. Aning ko'ngli og'rib, yig'lab aytti: "Magar kichiklikni unuttungkim ulug'luq etarsan".

She'r:

Onasi injinib Rustamga aytti,

Ayo ko'rgan o'zun haybatli arslon.

Agar bo'lsa edi yodingda ul kun —

Kim, alimda eding bir yashar o'g'lon.

Bukun bo'yla menga javr etmas eding —

Ki, sen bir pahlavon, men bir qari jon [2.284-b].

Yoki quyida keltirilgan hikoyat bir misra nasriy matn va ikki misra nazmiy matndangina iborat.

Bir arab er yozi yerda g'oyat susab bu baytni o'qur edi:

She'r:

Umidim o'lmayin maqsadga yetsam,

Qonib ichsam suvin, meshim to'latsam [2.242].

Asarda jami 176 ta hikoyat keltirilgan. Har bir hikoyatning oxirida masal yoki falsafiy chekinishlar mavjud. Masallar, to'rtlik, baytlar shoirning mulohazalarini tasdiqlash uchun xizmat qilgan. Sayfi Saroyi Sa'diyning fikrlarini qadimgi o'zbek xalq maqollari va o'g'itlari bilan to'ldirib asarning g'oyaviy ta'sirini oshirgan.

"Gulistoni bit-turkiy" va "Mahbub ul-qulub" asarlari o'rtasida ijtimoiy-didaktik bog'liqlik bor. Har ikkala asar muallifi ham mamlakatning va el-yurtning taqdiri birinchi navbatda podshoning faoliyati va uning ma'naviy

dunyosi bilan bog'liq ekanligini talqin etishadi va nasriy matnlar she'riy matn bilan xulosalanadi. Hukmdorlarni adolatga yo'llash, odillarni ta'rif-tavsif etish va zolimlarni qoralash "Guliston"ning muhim g'oyaviy motivi bo'lib, shu g'oyani badiiy mujassamlashtiruvchi ko'pgina hikoya va tamsillar keltiriladi, maqol va hikmatlar beriladi va nasriy matnlar nazmiy matnlar bilan uyg'unlikda keltiriladi:

*"Zulm qilsa malik raiyatga,
Lojaram mamlakat xarob o'lur..."*

Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg'unligi an'analari Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Vaqfiya", "Munshaot", "Majolis un-nafois" asarlari va Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlarida yanada rivojlandi.

Xojaning "Miftoh ul-adl" asarida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy masalalarga bag'ishlangan ma'lumotlar ko'p hollarda hadis yoki Qur'on oyatlaridan keltiriladi va ularni izohlash maqsadida adib axloqiy-didaktik mazmundagi hikoyatlar keltirib, o'zining she'riy xulosasi bilan yakunlaydi. Qur'on va hadislarga tayanilganligi bilan bu asar Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlariga hamohangdir. Xoja asar boblarida insoniyat ma'naviy taraqqiyotida barcha davrlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni izohlab berishga harakat qilgan. Jumladan, "Miftoh ul-adl"dan o'rin olgan "Bir soatlik adolatning qimmatini" haqidagi hikoyat tasavvufiy mazmunga egadir. "Bir podshoh hajga bormoqchi bo'libdi. Ammo donishmand vaziri e'tiroz bildirib: "Siz hajga borsangiz, el-yurt boshtiq bo'lib, beboshliklar yuzaga kelishi mumkin" – deb podshohni yigirma marta

hajga borgan kishining bir haj savobini sotib olishga undaydi. Hoji esa buning uchun podshohning bir soatlik adolatining savobini berishini so'raydi. Podshoh: "Bir soat adl qilg'onning savobi ne bo'lur?" – deganda U: "Bir soat adl qilg'onning savobi odamlar va farishtalarning va hurlarning ibodatidan ortuq turur", - deb javob beradi.

Xojaning xulosasiga ko'ra, bir soatlik adolatning bahosi juda yuksakdir. Islom dini va tasavvuf inson manfaatlarini himoya qiladi. Podshoh bir soatlik adli bilan qancha miskinlarga adolat va shafqat qilishi, begunohlarni himoya qilib zolimlarni jazolashi mumkin.

Xulosa. Shoirning "Gulzor" asari ham mazmun va ko'tarilgan muammolarning dolzarbligi bilan "Miftoh ul-adl"ga o'xshab ketadi. Xojaning bu ikki asari nasr va nazm yo'lida yozilgan. Nasriy matnlar she'riy parchalar bilan ziynatlangan va Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari bilan g'oyaviy jihatdan mushtarakdir.

"Ildizi Qur'on oyatlari va Hadislarga borib bog'lanuvchi Navoiy hikmatlarining ma'lum bir qismi adabiy ta'sir natijasida shakllangan. Alisher Navoiygacha yaratilgan pandnomalarning "Mahbub ul-qulub"ga ta'siri xususida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, forsiy va turkiy tillarda dunyoga kelgan o'nlab adab durdonalaridagi g'oyaviy hamohanglikning asosida ham islom madaniyati turganligini qayd etishimiz joiz" [4.47-b].

Bu an'alar keyinchalik ham davom etdi. Gulxaniyning "Zarbulmasal", Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarlari ham aynan shunday nasr va nazm omixtaligida yaratilgan asarlar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar:

1. Носирулдин Рабғузий "Қисаси Рабғузий". "Ёзувчи" нашриёти. 1991. 2 - китоб.
2. Сайфи Саройи "Гулистони бит-туркий". Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1986.
3. M.Fuat Ko'prulu. Turk edebiyati tarixi. Ankara 2003. s-374.
4. Ш.Ҳайитов Алишер Навоийнинг кўнгил гулшани. Бухоро. 2000. 47-6.

Akmal ABDULLAYEV,

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
O'zbek tilshunosligi kafedrası tayanch doktoranti*

TOSHKENT VILOYATI JOY NOMLARIDA FOLKLOR UNSURLARI

Annotatsiya. Maqolada joy nomlarining shakllanish jarayonlari, kelib chiqishi va genezisi ularning folklor unsurlari bilan ham bog'liq ekanligi haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan bo'lib, ushbu bog'liqlik Toshkent viloyati joy nomlari misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: joy nomlari, lingvoadaniy manzara, folklor, Bo'stonliq, G'azalkent, Iskandar, sak, Parkent, Sanganak, Changi.

Annotation. The article discusses the fact that the processes of formation, origin and genesis of place names are related to their elements of folklore, and this connection is illustrated by the example of place names in Tashkent region.

Keywords: place names, linguocultural picture, folklore, Bostanlyk, Gazalkent, Iskandar, sak, Parkent, Sanganak, Changi.

Аннотация. В статье рассматривается тот факт, что процессы формирования, происхождения и генезиса топонимов связаны с их элементами фольклора, и эта связь иллюстрируется на примере топонимов Ташкентской области.

Ключевые слова: топонимия, лингвокультурологическая картина, фольклор, Бостанлык, Газалкент, Искандар, сак, Паркент, Санганак, Чанги.

Tilshunoslikning onomastik ko'lamining asosiy o'rganish va tadqiq qilish ob'ekti sanalmish atoqli otlar (shu jumladan, joy nomlari ham – ta'kid bizniki, A.A.) biror obyektini boshqasidan ajratishdan tashqari, milliy mentallik, etnomadaniy, etnosotsiologik, kognitiv, kreativ, akkumulyativ, aksiologik, estetik, emotiv vazifalarni bajarishini nazardan soqit qilib bo'lmaydi. [1: 75.] Shu jihatdan qaraganda, aytishimiz mumkinki, Toshkent viloyati toponimiyasi ham o'z semantik key-sida bu yerda asrlar davomida yashab kelgan va hozir ham yashab kelayotgan xalqning lingvomadaniy man-zarasini aks ettiradi.

Tadqiqot ishimizning asosiy obyektlaridan biri sanalgan Bo'stonliq va Parkent tumanlaridagi bir qancha joy nomlari lingvomadaniy jihatdan tadqiq etilganida mazkur joy nomlarida folklor unsurlari mavjud ekanligi namoyon bo'ldi. Zero, "Lingvokulturologiya ko'proq afsona, rivoyat, marosim, rasm-rusum, odatlar, madaniy ramzlarni va boshqalarni o'rganadi. Bu tushunchalar madaniyatga tegishli bo'lib, ular turmush, rasm-rusumlar ko'rinishlarida hamda tilda mustahkamlanadi"[2: 112].

Jumladan, "Bo'stonliq" nomining kelib chiqish etimologiyasi mahalliy xalq naql va rivoyatlarida shunday ifodalanadi: **bo'stonliq** so'zi o'zbek tilida go'zal maskanlarga boy joy ma'nosini bildirsa-da (bo'stonga to'la – bo'ston+liq) qozoqcha, to'g'rirog'i esa, qoraqalpoqcha transkripsiyada **бостандық – ozodlik** ma'nosini berar ekan. Bu haqda to'qilgan rivoyatlarga ko'ra janglardan birida qoraqalpoq askarlaridan katta bir guruhi asirlikka tushib qoladi. Oradan ancha vaqt o'tadi, bu davr ichida asirlar ko'pgina xo'rlik va mashaqqatlarni boshlaridan kechirganlaridan keyin, hamyurtlari ularni asirlikdan qutqaradilar va shu paytda asirlar quvonganlaridan "ozodlik!" – bostandiqqa erishdik! deb qichqirishgan va shundan so'ng, bu baxtga erishgan joylarining erkini qo'riqlab, shu yerda yashab qolishgan ekan.

Tuman ma'muriy markazi hisoblangan G'azalkent shaharchasining xalq tilida ba'zan "G'azabkent" shaklida ham ifodalanishi haqida quyidagi naql yuradi: tumanning hozirgi markazi o'rnida qadimda yashagan aholini himoya qiluvchilar bu ishga qattiq kirishib, g'animga nisbatan kuchlari kamroq bo'lgani uchun taxminan hozirgi 20-sonli maktab, 6-sonli maktab-internat o'rnida shovullab o'sib yotgan qamishzor tarafga ataylab chekinganlar. Ustunlikka erishdik, himoyachilar qochyapti, deb o'ylagan bosqinchilar ularning orqasidan quvib, bu joylarga kirishganida, himoyachilar o'zlariga ma'lum bo'lgan so'qmoqlardan chekinishgan va qamishzorga o't qo'yib yuborishgan. Ham lovillab yonib turgan olov, ham tashqaridan qaraganda ko'rinmaydigan botqoqlik (u g'azalkentliklar yuzlab yillar mobaynida bu joylarda sholikorlik bilan shug'ullanganliklari natijasida hosil bo'lgandi) bosqinchilarning halokatlarini tezlashtirgan. Shuning uchun ulardan omon qolganlari o'z yurtlariga amallab yetib olishsa, bu taraflarga yurish qilmoqchi

bo'lganlarni shaharliklarning g'azablari qattiq ekanliklarini aytib ogohlantirganlar [3: 7].

Bizgacha yetib kelgan, biroq ilmiy jihatdan to'liq tasdig'ini topmagan, xalq folklori namunalarida ham saqlanib kelgan ma'lumotlarga qaraganda, taxminan miloddan avvalgi 326-325 yillarda Bo'stonliq hududiga yunon askarlari bostirib kirguniga qadar bu yerda (keyinchalik xaritalarda "Karvonsaroy" deb ko'rsatilgan) *Shohjuvor* (u hozirgi *Pskom* qishlog'ining o'rnida bo'lgan), *Lanket* (u *Tepar* qishlog'ining tepasida joylashgan), keyinchalik tarixchilar *Xarjankent* deb nomlashgan *Chimboyliq*, *Xo'jakent*, *Ardlanket*, hozirgi *Iskandar* qo'rg'oni o'rnida aholi yashaydigan maskanlar mavjud bo'lgan. Tumanning tog'li hududlarida *Sijjak*, *Nanay*, *Xumson* hamda yuqorida aytilgan shahar va qishloqlarda hayot "qaynagan"[3: 112].

Makedonskiy qo'shinlarining tuman hududida bo'lganligining dalili sifatida Chotqol daryosi vohasidagi qishloqlardan birining "Aflotun" deb atalishini misol qilib keltirishadi. Xalq og'zaki ijodidan olingan rivoyatga ko'ra, go'yo bu yerga kelishlarida o'zlari bilan podshosi Aleksandrning ustozlari Aflotunni ham hamroh qilib olib kelishgan va uning sharafiga ushbu joyga nomini berishgan ekan.

Iskandar qishlog'ining bunday nomlanishini esa mahalliy keksalar quyidagicha izohlaydilar: fotihning askarlari uncha katta bo'lmagan bu qishloqni uzoq vaqt bosib olisholmaydi, bundan xabar topgan Iskandar (bu paytda u qo'shinning asosiy qismi bilan bo'lajak Toshkent o'rnida bo'lgan aholi punkti atrofidagi joylarni fath etayotgan bo'lgan) bu yerga yollanma askarlari bilan yetib keladi va og'ir janglardan keyin qishloq himoyachilari taslim bo'lishadi. Ularni dorga osish uchun olib ketishayotganida asirlar orasidan 11-12 yoshlar atrofidagi bola shohga murojaat qilib, o'ziga suv berishni so'raydi. Iskandarning buyrug'i bilan bolaning iltimosi qondiriladi. Bola keyin boshqa asirlarga ham suv berishlarini so'raydi. Bu iltimos ham bajo keltiriladi. SHunda bolaning yana nimadir demoqchi bo'layotganini ko'rgan shoh:

- Tag'in nimani so'ramoqchisan? – deganida u:

- Shohim, siz bizga suv berdingiz. Ya'ni biz mehmon, siz esa mezbun bo'ldingiz. Mehmonlarini o'ldirish, qaysi millatning odatlari-yu qonunlariga to'g'ri keladi? Endi bizni o'ldirib yuborsangiz, dunyo ahli bu shoh mehmonlarini qatl ettirib, insoniylik sha'niga dog' tushiribdi, deb aytmaydimi? Bu sizdek jahongirga yarashmaydigan ishku! – debdi.

SHunda shoh bolani quchoqlab, uni va qolgan asirlarni ham ozod qilgan va mushtdek bolasi shu darajada aqlli bo'lgan bu yurti yengib bo'lmaydi deb, qo'shinlarini orqaga qaytargan ekan [3: 39].

Bo'stonliqliklar va parkentliklar o'zlarini sak (saqa) larning avlodlarimiz, deb hisoblaydilar. Kishilik hayoti dastavval tog'li hududlarda paydo bo'lganligi tarix va arxeologiya manbalaridan ma'lum. Ov birinchi kasblar-

idan bo'lgan bobokalonlarimiz ovda o'zlarining vafodor hamrohlari va yordamchilari, turargohlarida esa butun qabilalarining qo'riqchilari bo'lgan itlarga nihoyatda ixlos qo'yganlar, bu jonivorlar ularning sanami darajasiga ko'tarilgan. Bu e'tiqod-u ixlos shu darajagacha yetganki, ular o'zlarini shu jonivorning ixlosmandlari deb atay boshlaganlar. Vaqtlar o'tishi bilan "ixlosmandlari" so'zi tushib qolib qabila yoki qabilalar uyushmasi saklar deb atalib ketgan [3: 23].

Saklarning o'z yozuvlari bo'lgani haqida keyingi yillarda ilmiy nashrlarda maqolalar va boshqa materiallar chop etilmoqda, jumladan, ularning bir qismida saklar tilida va alifbosida yozilgan moddiy-madaniy yodgorliklarning namunalari Qozog'iston Respublikasining sobiq poytaxti yonidagi Issiq degan joydan topilgani, ular Olma-ota muzeyida saqlanayotgani, bular sak tilida yozuvlar bitilgan kumush idishlar ekanligi haqida xabar qilingan [4: 23].

Har yili Ramazon oyi boshlanmasidan bir oy burun bu hududlarda shak marosimi o'tkaziladi. Ya'ni uyida kimdir vafot etgan oila musulmonlarning muqaddas oyi boshlanishidan oldin besh-oltita odam chaqirib, "Qur'on" tilovat qildirib, shak o'qitadi. Boshqacha qilib aytganda, qachonlardir o'zlarining ozodlig-u tinchliklari uchun jonlarini qurbon qilgan askarlar – sak (saqa)lar yoki shaklarning ruhini shod qilib, ularni eslab qo'yadi. Shunisi e'tiborliki, bunday marosimni o'tkazish boshqa viloyatlarda va, hatto, Toshkent viloyatining boshqa tumamlarida ham yo'q.

Miloddan oldingi III-I asrlar oralig'ida saklarda ham tabaqalanish ro'y bergan. Ularning zodagonlari **dahlar** deb atala boshlangan. Bora-bora ular orasidan yana bir qabilalar guruhi – **parmlar** ajralib chiqqan. Otabobolaridan jangarilik, qat'iylik, harbiy ilm va mahoratni meros qilib olgan parmlar miloddan avvalgi 238 yili jang-u jadallar bilan Yaqin Sharq tomonlarga borib qolganlar va sobiq Midiya, Lidiya hamda Mesopotamiya, Assiriya davlatlarining bir qismini egallab, o'zlarining davlatlarini tuzganlar [5: 61-63]. Parfiya deb atalgan bu siyosiy birlik bir necha asrlar mobaynida tarix sahnasida kuchli davlatlardan biri bo'lib turgan. Miloddan avvalgi I asrning o'rtalaridan Mesopotamiyadan Hindistongacha bo'lgan hududlarni o'ziga bo'ysundirgan. Yangi davlatda kurash asosiy sport turi hisoblangan. Bu bejiz emas. Zero, parmlar, yuqorida aytilganidek, aslida saklar bo'lishgan va, tabiiyki, ularda hatto, qizlar ham kurash bilan juda yoshligidan shug'ullanganlar. Yunon tarixchisi Klavdiy Elian (II–III asr) saklarda bir odat borligini, unga ko'ra uylanishni istagan kishi qiz bilan yer ostidagi binoda qolib bellashishi lozimligi, agar qizni yengolmasa, u qizning asiri bo'lib qolishi haqida ma'lumot beradi [6: 321]. Sak ayollari erkaklar bilan bir qatorda janglarda ishtirok etishgan. Ular yovni aldash uchun yolg'ondan qochishga, xuddi erkaklardek ot ustida chopib keta turib orqalariga o'girilib kamondan o'q otishga mohir bo'lishgan [5: 61-63]. Bo'stonliqliklar va parkentliklar o'zlarining tarixiy ildizlarini ana shu parmlarga borib taqaladi,

deb biladilar. Bo'stonliqning tog'li hududidagi Polvonak qishlog'ining atamasining zamirida Parfiyaga, parmlarga ishora yotibdi, deb bilishadi. Chunonchi, hozir yoshlari 70 – 80 larni qoralab qolgan avlod vakillari o'zlarining bolalik paytlarida bu hududlarda to'ylar, ayniqsa, sunnat to'ylari belbog'li kurash-polvonsiz o'tmaganligini yaxshi eslashadi. Bu bellashuvlarda maxsus tayyorgarlik ko'rgan odamlar emas, to'yda qatnashayotgan hamma – yosh-u qari ishtirok etavergan. Gap g'alaba qozonib, qandaydir sovrin olishda emas, bu musobaqada qatnashib, yurtning an'analari barhayot ekanligini ko'rsatish, elga uning yukini ko'tarishga qodir odamlar bor, ularning ortidan esa munosib avlod o'sib kelayotganini namoyish etish bo'lgan. Sak-massaget xalq poeziyasi va tarixiy eposida bosqinchi dushmanlarga qarshi olib borilgan mardonavor kurash voqealari hamda yurt daxlsizligi uchun bo'lgan janglarda alohida jasorat ko'rsatgan bahodirlarning mislsiz qahramonliklari aniq faktlar va hayotiy lavhalar bilan tasvirlagan [7: 17].

Rus tarixchisi, sharqshunos olim V. Bartold Shoshda Istaxriy (arab muarrixi) 27 ta, Maqdisiy (arab geografi) 34 ta shahar mavjudligini yozgan, deb ko'rsatadi (bu shaharlarning uchdan bir qismi esa aynan, Bo'stonliq hududiga to'g'ri kelgan): "*Bosh yo'ldan sharq tomonga Janubkentdan ikki farsax narida Farnkent; o'sha joydan bir kunlik yo'l masofasida G'azak (k dan keyin yumshatish belgisi qo'yish kerak) bor*" [8: 175]. Bu tumanning hozirgi markazi G'azalkent shahrining dastlabki nomlaridan biri. Aslida atama etimologiyasi asosida Farah so'zi yotadi. U arabcha rohat-farog'at ma'nosini bildiradi. Zero, uzoq yo'ldan yozda charchab va chanqab kelayotgan odamlar hamda karvon bilan kelayotgan yo'lovchilarga muzdek suvi bor, qirg'oqlari salqin daryo, haqiqatan ham, jannatning rohati bo'lib tuyulganidan uni ana shu ma'noda ham farah deb atab yuborishgan bo'lsa ajabmas, shahar esa shu nomli daryoning bo'yida joylashgan (bu yerda Chirchiq daryosi nazarda tutilmoqda. Bu daryoning qadimgi nomlaridan biri **Farak** bo'lgan bo'lsa kerak, degan taxminlar bor. Bu so'z etimologiyasi **Parnak** degan atamadan kelib chiqqan, ya'ni qadimgi **parn** va **ak** qismlardan iborat. Ya'ni, "*parmlar yurtidan oqib kelayotgan suv*" degan ma'noni anglatar ekan) va bu nom bilan atalib ketganida ajablanarli jihat yo'q, deydi mahalliy ziyolilar. Gap bu atamaning **g'azak** shakliga kelib qolishida. Ammo arab alifbosi va arab yozuvi bilan tanish bo'lganlar buningayam hayron qolishmasa kerak, chunki **farak** so'zi boshlanadigan f harfi tepasida arab yozuvida bitta nuqta qo'yiladi (ف), **g'azak** so'zidagi g'ayn (غ) harfining tepasidagi nuqta ham bitta. Bosmaxonalar yo'q, hamma yozuvlar xattotlar tomonidan bitilgan paytlarda, **farak** so'zidagi r harfining ustiga bitta nuqta qo'yilib, f g'ayn-ga o'xshatib yozilsa, **farak** so'zi **g'azak** so'ziga o'xshash ko'rinish hosil qiladi [3: 28].

Bartold Turk va Iloq (Ohangaron) daryolari orasida yana bitta Ardlinket shahri borligini ko'rsatadi [8:

163]. Din tarixidan yaxshi xabardor bo'lgan, o'zi ham Toshkentdagi madrasani tugallagan tumanning marhum imom-xatibi Hoshimxon Hasanovning aytganlariga qaraganda, Abu Abdulloh Ansoriy boshchiligidagi arab qo'shinlari VIII asr boshchiligidagi O'rta Osiyo yerlarini, shu jumladan hozirgi Bo'stonliq tumani hududlarini ham fath etib, ularni islomga da'vat qilganda, ardlanketliklar bunga ko'nishmagan. Arab lashkarboshisining do'qlariyu po'pisalaridan esa qo'rqishmagan va kurashni davom ettiraverishgan. Ularni kuch bilan yenga olmasligiga ko'zi yetgan Abdulloh Ansoriy oxiri Yaratganning o'ziga murojaat qilib, "Ey Egam, men bu bandalaringni sening yo'lingga sololmadim, ularning jazosini o'zing ber, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsat!" – deb iltijo qilganidan keyin osmondan qilich tushib, shaharliklarni qira boshlabdi. Bir tomondan arablar, ikkinchi tomondan osmondagi qilich zarbalaridan ardlanketliklar Chotqol va Ko'ksuv daryosining birlashadigan joyiga, burchakka yetganidan keyin, chekinishga joy qolmagach, iymon keltirib, islomni qabul qilishgan va bular burchakda mulla bo'lishdi, degan ma'noda shaharning nomi ham Burchimulla bo'lib ketgan ekan.

"Ardlanket" atamasining yana bir shakli "Arndanket" bo'lgan. Chunki G'azalkentdan Burchimullaga olib boruvchi oldingi yo'l Yusufxona qishlog'idan o'tgan va yo'lining qishloqdan chiquvchi qismidan qaralganida shahar chuqurda, pastlikda joylashgandek ko'ringan. U o'sha paytlarda, ya'ni mo'g'ul bosqinidan burun, hozirgi joyidan ancha pastroqda, Chotqol daryosining o'ng qirg'og'ida bo'lgan va uning nomi ham shundan kelib chiqqan holda arabcha *ard* – yer, *nal* – past hamda sug'dchada *kent* – shahar ma'nosini bildiruvchi so'zlarning birikishidan yasalgan. Keyinchalik *nal* ning *lan* shakliga o'tishi tilshunoslikdagi metateza hodisasidir [3: 35].

"Parkent" toponimining paydo bo'lishi haqida ham xalq og'zaki ijodida bir qancha naqlar mavjud. Mahalliy aholining ba'zilar Parkent *juft* (par) *qishloq*, ya'ni soyning ikki sohilidagi qishloq deyishadi (Uchqo'rg'on va O'choq dahalari nazarda tutilgan). Ba'zilar esa bu yerda parisimon odamlar yashagani uchun *Pari kent* – *parilar* shahri nomini olgan deb taxmin qilishadi. Yana bir fikrga ko'ra, *Farkat* – *farovon qishloq*. *Par* – baland ma'nosiga ham egaligi hisobga olinsa, Parkat *baland qishloq* ham bo'lishi mumkin. Albatta, bu naql va rivoyatlar judayam asossiz emas. Qishloqning qadimgi nomi Farnkat (Farkat) ekanligi ham shubha tug'dirmaydi. Bunga yuqorida nomlari keltirilgan qadimgi geografning qo'lyozmalarida bu manzilning shu nom bilan qayd etilishi yetarli dalildir. *Kat* qo'shimchasi sug'd tilida *obod joy* – shahar yoki qishloqni, *Far* – nurni bildirishini hisobga olib, *nurafshon qishloq* desa ham bo'ladi. Lekin qadimshunoslar, Farkat toponimasi zardushtlik diniga bog'liq ma'budlardan biri – *Farn* (Farn – ilohiy oliy zot. Baxt, omad ramzi, nurli siymo. Oq qush, oq qo'y, oq ot va boshqa qiyofalarda tasavvur qilingan. Avestocha

– Xvarno)ga bag'ishlangan ibodatxona nomidan kelib chiqish ehtimoli ko'proq, deb bilishadi. *Xvarno* so'zi ilk fors tilida farn, so'ng *far*, sug'd tilida esa *par* shaklida ishlatilgan. Masalan, *farax* – baxtli hayot (vaxi avestocha – *hayot*) [9: 62].

Farkat nomining Parkat, Parkentga o'zgargan vaqtini aniqlash qo'shimcha tadqiqot manbalarini talab qiladi. Fors va arab olimlarining sayohatnomalarida Farkat nomi bilan tilga olinishi, arablar istilosi va undan keyingi davrlarda ham mazkur hududning shu nom bilan atalganini bildiradi. Mo'g'ullar istilosi davrida Farkat vayron bo'lib, 100-150 yillardan so'ng sekin-astalik bilan bu hudud yana qayta tiklangan. O'sha davrlarda ushbu joy Parkent nomi bilan tiklangan bo'lishi mumkin, degan ehtimol ham yo'q emas.

Tumandagi Sanganak qishlog'i Parkentdan 22 km janubi-sharqda Sanganak daryosining chap sohilida joylashgan. Bu yerda yashovchi aholining ham ko'pchiligini tojik millatiga mansublar tashkil qiladi. Qishloqning toponimikasi to'g'risida mahalliy aholi orasida ikki rivoyat mavjud. Birinchi fikrga ko'ra, taxminan 500 yillar muqaddam, bu yerga hozirgi Angren hududidan ko'chib kelgan Sangan degan shaxs joylashishi bilan bog'lanadi. Ikkinchi fikrga ko'ra, sangtosh, ya'ni Sanganak "toshloq qishloq" ma'nosini bildiradi. Professor M.Shermatov taxminiga ko'ra Sanganak so'zining o'zagi "sangi", lotincha "Sanguines", ya'ni qondek qizg'ish rang ma'nosini bildiradi. SHuning uchun uning nomi Sanganak daryosining yuqori qismida tarqalgan qizil rangli qoyatog' jinslari bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin [10, 77].

Changi qishlog'i Parkentdan 4-6 km sharqda, Parkentsoy sohillarida joylashgan. Changi qishlog'i ham qadimiy qishloqlardan biri bo'lib, uning paydo bo'lishi, nomlanish tarixi va etimologiyasi haqida ilmiy manbalarda ma'lumot topilmagan. Qishloq nomi haqida mahalliy aholi orasida bir necha taxminlar mavjud. Ba'zilar "Changi" so'zi fors tilida "Jasur" degan ma'noni bildiradi, deyishsa, ba'zilar dastlabki qishloq aholisi, Qo'qon shahridan 26 km masofada joylashgan "Changi" qishlog'idan ko'chib kelgani uchun shu nom bilan qishloqni atashgan deyishadi. O'z davrida qishloqning yon-atrofi mol boqishga qulay bo'lgani sababli bu yerlarda qadimdan mohir chorvadorlar yashab, mol haydash paytida ko'tarilgan chang uzoqdan ko'rinishi – uning toponimikasiga urg'u bo'lgan bo'lish ehtimoli [10, 81] bo'lganligidan qishloqning nomi kelib chiqqanligi haqiqatga yaqinroqdir. Aytishlaricha, Hisarak qishlog'iga ko'chib kelgan ajdodlar, Zarkent qishlog'i aholisi bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatishgan. Zarkentliklar ularni "hisaraki" – "hisorliklar", ya'ni Hisordan ko'chib kelganlar, deb aytishgan. Shu zaylda "Hisarak" toponimi vujudga kelgan [10, 83].

Professor S. P. Tolstov: "Mamlakatlarning qadimiy nomlari aksar holda etnik (xalq, qabila) ismlar bilan bog'liq, bu ismlar esa afsonalardan olingan" [11, 88], – deya bejizga ta'riflamagan.

Joy nomlari o'zida ma'lum bir lingvomadaniyatga xos tarixiy va ijtimoiy hodisalar, madaniy, tabiiy-davriy genezislar, diniy-mifologik qarashlari bilan bog'liq bo'lgan axborotni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu faktorlar joy nomlariga nisbatan faqatgina geografik ob'ekt nomini bildiruvchi toponimik atama sifatida emas, balki unga tegishli bo'lgan onomastikonda istiqomat qiluvchi

xalqning turli davrlarga xos bo'lgan tarixiy-madaniy etnogenezisini aks ettiruvchi madaniy axborot "kodi" sifatida qarash lozimligini anglatadi. Zero, *har bir hudud xalq mentaliteti va madaniyatining o'ziga xos, qaysidir ma'noda, "berkinib yotgan" xususiyatlarini saqlaydigan o'ziga xos topomakondir* [12: 5].

Adabiyotlar

1. Юлдашев Д.Т. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Фил. фан. доктори (DSc) дисс-си автореферати, – Тошкент, 2021. – 75 б.
2. Жўраева М.М., Хамидова М.Х., Лингвокультурология ва лингвокультурема // Бухоро davlat universiteti ilmiy axboroti, № 4. – Бухоро, 2019. –Б. 111-114.
3. О.Исмонов, М. Миркомиллов. Бўстонлик: кеча, бугун, эртага. –Т.: "Fan va texnologiya", 2019, –Б 152.
4. Акишев К. А., Кушаев Г. А., Древняя культура саков и усуней долины р. Или, Алма-Ата, 1963, –С 320.
5. ЎзМЭ, 7-жилд, С ҳарфи. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. –Т.: –Б 839.
6. Назаров Р., Равшанова Г. Темурийлар даврида ўзбек миллий курашининг юксалиши // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture электрон журнали., манба: https://zenodo.org/record/6325607#.Yn-n6_NBzIU
7. Кучкаров Т. Ёзма манбалардаги эпик сюжетларнинг бадиий эволюцияси. Фил. фан. бўй. фал. доктори (PhD) дисс-си автореферати, –Самарқанд, 2018. – 44 б.
8. Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия, Санкт-Петербург, 1900 г. с. 763.
9. Авесто. Яшт китоби. Т., Шарқ, 2001, - 108 б.
10. Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани. Т., Ўқитувчи, 2006, - 149 б.
11. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб, - Т.: Фан, 1964. - 154 б.
12. Давлеткулова Л.Н. Топонимы в лингвокультурологическом аспекте (на примере географических названий графства Оксфордшир и Челябинской области). кан. дисс. фил. наук. Челябинск 2014. –С. 220.

O'Imas SAIDOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasida tayanch doktoranti

O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINI KORPUS LINGVISTIKASIDA SEMANTIK TEGGLASH MASALASI

Annotatsiya: Fan-texnika va madaniyatning beqiyos rivoj topishi, ijtimoiy-siyosiy aloqalarning tobora o'sib borishi o'zbek tili ish yuritish terminlari tizimida ham ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ladi. Ayni paytda, bu soha terminlarining ahamiyati va korpus lingvistikasidagi o'rnini aniqlashtirish masalasini yaqqol namoyon etadi. Terminologik tizimlarda mavjud bo'lgan yoki yuzaga kelayotgan atamalardan mosini tanlab olish, termin sifatida tavsiya etilayotgan yoki mavjud termin o'rniga almashtirilayotgan yangi terminlarni ilmiy asoslash eng maqbul yo'l hisoblanadi. O'zbek tilida mukammal hujjatchilikni yaratish, uning atamalarini chegaralab olish, terminlarning lingvistik korpusda semantik teglash ehtiyoji bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Kalit so'zlar: korpus, korpus lingvistikasi, lingvistik razmetka, metarazmetka, semantik teglash, o'zbek kompyuter lingvistikasi, termin, terminosistema, lisoniy tizim, leksikografik ta'minot, lingvistik ta'minot.

Abstract: The unprecedented development of science, technology and culture, growing socio-political ties contribute to positive changes in the system of terms of office work in the Uzbek language, which clearly demonstrates the importance of the terms of this sphere and their place in corpus linguistics. Of the terms existing or emerging in terminological systems, the optimal choice is the appropriate, scientific substantiation of new terms proposed as terms or replacing existing ones. The creation of a perfect documentary in the Uzbek language, the delimitation of its terms, the need for semantic marking of terms in the linguistic corpus are topical issues of today.

Key words: corpus, corpus linguistics, linguistic markup, metamarkup, semantic marking, Uzbek computational linguistics, term, term system, language system, lexicographic support, Linguistic support.

Аннотация: Беспрецедентное развитие науки, техники и культуры, растущие социально-политические связи способствуют позитивным изменениям в системе терминов делопроизводства узбекского языка, что наглядно демонстрирует важность терминов данной сферы и их место в корпусной лингвистике. Из существующих или возникающих в терминологических системах терминов оптимальным является выбор подходящего, научное обоснование новых терминов, предлагаемых в качестве терминов или заменяющих существующие. Создание совершенного документализма на узбекском языке, разграничение его терминов, необходимость семантической маркировки терминов в лингвистическом корпусе являются актуальными вопросами сегодняшнего дня.

Ключевые слова: корпус, корпусная лингвистика, лингвистическая разметка, метаразметка, семантическая маркировка, узбекская компьютерная лингвистика, термин, терминосистема, языковая система, лексикографическое обеспечение, Лингвистическое обеспечение.

1. Недостроенное жилье и земельный налог // «Бухгалтерский учёт», 2004.12.06 [омонимия снята] Все примеры (1)
Если гражданин не пожелает добровольно выполнить **уведомление** или требование налогового органа о доплате, налоговый орган обязан обратиться в суд общей юрисдикции с заявлением о взыскании денежных сумм. [Недостроенное жилье и земельный налог]
2. Светлана Сухова. Мы можем просчитать вас полностью // «Итоги»
А дальше — дело техники: налогоплательщику — физическому лицу — необходимо уведомить налоговый орган о том, что он является плательщиком налога. [Светлана Сухова. Мы можем просчитать вас полностью]
3. Договор на поставку оборудования (2003) [омонимия снята] Все примеры (1)
Неуведомление или несвоевременное **уведомление** лишает виновную Сторону права на освобождение от обязательств вследствие указанных обстоятельств. [Договор на поставку оборудования (2003)] [омонимия снята]
4. Договор о туристических услугах (2003) [омонимия снята] Все примеры (1)
Неуведомление или несвоевременное **уведомление** об указанных обстоятельствах лишает Стороны права ссылаться на любые из этих обстоятельств и не освобождает от ответственности по настоящему Договору. [Договор о туристических услугах (2003)] [омонимия снята]
5. Уведомление о постановке на учёт (2003) [омонимия снята] Все примеры (1)
УВЕДОМЛЕНИЕ об установке на учёт в налоговом органе физического лица по месту его жительства [Уведомление о постановке на учёт (2003)] [омонимия снята]

1-rasm. Rus tili milliy korpusida so'zshakl haqidagi ma'lumotlar oynasi

Lingvistik razmetka (tagging, annotatsiya) – matnlarga va ularning tarkibiy qismlariga maxsus yorliqlarni biriktirishdir. Lingvistik razmetka korpus tilshunosligining asosiy tushunchalaridan biridir. Korpusda matnlarni razmetkalash turli xil parametrlar orqali qidirishga imkon beradi.

Razmetkalash bir qator talablarga javob berishi kerak. Razmetkalash talablari Djefri Li tomonidan ishlab chiqilgan (Leech 1993). Jumladan: 1) razmetkalash matndan mustaqil bo'lishi kerak (razmetkani olib tashlash va matnni usiz ham ko'ra bilish mumkin bo'lishi va aksincha, faqat razmetkani ajratish uchun kerak); 2) razmetka tamoyillari va ularni ishlab chiquvchilar oxirgi foydalanuvchiga ma'lum bo'lishi kerak; 3) foydalanuvchiga razmetkalash xatosiz emasligi, balki faqat potensial foydali vosita ekanligi haqida xabar berish kerak.

Korpusni semantik ma'lumotlar bilan boyitish ishlari to'rt bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Semantik tavsiflovchilar inventarizatsiyasini ishlab chiqish;
2. Leksemalarga tayinlangan semantik tavsiflovchilar bilan semantik lug'atni yaratish va ushbu lug'atni bosqich tizimining kombinatorial lug'ati bilan muvofiqlashtirish;
3. Semantik ma'lumotni allaqachon mavjud bo'lgan tizimga kiritib, matnlarning morfologik va sintaktik jihatdan o'lchamli korpusini yaratish;
4. Semantik axborot bilan ishlash vositalarini yaratish.

O'zbek korpus materiallarini semantik teglash masalasi Sh.Xamroeva tadqiqoti'da qisman ishlangan. Ushbu tadqiqotda semantik guruh, to'da va maydon tasnifining matnni semantik teglashdagi ahamiyati o'rganilgan, o'zbek tili semantik maydonlari tasnifi asosida semantik teg modellari ishlab chiqilgan. Semantik teglashda faqat tushunchadan so'zga, ya'ni onomasiologik aspektdan yondashuv asosidagi qidiruv haqida fikr yuritilgan. Til birliklarini semantik teglashda maydon

nazariyasi asosida semantik teglar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar asosida korpus semantik qidiruvini mukammallashtirish, til birliklarini avtomatik semantik teglashning lingvistik ta'minotini ishlab chiqish – galdagi vazifa sifatida belgilangan.

A.Eshmo'minov tadqiqotida semantik razmetka tushunchasi, vosita va usullari, semantik razmetkaning korpus va uning foydalanuvchisi uchun ahamiyati hamda uning lingvistik bazalari: imkoniyat va metirallari xususida batafsil ma'lumot berilgan².

D.Axmedovanning dissertatsiyasida esa atov birliklarini semantik teglashning modellari hamda o'zbek tili birliklarini leksik-semantik teglashning korpus uchun lingvistik ta'minoti ishlab chiqilgan³.


Dunyo korpuslarida IYUTlarining berilishi muammosi. Dunyo korpus lingvistikasida semantik tahlil masalasini hal etish hali to'liq o'z echimini topgani yo'q. CHunki semantika murakkab tarmoq bo'lib, uni kompyuter dasturlari "tushunishi" oson kechmaydi. SHuning uchun jahon tilshunosligida haligacha mukammal semantik analizatorlar yaratilmagan.

V.A.Tuzovning "Kompyuternaya semantika russkogo yazyka"⁴ kitobi zamonaviy informatikaning asosiy muammolaridan biri – rus tilidagi matnlarni semantik tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda semantik til, rus tilining semantik lug'ati, algoritm masalalari borasida amaliy ishlar ko'rsatilgan va hal etilgan.

Quyida bir necha til korpusida semantik belgilar asosidagi qidiruvda IYUTni qidirish imkoniyatini kuzatamiz va tahlil etamiz. Buning uchun rus tili milliy korpusining semantik qidiruv⁵ imkoniyatidan foydalanish mumkin.

Rasmlarda ko'rinib turganidek, semantik qidiruv oynasida IYUTlarni bildiruvchi yoki shunday so'zlarning semantik maydoni/leksik-semantik guruhini ifodalovchi maxsus parametr mavjud emas.

E'tibor berilsa, so'z haqida berilgan ma'lumotlar sirasida (sm. v slovare) giperhavolasi ko'rinadi. Bu havolaga murojaat qilinganda ma'lum bir so'zning lug'atlar⁶da gi izohi ochiladi (2-rasmga qarang):



https://academic.ru/searchall.php?5Word=уведомление

АКАДЕМИК
academic.ru

уведомление

Найти

Толкование Перевод Книги Студентам

уведомление

Толкование Перевод Книги

- УВЕДОМЛЕНИЕ** — (advice note) Уведомление, отправленное покупателю поставщиком товаров, о том, что его заказ выполнен. Такое уведомление может либо сопровождать товары, либо посылаться отдельно, предшествуя, таким образом, счету фактуре (invoice) и транспортной…
Словарь, бизнес-термины
- УВЕДОМЛЕНИЕ** — См. известие, письмо... Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений... под ред. Н. Абрамова, М.: Русские словари, 1999. уведомление вест ...
Словарь, синонимы
- УВЕДОМЛЕНИЕ** — УВЕДОМЛЕНИЕ, уведомления, ср. (офиц.). 1. только ед. Действие по гл. уведомить уведомлять. 2. Документ, письмо, содержащее известие о чем нибудь. Получить уведомление из банка. Толковый словарь Ушакова. Д.Н. Ушаков. 1935 1940 ...
Толковый словарь, Ушакова
- УВЕДОМЛЕНИЕ** — (неправильно уведомление) ...
Словарь, трудностей произношения и ударения в современном русском языке
- УВЕДОМЛЕНИЕ** — УВЕДОМЛЕНИЕ, я, ср. 1. см. уведомить. 2. Документ, к рым уведомляют о чем н. (офиц.). Получить у. по почте. Письмо с уведомлением о вручении. Толковый словарь Ожегова. С.И. Ожегов, Н.Ю. Шведова. 1949 1992 ...
Толковый словарь, Ожегова

Тариф «Конструктор»

Решай сам, каков будет твой тариф


Тариф "Конструктор"

Теперь ты сам решаешь, каков будет твой тариф. Подключайся!

beeline.uz

ПЕРЕЙТИ

2-рasm. Rus tili milliy korpusidan giperhavola orqali lug'atlardan ma'lumot olish oynasi



english-corpora.org/bnc/

British National Corpus (BNC)

SEARCH FREQUENCY CONTEXT ACCOUNT

FIND SAMPLE: 100 200 500 1000
PAGE: << 1/98 >>

☒ CLICK FOR MORE CONTEXT

HELP SAVE TRANSLATE ANALYZE

1	CH1	W_newsp_tabloid	Q	For full details of cost and cover, send for the Age Concern Pet Insurance application form to: ACIS, Garrod House, Chaldon Road, Caterham, Surrey CR3
2	CH1	W_newsp_tabloid	Q	Office had replied to Sheffield Labour MP David Blunkett, who had asked about an application from his constituent Mrs Fadumo Said. Mrs Said, a refugee from:
3	CH1	W_newsp_tabloid	Q	to join her here. Both women lost their husbands in the war. The application was made in January 1990. Two-and-a-half years later it has now been turned down
4	CH1	W_newsp_tabloid	Q	Bryson for having a farewell shandy with office colleagues. Alex, 63, whose application against the sacking failed yesterday lost 20,000 redundancy. The Sun dev
5	CH1	W_newsp_tabloid	Q	have been made redundant from a skilled or semi-skilled job you are eligible. Your application will be considered more favourably if you take some money with
6	CH2	W_newsp_tabloid	Q	bankrupt in London's High Court, it was revealed yesterday. It followed an application by the finance house, Lloyds Bowmaker. Fifty-year-old Mr Bowes-Lyon -- ti
7	CH2	W_newsp_tabloid	Q	63-year-old wife Mary on land two miles from his home near Ponteland. But his application was turned down in 1985, 1986 and 1991. And the latest rejection we
8	CH3	W_newsp_tabloid	Q	as a special game.' The organisers of Young England RC are printing 500,000 application forms to be issued to schools and rugby clubs. # TWICKERS IN A TWIST
9	CH6	W_newsp_tabloid	Q	line cost him 5,000. A City of London County Court judge rejected the jail application on a legal technicality. After the case Mr Bedi vowed to fight on over
10	CH6	W_newsp_tabloid	Q	being rebuilt for 83 million. Sell-off plans for Manchester slipped out when application forms for bids went out. The proposals to test the market
11	CH7	W_newsp_tabloid	Q	spearhead England's World Cup qualifying campaign. The Sheffield United marksman posted an early application to succeed Gary Lineker by producing his leth
12	K29	W_newsp_other_science	Q	at people with either a personal or professional interest in the counselling of cancer-sufferers. # Application form The course has room for 20 students and app
13	K29	W_newsp_other_science	Q	and applications are invited from men and women. Selection will be based on an application form and an interview. Admission is free although a commitment c
14	K29	W_newsp_other_science	Q	of counselling/ training hours per week will be required on completion of the study. Application forms and further information from Karen Meehan on Derry 36

3-рasm. Britaniya milliy korpusi (BNC)da so'zshakl haqidagi ma'lumotlar oynasi

Endi Britaniya milliy korpusining semantik qidiruv imkoniyatidan foydalanib ko'ramiz.

Ko'rinadiki, Britaniya milliy korpusi (BNC)da ham semantik qidiruv oynasida IYUTlarni bildiruvchi yoki shunday so'zlarning semantik maydoni/leksik-semantik guruhini ifodalovchi maxsus parametr mavjud emas⁶. Qidiruvga berilgan "application" co'zining "find simple" qismida shu IYUT qatnashgan kontekstlar miqdori ko'rsatilgan. Oynada "save", "translate", "analyze" degan programmalar mavjud bo'lib, "save"da so'zshakl konteksti saqlanadi, "translate" tugmasi bosilsa, so'zshakl qatnashgan gap tarjima qilinadi, "analyze"da esa o'sha kontekstdagi har bir so'z tahlil qilinadi.

Yuqoridagi ikki korpus (RTMK hamda BMK) tavsiylardan xulosa qilish mumkinki, semantik razmetkalan-

gan Rus tili milliy korpusida ham, Britaniya milliy korpusida ham korpus ichida turib IYUT haqida to'la ma'lumot olish imkoni mavjud emas, qidiruv berilganda giperhavola orqali lug'atlardan uning izohini o'qish mumkin bo'ladi. Misollarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu birliklar umumiste'mol so'z mavqeida bo'ladi, terminologik ma'nosi maxsus belgi yoki pometa bilan ajratilmaydi. Shunday belgisi bo'lmaganligi sababli bu korpuslarning semantik razmetkasi haqida so'zning terminologik ma'nosi maxsus teglanmagan korpus deb xulosalash mumkin. So'z izohi haqida ma'lumot olishning korpus birligini elektron lug'atga giperhavola orqali (RTMK) birlashtirish yoki onlayn tarjima dasturi orqali (BMK) amalga oshirish imkoniyatigina mavjud.

O'zbek kompyuter lingvistikasida terminlarni korpuslarda berish masalasini hal etish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlangan. Jumladan, I. Islomovning doktorlik dissertatsiyasida o'zbek geografik terminlarining til korpuslarida berilishi masalasi tahlil etilgan. Ishda jahon korpuslarida geografik terminlarning berilishi muammosi, o'zbek tilining milliy korpusida geografik terminlarni berish masalasi hamda o'zbek tili ta'limiy korpusida geografik terminlar razmetkasi atroflicha tahlil etilgan⁷. Muallif semantik annotatsiyalash uchun ma'lumotlarni tilda mavjud (agar mavjud bo'lsa) elektron lug'atlardan eksport qilish yo'li bilan yarimavtomatik usulda olish to'g'ri tanlov bo'lishini, shunda ham elektron lug'atdagi ma'lumotlarni olishda ma'lum ma'lumotlar qo'lda tahrirlanishi maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi.

Xulosa. — IYUT semantik ma'lumotlar bazasini yaratishda so'zlik, semantik izoh va semantik teglar talab etiladi. Ma'lumotlar omboriga kiritiladigan axborotlar so'z, izoh, ish yuritish termini ekanligi haqidagi belgi, semantik teg, etimologiyasi, terminning turkumga mansubligi kabi parametrlardan tashkil topadi.

— O'zbek tili milliy korpusi uchun IYUT bazasi ish yuritish terminlari (1), leksikografik ta'minot (2) va lingvistik ta'minot (3) kabi tarkibiy qismlardan tarkib topishi maqsadga muvofiq.

— O'zbek tili izohli lug'atlardagi IYUT izohida maxsus ko'rsatma, havola va pometalar mavjud emasligini inobatga olib, axborot ma'lumotlar bazasida qo'lda ishlov berilishi kerak. Shundagina ma'lumotlar bazasi mukammal bo'ladi va ularni semantik razmetkalash muammosi qisman hal etiladi.

1. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. — Бухоро, 2018. — 250 б.

2. Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Монография. — Термиз, 2021. — 118 б.

3. Ахмедова Д.Б. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари: Филол. фан. Бўйича фал. доктори (PhD) диссертацияси. — Бухоро, 2020. — 247 б.

4. Тузов В.А. Компьютерная семантика русского языка. — С.-Петербургского университета, 2003. — 391 с.

5. <https://ruscorpora.ru/new/reqsem.html>

6. <https://academic.ru/searchall.php>

7. <https://ruscorpora.ru/new/reqsem.html>

8. <https://www.english-corpora.org/bnc/>

9. Ислотов И. Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини: Фил.фан.док-ри дисс... — Қарши, 2021. — 215 б.

Munira RAMAZONOVA,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tarixi muzeyi
mutaxassisi, mustaqil izlanuvchi

TASVIRIY SAN'AT ORQALI O'SMIRLARDA MA'NAVY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasviriy san'at orqali o'smirlarda tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, o'smirlarni milliy urf-odatlar, ma'naviy pok inson qilib tarbiyalash hamda vatanparvarligini rivojlantirishda tutgan o'rni haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada pedagogning asosiy vazifalari, tasviriy san'atga bo'lgan e'tibori kabilarga ham keng to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Avlodlar tarbiyasi, axloq-odob, madaniyat, jamiyat, millat, til, urf-odat, avtoritar tarbiya.

Abstract. In this article, the opinions about the role of visual arts in the development of basic spiritual and moral qualities in teenagers, in the development of national traditions, morally pure people, and in the development of patriotism are scientifically analyzed. Also, the main tasks of the pedagogue, the attention to fine arts were extensively discussed in the article.

Key words: Generational education, morality, culture, society, nation, language, tradition, authoritarian education.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы мнения о роли изобразительного искусства в развитии основных духовно-нравственных качеств у подростков, в развитии национальных традиций, нравственно чистых людей, в развитии патриотизма. Также в статье широко обсуждались основные задачи педагога, внимание к изобразительному искусству.

Ключевые слова: Воспитание поколен, нравственность, культура, общество, нация, язык, традиция, авторитарное воспитание.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligidan so'ng xalqimizning milliy urf-odatlarini madaniy hayotimizda yanada yorqinroq namoyon bo'la boshladi. Ayonki, o'zbek xalqining madaniy hayotida necha ming asrlardan beri davom etib kelayotgan urf-odatlar avlodlar tarbiyasida muhim o'rin egallab kelmoqda. Bugungi kunda axloqiy madaniyat masalasining dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yilishi davlatimiz milliy mustaqilligi va tamomila yangi insoniy jamiyat qurish bilan bog'liqdir. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlod ongini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda axloq-odob g'oyalari yo'g'rilgan soflik, adolat, yaxshilik, hurmat, izzat kabi ijodiy fazilatlar bilan sug'orish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib-qoidalarining majmui, madaniyati sifatida gavdalanadi. Demak, insonning jamiyatga, oilaga, mehnatga bo'lgan munosabatida uning axloqi namoyon bo'ladi. Inson hatti-harakatida, shaxs sifatidagi faoliyatida eng muhim belgilar mujassamlanib, uning kamol topishida xulq qoidasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Axloqiy madaniyat bolalikdan shakllanadi. Yoshi ulg'ayishi bilan axloqiy me'yorlar ham kengayib boradi. Axloq madaniyatini kishi faqat oilada, bolalar bog'chalarida, maktabda va oliy o'quv yurtlaridagina emas, balki umr bo'yi hayotdan ham oladi. Hayot o'sib, rivojlanib borganidek, axloqiy madaniyat ham o'sib, yangi-yangi qirralar kashf etib boradi. Axloqiy madaniyat kishi faoliyatini va madaniyatini belgilovchi jarayon bo'lib, uni barcha xatolardan saqlaydi, natijada kishining xulqiy go'zalligi ortadi. Axloqiy madaniyat odamning ma'naviy etukligini, tarbiyali ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham axloqli kishi el o'rtasida e'zozlidir. Axloqiy madaniyat insoniy fazilatlarini, kishi qadrini oshiruvchi qimmatli sifatidir. U ta'lim-tarbiyaning asl mevasidir. Aqlning tayanchi hisoblangan axloqiy madaniyat barcha fazilatlarining sha'ni va hikmatidir. Axloqiy madaniyat – Vatanga, jamiyatga, millatga, tilga, urf-odatga, tarixga, kelajakka, tabiatga bo'lgan munosabatlarda, kishilarning bir-biriga, oilaga qilgan hatti-harakatlarida, xulqida namoyon bo'ladi. Jamiyat manfaatini ko'zlash, mas'uliyatli bo'lish axloqiy madaniyatli kishining vazifasidir. Chunki, mas'uliyatli, ongli faoliyat jamiyat, oila va hayotning o'ziga xos maromini belgilaydi. Kishi o'z hayotida qancha axloqiy madaniyatga intilsa, shunchalik o'z kamchiliklarini tushunib boradi. Milliy urf-odatlar mazmunida xalqimizning o'ziga xos noyob odatlari, madaniyati, hayot qonunlari mujassamlashgan. Shu sababli ham milliy urf-odat inson qadr-qimmatini ulug'lash bilan birga jamiyat taraqqiyotiga faol yordam beradi. Shuning uchun ham milliy urf-odatlar ijtimoiy hayotda doimo saqlanib kelmoqda.

Milliy urf-odatlarining bosh maqsadi — kishilarning har tomonlama etuk, axloqli va ma'naviy pok inson qilib tarbiyalashdan iborat. Shunday ekan, o'smirlarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda milliy urf-odatlar

ing tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. Chunki ularning mazmunida do'stlik, mehr, hurmat - ehtirom, yaxshilik, to'g'rilik kabi xislatlar o'z ifodasini topgan¹.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Avtoritar tarbiya – oilada va umuman tarbiya shaxobchalarida bola tarbiyasida katta yoshdagilar (ota-ona, aka-opa va boshqalar) yoki tarbiyachilar azmu irodasini ustun qo'yish. Uning ko'pgina asosiy qonun-qoidalari nemis psixolog va pedagogi I.F. Gerbart (1776-1841) ning pedagogik nazariyasida o'z aksini topgan. Bunga ko'ra, Avtoritar tarbiya asosan, bolalarni boshqarishda tashabbuskorlikni inkor etib, to'la bo'ysunish tizimini vujudga keltirishni nazarda tutadi. Unda tarbiyalanuvchi imkoniyatlari cheklanadi, tarbiyachi tomonidan belgilangan topshiriq va vazifalar ma'lum tartib asosida amalga oshiriladi. Uyg'onish davridan boshlab ko'pgina taraqqiyparvar pedagog olimlar (YA.A.Komenskiy, J.J.Russo, Abdulla Avloniy va boshqalar) Avtoritar tarbiyaga qarshi chiqishgan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng tarbiyada bolalarga ishonitirish yo'li bilan ta'sir qilish, ularning ruhiy holatini o'rganish, yosh avlodni ma'naviy -axloqiy, madaniy - estetik tarbiyalashda xalqning boy milliy - madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishni, shaxsni har tomonlama kamol toptirish ustuvorligini ta'minlashni nazarda tutadi.

SHarq xalqlari an'anaviy tarbiyasida ota-ona, ustoz, muallimlar mavqei, obro' e'tibori yuqori bo'lgan. Albatta tarbiyada ularning azmu irodasi ham ustun turgan. Lekin bu azmu iroda azali avval boladagi layoqat, tashabbusni qo'llab quvvatlashga, ular ongida sharqona axloq-odobni shakllantirishga, barqarorlashtirishga qaratilgan².

Tasviriy san'at vositalari orqali o'smirlarni tarbiyalashda bolaning har qadamida qandaydir bir ijodni ko'rasiz. Bolalar o'yinlari - bular ham ijod. Qarang, u olib bergan kubigingizdan rasmga qarab ajoyib ko'p qavatli uy yasabdi. Qoyil, xuddi o'zidek qilibdi. Boshqa bir farzandingiz qog'ozdan qush yasab uchiryapti. "Qush"ning buralib uchishidan u qanchalik zavq olyapti. Uning zavqiga siz ham qo'shiling. Qandaydir yo'l bilan rag'batlantiring. Agar shunday qilmasangiz - uning o'yinlaridagi "ijodiyoti"ga turtki bermasangiz, u maktabga borganda o'z xayol - o'yinlarini, topqirliklarini namoyon eta olmaydi.

"Bo'ladigan bola boshidan ma'lum" degan iborada jon bor. Katta-katta ixtirolar qilgan olimlar bolalik davrlarida hamma narsaga qiziquvchan, intiluvchan, zehnli bo'ladilar. Afsuski, yoshligida ijodga layoqati kuchli bo'lgan ba'zi bolalarda katta yoshga etganda buning so'nishi ham kuzatiladi. Buning asosiy sababi oila va maktabda aqliy, emotsional va estetik hayotning qashshoqligidir.

Shuni unutmaslik kerakki, miyaning quvvati - yoshlikda shaklanadi. Maktab o'quvchisida bu quvvat turlichadir. Buning sababi nimada? Irsiyatdami? Albatta, qisman irsiyatda. Lekin oila va maktabda ijodiy quvvatning tarkib topishida turtki berib turishga talab etiladigan ishlar bilan band etib qo'yilmasa, undagi miya quvvati sekin-asta so'nib boradi.

Bolaning har bir mashg'ulotidan uning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda foydalaning. Bolaning fantaziyasiga turtki berish uchun plastilin yoki qog'ozdan turli-tuman shakllar, o'yinchoqlar yasashni o'rgat-ing. Shashka, shaxmat o'ynashga e'tibor bering. Shaxmatda (mot) qilishning turli yo'llarini ko'rsat-ing. Bolalar kompyuter o'yinlari o'ynashlariga sharoit yarating. Bular bola ijodiy tafakkurining rivojlani-shida muhim ahamiyatga ega. Bolalar bilan turli kinofilmlar, televizion eshittirishlarni oila davrasida muhokama qiling, oila bayramlari badiiy qismini bolalarning o'zlari o'tkazishiga erk bering. Bularning barchasi badiiy tasavvurning rivojlanishiga yordam beradi.

Farzandingizda naqsh chizish yoki rasm solishga zehni borligini bilgan zahotingiz usta musavvir, naqqosh yoki kulolga etaklab boring - shogirdlikka bering. Umuman bola maktab to'garaklari yoki maktabdan tashqari muassasalarida o'zi sevgan mashg'ulotga qatnashishlariga yo'l-yo'riq ko'rsating.

Mamlakatimizda badiiy ijod uchun keng imkoniyat yaratilgan. Toshkent shahrining Eskijo'va maydonida 2005-yilda maxsus Bolalar ijodiyoti uyi, Istiqlol ko'chasida 2008-yilda Yoshlar ijod saroyi ishga tushirildi, viloyatlarda Barkamol avlod markazlari tashkil etildi. Bolalar ijodiyoti uyida radioelektorika, yog'och o'yimakorligi, bichish va tikish video studiya, tasviriy san'at, adabiyot, lak miniatyurasi to'garaklari, shaxmat klubi, estrada-vokal studiyasi, kompyuter sinfi va boshqa to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Yoshlar ijod saroyi san'at sohasining barcha turlari - tasviriy san'at, kino, teatr, musiqa san'ati, me'morlik, dizayn, adabiyot va boshqa sohalarda ijod qilayotgan yoshlar iqtidorini rivojlantirish va rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ota-onalar



imkoniyatdan foydalanib farzandlarini Bolalar ijodiyoti uyi va Yoshlar ijod saroyida san'atning turli sohalari bilan shug'ullanishga jalb etishlari lozim³.

Xulosa va takliflar

Bolani o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq barcha ishlarni ijodiy jarayon darajasiga chiqarish kerak. Iste'dodli bolalar ijodiy imkoniyatlarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Bunday bolalarni ularning mehnatga bo'lgan munosabatlaridan bilib olish mumkin. Ular soatlab qunt bilan kitob o'qib o'tiradilar. Kompyuter ichiga kirib, ikir-chikirlarni ham o'rganib oladilar. Bunday bolalar o'z aqliy kuchlarini tekshirish imkoniyatlari borligidan zavqlanadilar. Oldingisidan murakkab bo'lgan yangi masalani echish ularga qiziqish uyg'otadi. Ular bu masalani echmaguncha tinim bilmaydilar. Bunday bolalar faqat oldinga intiladilar. Oldlariga yangidan - yangi maqsadlar qo'yib birin- ketin bularga erishib boradilar.

Bolaning ijodda o'zini ko'rsatish ehtiyoji buyuk ne'mat. Har bir bolaning ilmiy, ishlab chiqarish, madaniy va ijtimoiy hayotining yaratuvchisi bo'lishdek orzu - umidlarini avaylashimiz kerak.

1. Маданият – миллий бирлик асоси. Адолат – 2004. Ҳакимова О. Катта ўқитувчи. 22-23 бетлар. Миллий урф-одатлар асосида ўсмирларнинг ахлоқий маданиятини шакллантириш.
2. ТАРБИЯ. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти Т-2010 Авторитар тарбия 9, 10 бетлар.
3. ТАРБИЯ. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти Т-2010 Авторитар тарбия 64 бетлар.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. A.To'raev, Sh.Akramov, A.Nazarov. “Madaniyat-milliy birlik asosi” Toshkent. “Adolat”-2004.
2. M.N.Aminov, A.M.Majidov T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2010. – 528-b.
3. Сергеева Н. Ю. Арт-педагогика как ресурс гуманитаризации школы нового века // Проблемы искусства в XXI веке: Задачи школы: Сборник статей по материалам Международной научно-практической конференции (Санкт-Петербург, 22—23 ноября 2010 г.) СПб.: Полторацк, 2010. — 450 с. — С. 132—133.